Alisher NAVOIY

TARIXI ANBIYO VA HUKAMO

BISMILLOHIR-RAHMONIR-RAHIM

Odam salavotulloh alayh xilqati Odamning kuniyati Bulbashardur va laqabi Safiyullohdur. Chun irodatulloh aning xilqatig‘a muqtaziy bo‘ldi, Jabrailg‘a amr bo‘ldikim, bir miqdor tufrog‘ aning tiynati taxammuri uchun ul yerdinki, holo Makka aning o‘rnidadur, keltursun. Jabrail alayhis-salom bu amrg‘a ishtig‘ol ko‘rguzdi, birhol tili bila anga ont berdikim, tufrog‘ni mendin olmakim, bo‘lmag‘aykim, bu maxluqdin noshoyist amr vujudqa kelgaykim, ul sababdin men haq taoloning mujibi saxtu xitobi bo‘lg‘aymen. Jabrail a. s. qaytib aning so‘zin arz qildi ersa, Mikoyilg‘a hukm bo‘ldi. Ul dag‘i yerdin ham andoq ont eshitib qaytdi, ersa, Isrofilg‘a hukm bo‘ldi. Ul ham ul ikining uzri bila qaytqondin so‘ngra Azroilg‘a buyruq bo‘ldikim, yerdin tufroq keturgay. Yer Azroilg‘a ont bergandin so‘ngra Azroil ayttikim, haq subhona va taoloning amri saning ontingdin yuqoriroqdur. Bir ovuch tufroq yer yuzidin olib, haq taoloning amri bila bihishtga kelturub, Hazrati Muhammad sallallohu alayhi vasalamning tiynatin tasnim suyi bila yug‘urub, borcha maloikka arz qildilarkim, maqsudi olam va odam ofarinishidin munung xilqatidurkim, oxiruz-zamon payg‘ambari bo‘lg‘usidur. Andin so‘ngra Odam a. s. tufrog‘ig‘a qirq kun rahmat yomg‘uri yog‘durub, o‘z qudrat ilki bila taxmir qildikim, «xammartu tiynati odama biyadayya arabina sabohan»[1] andin xabar berur. Chun inson kisvatin odamg‘a kiydurdilar haq subhonahu va taolo asmoi husnini anga o‘rgattikim va allama odamaal asmoa kullaho[2] va maloyikayi muqarrab aning ilmig‘a mu’tarif bo‘ldilar va tangri taolo hukmi bila anga sajda qildilar. Iblisdin o‘zgakim, ul jindin erdi fasajadal maloikatu kulluho‘m ajmaunillo iblisa[3]. Va iblis ko‘p toat qilg‘ondin so‘ng maloika martabasig‘a yetib erdi. Chun tangri taolo amridin bo‘yun to‘lg‘odi, shaqovat va la’nati jovid tavqi aning bo‘ynig‘a tushtikim, «Va inna alaykal-la’nati ilo yavmiddin»[4]. Odam va Havo bihishtda sokin bo‘lsun deb amr bo‘ldikim, «yo Odamu, uskun anta va zavjuka al-jannata»[5]. Va Havo Odam a. s.ning so‘l yonidin yaratildi. Va ba’zi rivoyatda andoqdurkim, Havo dunyoda yaratilib erdi. Har taqdir bila Odamg‘a bug‘doy yemakdin nahy bo‘ldi. Ba’zi uzum, ba’zi anjir debdurlar. Iblis Odam jihatidin la’nati abadiyag‘a shoyista bo‘lub erdi. Bu xusumatdin yilon vositasi bila bihishtga kirib, Odam a. s. bug‘doy yemak vasvasasin qilib, chun irodatulloh munga joriy bo‘lub erdikim, olam yuzin Odam avlodi tutqay. Odam va Havoni bihishtdin chiqardilar. Va Hindiston mulkida bir-biridin ayru tushtilar. Odam a. s. Makkaga kelib, Arafot yonida Havog‘a uchradi. Andin Arafot ul yerga laqab qoldi. Andin so‘ngra Odam a. s. Ka’ba uyin yasadi. Dag‘i Hindiston sori azimat qildilar. Va Jabrail a. s. hububot kelturub, Odamg‘a qo‘sh surub, ekin ekmak qoidasin o‘rgatti. Va Havo Odamdin xar qachon homila bo‘lib erdi, iki farzand kelturur erdi: bir o‘g‘ul, bir qiz. Bu o‘g‘ulg‘a yana bir qornidin kelgan qizni berurlar erdi va bu qizni yana bir qorindin kelgan o‘g‘ulg‘a berurlar erdikim, orada farq bo‘lg‘ay. Qobil bila tuqg‘on qizni oti Iqlimo debdurlar. Tiladikim, Hobilg‘a berg‘ay. Qobil o‘z singlining husni jihatidin anga moyil erdi, unomadikim Hobilg‘a bergaylar. Odam ikisiga qurbon buyurdikim, har qaysining qurboni qabul tushsa, anga bergay. Hobilning qurboni qabul tushub, Odam a. s. Iqlimoni anga berdi. Qobil xusumat jihatidin Hobildek qarindoshikim, saburi jamol va ma’naviy kamol bila orosta erdi va Odam a. s. ani bag‘oyat sevar erdi, halok qilib, Odamni aning firoqida mubtalo qildi. Avval kishikim, nohaq qon qildi Qobil erdi. Chun andin burun hech kishi o‘lukni ko‘rmaydur erdi. Qobil mutahayyir bo‘lub, Hobilni ko‘tarib yurur erdi. Bori taolo hukmi munga mutaalliq bo‘ldikim, odamizod mayitning tadfinin bilgay. Iki malakni iki qarg‘a surati bila Qobil qoshig‘a yibordikim, bir-biri bila urushub, biri yana birin o‘lturdi va qotil qarg‘a yerni tirnab, minqori bila qozib, maqtulni dafn qildi. Qobil dag‘i bu ta’limni olg‘och, Hobilni go‘r qazib, dafn

qildikim, bori taolo Qobil tilidinkim, «A’-jaztu an akuna misli hazal g‘urobi»[6] karimasin ado qilur. Va qurbon qilmoq bu erdikim, qo‘y o‘lturub, tog‘ ustida qo‘yarlar erdi. Osmondin o‘t tushub, qaysini kuydursa erdi, qabul nishonasi ul erdi. Chun Qobilning qurboni kuymadi, shayton anga bu nav’ bozi berdikim, o‘t sendin ranja bo‘lubdurkim, qurboningni kuydurmadi. O‘tqa sajda qilsang, sendin xushnud bo‘lur. Qobil dag‘i o‘tqa sajda qilib, otashparastlik rasmi bunyod bo‘ldi. Chun Odam a. s. Hobil firoqida ko‘b betoqatlik qilur erdi, haq taolo Shis a. s. ni Odamg‘a karomat qildi. Va Shis a. s. muhabbati Odamning Hobil motamida iztirobin kam qildi, Iqlimoni anga nikoh qilib, o‘z o‘rnida valiahd qildi va hayot vadi’atin arvoh qobizig‘a topshurdi. Va umrin ba’zi ming yil va ba’zi to‘quz yuz o‘tuz yil debdurlar. Va Odam a. s. so‘ngra ba’zi uch, ba’zi yeti kundin so‘ngra Havog‘a ajal yetti. Madfanlarida ham ixtilof bor. Ammo mavlono sharaful milla vaddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» muqaddimasida aytibdurkim, Odam a. s. ni Shis g‘usl berib, namoz qildi va Hindistonda dafn qildi. Havo ham Odam a. s. yonida madfun bo‘ldi. Ammo Nuh a. s. zamonidakim to‘fon bo‘ldi, Nuh alarning muborak jasadlarin kemada asrab, to‘fondin so‘ngra Abul Qays tog‘ida va ba’zi debdurlarkim, Baytul-muqaddasda dafn qildi. Va Odam a. s.ning Hobilg‘a marsiyasi bor.

R u b o i y:

Odamniki, haq lutf ila mavjud etti,
Majmu’i mulk xaylig‘a masjud etti.
Oxir tanidin ruhni manqud etti,
Ul nav’ki, nobud edi, nobud etti.

Shis a. s. – Odamdin so‘ngra aning o‘rnida o‘lturub, aning avlodig‘a muhofazat boshladi. Va bori taolo Shisg‘a nubuvvat karomat qildi va anga sahifa nozil bo‘ldi. Va Ka’ba binosin tosh va gach bila Shis a. s. imorat qildi. Va Qobil avlodikim, kufr va inod ahli bo‘lub, otashparastliqqa mashg‘ul erdilar, qolin bo‘lub, Odam avlodig‘a zararlar tegar erdi. Shis a. s. chun bag‘oyat dalir va shujo’ erdi, alar ustiga sipoh tortib, fasodlarin daf’ qilib, alar berk tog‘larda maskan qilib, musta’sal va parishon bo‘ldilar. Va Shis a. s. Bobilda Sus shahrin bino qildi. Va yeti o‘g‘li bor erdi. Chun nubuvvatidin qirq besh yil o‘tti, o‘g‘lonlarig‘a Qobil avlodining harb va daf’in vasiyat qildi. Anushkim, ulug‘roq erdi, o‘z o‘rnida valiahd qilib, olamg‘a vido’ etti. Va ani Odam a. s. yonida dafn qildilar. Va yoshi to‘quz yuz o‘n iki yilg‘a yetti.

R u b o i y:

Gar Shis va gar Qobil erur, gar Hobil,
Yoshlari agar yuz yil erur, gar ming yil,
Bir necha kun etsalar jahonda ta’til,
Oxir borig‘a ajal buyurur ta’jil.

Anush payg‘ambar emas erdi, ammo valoyatdin nasibi bor erdi. Va odil va saxiy kishi erdi. Atbo’ va avlodin Odam diniga da’vat qildi va avval kishikim, xurmo yig‘ochi ekti, ul erdi. Va avval kishikim, sadaqa rasmi paydo qildi, ul erdi. Ul sababdinkim, aning zamonida rafoxiyyat ko‘p bo‘ldi. Va oncha qo‘y va o‘y va soyir bahonim paydo bo‘ldikim, hech hisobin bilmas erdi. Ul buyurdikim, chun haq taolo hisobdin ortuq mol karomat qilibdur, har mingdin birin ayirib, muhtojlarg‘a bering.

Va tarixi Ja’fariyda bitibdurkim, aning zamonida Suvod mulkida bir ajdaho paydo bo‘lub, xaloyiqqa ko‘b nuqsonlar yetkurdi. Anush borib, ul ajdahoni Odam a. s. bihishtdin chiqarg‘on aso bila o‘lturdi. Dedilarkim, Muso a. s.g‘a tekkon hamul asodur. Aning zamonida jin xayli odamizod orasig‘a kirib, zarar yetkurur erdi. Va aning o‘n iki farzandi bor erdi. Qinon ulug‘roq erdi, ani valiahd qilib,

vafot qildi. Ani otalari yonida dafn qildilar. Va umrida ixtilofdur. Ja’fariyda uch yuz yil debdurlar, ammo o‘zga tavorixda to‘quz yuz oltmish besh yil debdurlar.

B a y t:

Ming yil dog‘i sursa eri davronni Anush,
Ham aylagusi edi ajal jomini no‘sh.

Qinon binni Anush chun otasi o‘rnig‘a o‘lturdi, ba’zi Susni, ba’zi Bobilni debdurlarkim, ul imorat qildi, vale muttafiqdurlarkim, xalqdin yuzar-yuzar kishi ayirib buyurdikim, kentlar, hisorlar yasadilar. Chun Qinonning yoshi to‘quz yuz yilg‘a yetti, Mahloyilkim, ulug‘roq o‘g‘li erdi, valiahd qilib, olamdin o‘tti.

Mahloyil binni Qinon otalari dorul-mulkidin Rum mulkiga bordi va Shis a. s. avlodini o‘zi bila eltti va soyir atbo’in olam mulkida parokanda qildi. Aning zamonida ko‘p yerda el zohir bo‘ldilar. Umri sekiz yuz oltmish beshga yetkondin so‘ng, Yazidni valiahd qilib, olamdin o‘tti.

Yazid binni Mahloyil. Derlarkim, Yazid bag‘oyat zeboro‘y va pisandidaxo‘y erdi. Qushlar eti va bolig‘ eti yemakka ul muxtari’ bo‘ldi. Va arig‘lar qozib, suv chiqordi va ko‘p nikoh qilur erdi. Anga qirq o‘g‘ul paydo bo‘ldi. Boridin kichikroq Axnux erdiki, ani Idris debdurlar. Umri to‘quz yuz oltmish ikiga yetkonda, Idris a. s. ni valiahd qilib, oxirat safarig‘a ozim bo‘ldi va ajdodi yonida dafn qildilar.

Idris a. s. suryoniy payg‘ambardur. Otasi Yazid zamonida butparastliq shoy’e bo‘ldi. Anga vahy keldikim, ul elga butparastliqdin man’ qilg‘ay. Cherik tortib, ko‘p jihod qilib, Qobil avlodinkim, butparastliq qilur erdilar, qatl va asir qilib, g‘azv va jihod qoidasin ul arog‘a kiyurdi. Va ani xalq musallasun-na’ma deydilarkim, uchunchi payg‘ambar va uchunchi hakim va uchunchi podshoh erdi. Yunon ahli aqidasi budurkim, Hurmis hakim uldur. Xat va nujum ilmini ul paydo qildi va kiymak va yemak andin qoldi. Haq taolo aning uchun o‘tuz sahifa nozil qildi. Va aning zamonidin Nuh a.s. zamonig‘acha to‘rt yuz o‘tuz to‘rt yildur. Oltmish besh yoshida Matushlax mutavallid bo‘ldi. Va Idris a. s.ning mavtin kishi ko‘rmaydur. Ham shar’ ahli qoshida, ham tarix ahli olida aqida budurkim, ul tirikdur va bihishtdadurkim, kalomi olihi ondin xabar berurkim, «varafa’nohu ma-konan aliyyan»[7]. Va bu qissaning sharhin mabsutroq kutubdin ma’lum qilsa bo‘lur. Va ani yanbu’ul-hayot debdurlar. Umri uch yuz oltmish beshga yetkonda ani maloika osmong‘a raf’ qildilar. Va borurda o‘g‘li Matushlaxni valiahd qildi. Va ani Idris dars ko‘p ayturdin debdurlarkim, nihoyatdin ko‘prak shogirdi bor erdi. Va aning zamonida mazkur bo‘lg‘on ulum shoye’ bo‘ldi.

Chu Idris olamda bo‘ldi muqim,
Rasul erdiyu, podshohu hakim.
Agarchi anga bo‘ldi uchmoq makon,
Jahon ichra xud qolmadi jovidon.

Matushlax binni Axnux. Aning avlodi qolin bo‘ldi. Va derlarkim, ot aning davrida ko‘p bo‘ldi. Dono kishi erdi. Doim avlodig‘a cherik boshlatib, Qobil avlodi ustiga yiborur erdi va alarni maktum qilur erdi. Sobe’ aning o‘g‘li erdikim, holo bir mashhur muzahhiblari bor. Yoshi to‘quz yuz seksong‘a yetti. Ba’zi mingdin ham ortuq debdurlar. Oqibat Malik Mulkokim o‘g‘li erdi, valiahd qildi. Ammo Malik Matushlaxdin burunroq o‘tti va Malik yuz yetmish yashag‘onda olamg‘a vido’ qildi. Va Matushlax andin so‘ngra o‘g‘li keyniga azimat qildi.

Gar Matushlax va gar Malik o‘lsun var Nuh,
Ichmak kerak albatta fano jomidin sabuh.

Nuh binni Malik binni Matushlax binni Idris payg‘ambari mursaldur va Baxiyulloh aning laqabidur. Ba’zi qirq yoshtin so‘ngra, ba’zi ellik yoshtin so‘ngra debdurlarki, anga vahy nozil bo‘ldi. Va aning zamonida olam xaloyiqi butparast bo‘lub erdilar To‘quz yuz ellik yil elni o‘z dinig‘a da’vat qildi. Sekson kishidin ortuq qabul qilmadilar. Kuffordin anga izolar tegar erdi. Ul so‘z aytsa, eshitmoli deb qulog‘larin tutar erdilar. Haddin o‘tkondin so‘ng, Nuh duo qildi: «Rabbi lotazarni alal arzi minal kafirina dayyoro»[8] duosi mustajob bo‘ldi. Jabrail a. s. bir dona kelturub buyurdikim, ani Nuh a. s. ekti va ul yetkoch yig‘ochi bo‘ldi. Necha yildin so‘ngra ul yig‘och ulg‘oydi. Amr bo‘ldikim, ani kesib, kema yasag‘ay. Ul kemaning tuli uch yuz qari va arzi va umqi anga ko‘ra. Debdurlarkim, kema tugangondin so‘ngra, haq taolo to‘fon oshkor qildi. Andoqkim, ham osmondin yog‘ar erdi, ham yerdin suv qaynab chiqar erdi. Rivoyat mundoqdurkim, suv avval Nuh a. s. tanuridin qaynab chiqti. Alqissa, olti oyg‘acha hol bu erdi, to tamom olamni suv tutti. Va Nuh avval imon kelturgon sekson kishi bila kemaga kirib, uch o‘g‘li dag‘i kemaga kirib, chun kema uch tabaqa erdi, bir tabaqada vuhush yuz bahoyim va sibo’ kirib, yana bir tabaqada bashar kirib, kema yerdin ko‘tarilib, andoq bo‘ldikim, suv tog‘lardin qirq qari o‘tti. Derlarki, Nuh a. s. kemasi haq taolo amri bila iki qotla mashriqdin mag‘ribqa va yana bir qotla mag‘ribdin mashriqqa bordi. Chun tamom olamda kema ichidagi maxluqotdin o‘zga hech maxluq qolmadi, borcha halok bo‘ldilar. To‘fon taskin topti va suv ozola boshladi. Va Nuh a. s. kemasi Mo‘sulda Judi tog‘i ustida qaror tutti. Va Nuh a. s. muharram oyining o‘nida kemadin chiqib, hamul yerda taskin tutub, ul el bila bir kent yasadilar. Va Nuh a. s. umri ming olti yuz yil bo‘lg‘ondin so‘ng olamdin o‘tti. Va rivoyat budurkim, Odam zamonidin Nuh a. s. zamonig‘acha iki ming besh yuz yildur va Nuh davridin Ibrohim Xalil salavoturrahmon alayh davrig‘acha ming besh yuz yil va - Ibrohim a. s. ahdidin Muso a. s. ahdig‘acha to‘rt yuz oltmish yil va Muso a. s. chog‘idin Iso a. s. chog‘igacha ming to‘quz yuz o‘tuz yil va Iso a. s. ayyomidin Hazrat Risolat s. a. v. farxunda ayyomig‘acha yuz sekson yil voqe’dur. Olam ahli aksari Nuh naslidindur. Bu jihatdin ani ikinchi Odam debdurlar. Va aning to‘rt o‘g‘li bor erdi: Yofas va Som va Hom va Kan’on. Va bu Qan’on kofir erdikim, Nuh a. s.ga imon kelturmadi va to‘fonda halok bo‘ldikim, «innahu laysa min ahlika»[9] aning sha’nida nozil bo‘ldi. Rivoyat budurkim, Nuh a. s. kemadin chiqqondin so‘ng, ul sekson kishi andoq halok bo‘ldilarkim, alar naslidin kishi qolmadi. Nuh a. s. Turon va Xo‘tanni Yofasqa berdi va Eronni Somg‘a va Hindistonni Homg‘a. Bu mazkur bo‘lg‘on mamolik ahli bu uch kishining naslidindurlar. Bu jihatdin Yofasni Abut-Turk va Somni Abul-Ajam va Homni Abul-Hind debdurlar. Va Homning rangi qaro erdikim, hind ahli qaro voqe’durlar. Va aning jihati bu erdi. Debdurlarkim, Nuh a. s. o‘yub erdi va avrat uzvi ochilib erdi, Hom ko‘rub kuldi. Va Yofas va Som man’ qilib yoptilar. Nuh a. s. uyg‘onib ma’lum qilib, Homni yomon duo qildi. Ul jihatdin rangi qaro bo‘lub, payg‘ambarliq aning naslidin munqati’ bo‘ldi. Va Nuh a. s. kemaga kirarda, Odam a. s. so‘ngokin madfanidin chiqorib, kemag‘a kiyurub erdi, kemadin chiqqonda, ba’zi debdurlar Madyan yerida, ba’zi derlar Najafda dafn qildi.

Yofasni payg‘ambari mursal debdurlar. Va ani yeti o‘g‘li bor erdi: Buka, Xizr, Suqlob, Rus, Bik, Chin, Kamo. Ba’zi sekiz o‘g‘ul debdurlar va sekizinchi Torax debdurlar. Va Iskandar Zulqarnayn Yofasning to‘rtinchi o‘g‘lidur Rus naslidin.

Chun Yofas Xito mulkida mutamakkin bo‘ldi, bu o‘g‘lonlarig‘a har yerniki berdi, ul yerni ul o‘g‘li oti bila atadilar. Chun bu tarixki bitiladur, xotirda andoqdurkim, Sultoni sohibqiron holot va ansobi mazkur bo‘lg‘ay, insho alloh taolo ul Yofas tarixig‘a mavqufdur. Chun bo‘lg‘usidur muncha bila ixtisor qilildi.

Somni ham ba’zmi payg‘ambari mursal debdurlar va ko‘prak anbiyo. Va Eron muluki aning naslidindurlar.

Va aning olti o‘g‘li bor erdi. Ba’zi to‘quz o‘g‘ul ham debdurlar. Kayumarsni ham aning avlodidin tutubdurlar. Arfaxshad aning naslidindur. To‘rtinchi, Basti Qahiton Qole’g‘a yetishurkim, ibri Qole’ naslidindur. Arabning ko‘pi Qahiton naslidindurlar. Qahitondin uchunchi pusht Sibog‘a yetarkim, a’robdin Xamandiy va Vaxmiy va O’miriy va Qazo’iy va Ash’ariy va Ozdiy va Toiy Sibo naslidindur.

Va Somning ikinchi o‘g‘li Olimdurkim, Xuroson va Misol aning o‘g‘lonlaridurlar. Iroq Xuroson o‘g‘lidur. Va Kirmon va Makron Misol o‘g‘lonlari. Va uchunchi o‘g‘li Asva-durkim, Ahvoz va Pahlu aning o‘g‘lonlaridur. Va Fors Pahluning o‘g‘lidur. Va to‘rtinchi o‘g‘li Budazdurkim, Ozarbayjon va Aron va Arman va Far’on aning o‘g‘lonlaridurlar. Va beshinchi o‘g‘li Ovadurkim, Od va Samud qavmi aning naslidindurlar. Va oltinchi o‘g‘li Sag‘rdurkim, Shom va Rum aning o‘g‘lonlaridurlar.

Homni ham ba’zi payg‘ambar debdurlar. Ammo chun Nuh a. s. anga Hind mamolikin muqarrar qilib, ul navohiyg‘a yubordi, Homning avlodi ul vasi’ mulkda yoyildilar. Va aning to‘quz o‘g‘li bor erdi: Hind, Sind, Nuba, Kan’on, Kush, Qibt, Barbar, Rih, Habash. Va bu to‘quz kishining avlodi ko‘p bo‘ldi va arolarida o‘n sekiz lug‘at paydo bo‘ldikim, biri yana birining lug‘atin yaxshi anglamaslar erdi. Ba’zi debdurlarkim, bu jihatdin har lug‘at ahli bir mulkka mutafarriq bo‘ldilar. Ammo asli budurkim, Hom avlodig‘a ul iqlimdag‘i mamolikni berib uzatti, anda alarning taba’i ko‘p bo‘ldi, Alfozlari mutanavve’ bo‘lub, Buxtunnasr va Namrud ikalasin derlarkim, Homning Kush otlig‘ o‘g‘li naslidindurlar. Bu tarixni mutolaa kilur maxodim arzig‘a yetkurulurkim, tavorixiki bitibdurlar, bu mavzu’din parishonroq yer yo‘qtur. Asru ko‘p muxtalif aqvol bu yerda mazkurdurkim, bitmoki o‘hur elga mujibi taraddud bo‘lur. Ul jihatdin ba’zi mu’tabar kutubdin ushmuncha so‘z bila ixtisor qi-lildi.

Hud a. s. Tarix ahli ba’zi debdurlarkim, Nuh zamonidan Ibrohim salavottulloh alayh zamonig‘achakim ming iki yuz yil bo‘lg‘ay, Hud bila Solih a. s. din o‘zga payg‘ambari mab’us bo‘lmadi. Va Hud a.s.ning nisbatin mundoq debdularkim, ul Abdulloh binni Ramoh binni Horis binni Horut binni Avaz binni Eram binni Som binni Nuhning o‘g‘lidur. Va aksar kutubda ani Obir binni Solih binni Arfahshod binni Som binni Nuh debdurlar. Oni Haq subhona va taolo Od qavmig‘a yibordi. Va ul qavm bag‘oyat biyik bo‘ylug‘ va azim kuchluk xalq erdilar va alarning oyini butparastlig‘ erdi. Ishlari ko‘p nima yemak va fisq erdi. Hud a. s. ellik yil alarni imong‘a da’vat qildi. Alar g‘aflat va jabborlig‘din aning so‘zin eslamadilar, o‘z nohamvorlig‘laridin tajovuz qildilar, magar qalilkim, iymon sharafig‘a musharraf bo‘lub, iymonlarin ul qavm vahmidin maxfiy tutarlar erdi. Hud a. s. alar ishidin ojiz bo‘lub, balki navmid bo‘lg‘ondin so‘ngra, alar bobida yomon duo qildi. Va ul duo mustajob bo‘ldi, Tengri taolo alarni qahat balosig‘a mubtalo qildi. Ul nav’kim yeti yil yog‘in yog‘madi. Dog‘i rudxona va bulog‘lar qurudi. Ul chog‘da ma’hud bu erdikim, yomg‘ur yog‘masa, Makka haramig‘a borib, qurbon qilib, haq taolodin yog‘in istid’o qilur erdilar. Luqmon binni Odni necha kishi bila ul qavm yomg‘ur duosi uchun Makkaga yubordilar. Va Luqmon ham yoshurun iymon kelturub erdi, ammo arolarida ba’zi kofir erdi. Alar duo qilg‘och, uch pora bulut paydo bo‘ldi: birining rangi oq va birining rangi qizil, birining rangi qaro. Dog‘i osmondin un keldikim, Od qavmig‘a qoysi bulut kerak? Luqmonning ul rafiqikim kofir erdi, bu tama’ bilakim, qaro bulut suvluq bo‘lur, qaro bulutni qavmi uchun tiladi. Tengri taolo aning istid’osi bila murodin berdi. Va ul sarsari erdikim, ani rihul aqim debdurlar, Od qavmig‘a yetti kecha va sekiz kun esti. Andoqkim, imoratlarin yiqti va yig‘ochlarni qo‘ng‘ordi. Ul qavmkim o‘z kuchlarig‘a mag‘rur erdilar, xoshokdek sovurub, tog‘ va toshg‘a urub, borisin halok qildi. Va bu hol shavvol oyida bardul-ajuz vaqtida erdi.

Hud a. s.ning umrida ixtilofdur. Ammo «Sohibi guzida» – kuffor daf’idin so‘ngra, ellik yil tirik bo‘lubdur, yuz ellik yashag‘ondin so‘ngra, olamg‘a vido’ qildi. Ibriy til bila oni Obir debdurlar. Ibriy Obirdin mushtaqdur. Arab Hud dedi. Ya’ni, Baniyul-lohdir. Mu’jizoti ko‘ptur. Ul jumladin biri Od kavmining daf’i erdi.

R u b o i y:

Ul qavmi azim dedilar oni Od,
Sardorlari Shadid yoxud Shaddod.
Bir dam yelidin oqibat ul ahli inod,
Xoshok kabi borchasi bo‘ldi barbod.

Solih a. s. Oni haq subhona va taolo Hud a. s. din so‘ngra Samud qavmig‘a mab’us qilib yibordi va Samud qavmi Odiylardin burun Hijardakim, Hijoz va Shomning orasidadur, muqim erdilar va Od qavmining zavolidin so‘ngra Samud qavmi alarning mulkig‘a borib, buzulg‘on imoratlarin yasab, saltanat masnadida o‘lturdilar. Va Tengri taolo alarg‘a oncha mol va johu farog‘at nasib qildikim, haddu hasrdin o‘tti. Bu jihatdin g‘urur dimog‘larig‘a yo‘l topib, jahl va g‘aflatdin gumroh bo‘lub, haq taolo amr va nahyidin bo‘yun to‘lg‘ob, butparastlik ixtiyor qildilar. Va azim fisqu fujurg‘a ishtig‘ol ko‘rguzdilar. Alarning hidoyat tanbehi uchun Solih a. s. mab’us bo‘ldi. Ul qavmni tuz yo‘lg‘a dalolat qilib, hech kim qabul qilmadi. Ko‘p muddat ul hazrat nasoyih va mavoiz va va’du va’id ko‘rguzdi. Oz kishi alardin aning dinig‘a mayl qildilar. Ammo Solih a. s. tangri taolo hukmi bila alar da’vatidin ilik tortmas erdi. Alar ojiz bo‘lg‘ondin so‘ngra, Solihdin g‘arib mu’jiza tiladilarkim, xora toshdin duo qilib, bir bo‘talig‘ teva chiqorg‘il. Solih a. s. duo qilib, haq taolo ul toshni shaq qilib, teva bo‘tasi bila tosh arosidin chiqti. Bovujudi mundoq hol ul gumrohlar nubuvvatig‘a mu’tarif bo‘lmadilar va Solih a. s. tevasi o‘tuz yilg‘acha mavjud erdi. Oqibat Samud qavmi ul tevani necha kishi yiborib o‘lturttilar va bo‘tasi qochib tog‘ sori yuzlandi. Solih a. s. ul qavmg‘a ayttikim, bu beboklikkim sizdin voqe’ bo‘ldi, haq taolodin muning intiqomi sizga bu bo‘lg‘usidurkim, uch kungacha bir kun yuzlaringiz sorig‘ bo‘lg‘usidur, ikinchi kun tiyralikka moyil bo‘lub, uchunchi kun tamom qorarg‘usidur, deb uyiga yuzlondi. Noqani o‘lturgon badbaxtlar Solih a. s.ni dog‘i o‘lturur qasdi qilib, Solih a. s.ning ummati ayttilarkim, ul bir so‘z aytadurkim, aning mav’idi yiroq ermas, tonglag‘acha tahammul qiling, osori zohir bo‘lsa, harne qilsangiz bilursiz. Bu so‘z alarg‘a ma’qul ko‘runub qoyttilar. Ammo Solih a. s. degan yo‘sun bila uch kunda uch alomat zohir bo‘lur. Va ul qavmg‘a holate zohir bo‘ldikim, o‘zlarin iztirob birla yerga urarlar erdi, nogoh Malakut olamidin bir mahobatliq un keldikim, borchalari halok bo‘ldilar. Ba’zi kutubda mundoq debdurlarkim, bir zaifakim, oti Vazi’a erdi va ayog‘-ilki mafluk va Solih a. s.g‘a doim til tekurur erdi, o‘lmay qoldi va tani durust bo‘lub, ul diyordin vodiyul-qariyag‘a keldi va xaloyiqqa haq subhona va taoloning qahhorlig‘ bahri mavjg‘a tushub, Samud qavmini fasod va makoni egrimida g‘arqa qilg‘on yerga yetib, suv tilab ichkondin so‘ngra, hamul girdobqa cho‘mdi. Rivoyatdurki, ul qavmdin Abuzu’ol otlig‘ bir kishi Makka haramida tirik qoldi. Haramdin chiqg‘och, o‘ldi va aning bir shox oltuni bor erdi, hamul oltun bila dafn qildilar. Necha ming yildin so‘ngra hazrat Risolat a. s. zamonida ul hazrat ul yerdin o‘tar erdikim, ashobqa ayttikim, bu yer Abuzu’olning madfanidur. Va Solih nabiy va Samud qavmin qissasini aytti va ul shox oltundin ham xabar berdi. Ashob ul yerni shaq qilib, oltun mavjud edi, oldilar. Solih a. s.ning umri iki yuz sekson yilg‘a yetti. Shariati Nuh a. s. shariati erdi. Va madfani haram yaqinida Dorun-nadvada, ba’zi Rukn bila Maqom orasida ham debdurlar.

R u b o i y:

Solih keldi Samudning qavmi chog‘i,
Tolih edilar bu qavm boshtin ayog‘i.
Bu turfaki, charx zolining o‘ynamog‘i,
Tolihni dog‘i qo‘ymadi, Solihni dog‘i.

Xantila binni Safvon Qahr binni Qahiton o‘g‘lidur. Oni Tengri taolo Ashobur-rasqakim, Kalomullohda mazkurdur, yibordi. Va Ras podshohe erdi Samud naslidin. Mag‘rib zaminda ul yazdonparast erdi. Oxiratul-umr va vus’at saltanatdin dimog‘ig‘a g‘urur yuzlandi, Tengrilik da’vosi qildi. Aning zamonida eronlar livota qilib, bahoyim bila jam’ bo‘lur erdi. Va xotunlar charm va teridin olat yasab, o‘zlariga isti’mol qilurlar erdi. Va holo go‘yoki bu nav’ zuafoni ras ham derlar. Va ba’zi o‘zlarini bir-biriga surtub taskin berurlar erdikim, alarni sa’tariy ham derlar. Xantila ul qavmni bu af’oldin man’ qildi va haq taolo ubudiyatig‘a da’vat qildi, qabul qilmadilar. Haddin o‘tkondin so‘ngra duo qildikim, alarning suvlarin qurutti va alar Xantila duosidin bilib, aning qasdig‘a cherik tortib, ul

dog‘i atboin yig‘ib, Tengri taolo hukmi bila Rasqa o‘tru yurudi. Ras cheriki bir o‘qkim Xantila sori ottilar, haq taolo qudratidin ul o‘q yonib, otqan kishiga tegib, ani halok qildi. Chun ul botil sipoh halok bo‘ldilar, Ras qochib, bir mis va ro‘ydin yasag‘on ko‘rg‘ong‘a kirdi, ammo foyda bermadi. «Valav kuntum fi buruvjim mushayyadatin»[10] mazmuni bila Azroil ruhin qabz qildi va jahannam sori yibordi. Sohibi guzida bu nav’ bitibdurkim, ammo Mavlono Mirxond «Ravzat us-safo»da Solih a. s. zikridin so‘ngra Zulqarnayn Akbar qissasin bitib, mundoq bayon qilibdurkim, aksar ahli tarix Nuh a. s.din so‘ngra va Ibrohim salavotur-rahmon alayhdin burun Hud bila Solih a. s.din so‘ngra o‘zga payg‘ambar bo‘lmaydur debdurlar. Ammo saltanatdin ba’zining kalomi munga mash’ardurkim, bu mobaynida Zulqarnayn Akbar nubuvvat martabasig‘a musharraf bo‘lubdur. Nevchunki, mujohid Abdullo binni Umar raziyOllohu anhumodni naql qilibdurkim, Zulqarnaynning nubuvvatig‘a bir dalil budurkim, tangri taolo o‘z kalomida «va qulno yo Zulqarnayn»[11], deb anbiyo dasturi bila xitob qilib, ba’zi ya’juj daf’i uchun sad bog‘labdur va ya’juj va ma’juj sifotida dog‘i mubolag‘alar ko‘rguzubdur. Bu faqir qalamig‘a ul qobiliyat yo‘qdurkim, ahli tarix bitkondin tahrir qilg‘ay. Ul g‘aroyibqa ittilo’ tilagan kishi mabsut tavorixda o‘qub, mahzuz bo‘lg‘ay. Va lekin Banokatiy tavorixida Nuh bila Ibrohim a. s. orasida o‘n kishi bitibdurkim, saltanat qildilar. Va bu o‘n kishining zamoni iki ming yetmish sekiz yil ortuq yo biror nima o‘ksukrak debdurlar. Va alarning asomiysi: Som binni Nuh, Arfaxshad binni Sholih Sinni Folah binni Obir, Ar’avi binni Folah binni Solih binni Obir, Ar’ovi binni Folih binni Solih, Argutoxur binni Sorug‘, Torax binni Mohava. Go‘yo o‘nunchi kishi Ibrohim a. s. dur. Derlarki, Ibrohim binni Torax bitibdurkim, ko‘prak anbiyo va salotinni bular naslidin te’dod qilibdurkim, sharhining tuli bor ham parishonlig‘i.

Tarix ahlining ixtilofi ko‘ptur,
«Shahnoma»ning ul nav’ki lofi ko‘ptur.
Ba’zi mutaassib el gazofi ko‘ptur,
Sen yozg‘ali ham nuktai vofi ko‘ptur.

Ibrohim salavotur-rahmon alayh ulul-azm bitibdurlar. Otas Ozar erdikim, ani Torax ham bitibdurlar. Va bu Ozar Kufaning Kavsarmo otlig‘ kentidindur va Ibrohim a. s.ning valodati Samud binni Kan’on binni Kush binni Oram binni Som binni Nuh zamonida erdi. Bu Namrud tarix ahlining ittifoqi bila to‘rt kishikim olamda saltanat qildilar, biri uldur. Bu to‘rt kishidin ikisi payg‘ambardurlar. Biri Zulqarnayn, biri Sulaymon a. s. Va yana ikisi kofirdurlar – biri Namrud, biri Buxtunnasr. Va ba’zi bulardin o‘zgani ham debdurlar. Namrud zamonining kohin va munajjimlari anga arz qildilarkim, bu yil bir nutfa rahmg‘a boradurkim, ul kishi mutavallid bo‘lsa, sening zavolingg‘a boisdur. Ul hukm qildikim, hech kishi ul yil xotuni bila muboshirat qilmasun va borcha xaloyiqni zuafodin oyirib, har o‘nni bir amin kishiga topshurdi. Va nujum ahli bir kunni ta’yin qildilarkim, ul kun ul muborak zot ota pushtidin ona qornig‘a intiqol qilibdur. Namrud o‘zi Bobil shahridinkim poytaxt erdi, chiqib buyurdikim, hsch kishi shahrda qolmasun, borcha xalq aning bila chiqg‘ondin so‘ngra, shahrda zuafo dog‘i cho‘q -cho‘q matoflarg‘a sayrg‘a mashg‘ul bo‘ldi. Ozar Namrudg‘a mulozim erdi va shahrning bir darvozasig‘a oni qo‘yub erdi, ittifoqo aning zavjasi bu darvozadin sayrg‘a ozim erdikim, Ozar ko‘rub anga moyil bo‘ldi va xilvatqa kiyurub, aning bila jam’ bo‘ldi. Zaifa homila bo‘ldi, ammo yoshurur erdilar. Ham Ozar va ham homila to haml vaz’ining vaqti yetti, Ozarg‘a jufti ayttikim, manga bu ish suubat bila bo‘lg‘usidur. Ulug‘ butxonalarg‘a borib, alardin tazallum bila mening uchun duo qilkim, jonim salomat qutulsun. Tifl mutavallid bo‘lg‘ach, senga xabar qilduroy. Va Namrud kohinlar xabari bilakim, ul tifl bu yoqinda mutavallid bo‘lur deb erdilar, hukm qilib erdikim, har tifl mutavallid bo‘lg‘och, o‘ltursunlar. Ba’zi yetmish ming, ba’zi yuz ming tiflni debdurlarkim, ul shumning hukmi bila o‘lturdilar.

Chun Ibrohim a. s. mutavallid bo‘ldi, onasi ani yoshurub, Ozarg‘a xabar qildikim, tifl o‘luk tushti va dafn qilduq. Va Ozardin yoshurun naqb ichinda anga parvarish berur erdi. Bir rivoyat ham borkim,

onasi Namrud vahmidin ani bir g‘orda asrar erdi. Har taqdir bila chun Ibrohim a. s. bo‘lug‘ haddig‘a yetti, onasi anga degnicha andin ko‘p g‘arib ahvol mushohada qilur erdi, to ulkim onasidin bir kun so‘rdikim, maning parvardigorim kimdur? Onasi dedikim: – men, Dedikim: – saning parvardigoring kimdur? Dedikim: – otang. Aytti kim: aning parvardigori kimdur? Dedikim: Namrud. Dedi: Namrudning parvardigori kimdur? Aytti: olam ahlining parvardigori. Aytti: Namrudning shakli yaxshiroqdur yo otamning? Dedi: – otangning. Dedi: – otamning husni ko‘prakdur yo saning? Dedi: – maning. Dedikim: – saning chiroying yaxshiroqdur yo maning? Dedikim: – saning. Ibrohim a. s. ayttikim, parvardigor o‘zidin yaxshiroqni yaratmoq bo‘lmas. Onasi mutaajjib bo‘lub, Ozarg‘a kayfiyati holdin xabar qildi. Va Ozar ul Namrud hukmi ijrosig‘a – Ibrohim a. s. qatlig‘a ozim bo‘lub, muborak yuzin ko‘rgach, otalig‘ muhabbati ani ul xayoldin o‘tkordi. Va Ibrohim a. s. parvardigori talabida sa’y qildi. Bir kecha bu fikrda erdi, har kavkab tulu’ qilsa, «hozo rabbi»[12] ishorati bila xushhol bo‘lub, g‘urub qilg‘och, navmid bo‘lur erdi. To quyoshqa navbat yetti, andin dog‘i ma’yus bo‘lub, «falammo afalat qola yo qavmi inni bariun mimma tushrikun»[13] karimasi bila mutarannim bo‘lub, muborak zamiri aivori hidoyat bila borudi. Alqissa, Ibrohim a. s. ul vaqtning butlarin bilib, ihonat qilib, elni Tengri taolog‘a da’vat qildi. To xabar Namrudqa yetishti, Namrud mutaraddid bo‘lub, aning ihzorig‘a hukm qildi. Ibrohim a. s. Namrud borgohig‘a kirgoch, anga el dasturi bila sajda qilmadi. Namrud mutag‘ayyir bo‘lub, anga sajdag‘a bosh indurmagonining sababin so‘rdi ersa, Ibrohim a. s. ayttikim, meni birov yaratibdurkim, tirikni o‘luk, o‘lukni tirik qilur. Namrud dedikim, men ham bu ishni qilurmen. Buyurdikim, zindondin iki kishi kelturtub, birin o‘lturdi, birin ozod qildi. Ibrohmo‘mininm a. s. bu nav’ o‘lturmak va tirguzmakni musallam tutmay, dedikim, mening parvardigorim kunni mashriqdin tole’ qilur, sen agar mag‘ribdin tole’ qilsang, da’vingni musallam tutay. Namrud bu hujjatdin ojiz bo‘lub, Ibrohim a. s. ul majlisdin chiqib, xaloyiqni iloyina yuzidin Tengri taolog‘a dalolat qilib, da’vatin fosh qildi. Rivoyatdurkim, bir kun kufforning iydi erdikim, borcha iydgohlarig‘a chiqarlar erdi, Ibrohim a. s. bir bahona bila shahrda qoldi. Dog‘i boltu olib, kufforning butlarin dog‘i ushotti, boltuni butlarning ulugrog‘ining bo‘ynidin osib, kuffor kelgondin so‘ngra, ul holdin bag‘oyat muztarib bo‘lub, tahqiq qildilar. Ibrohim a. s. shahrda qolg‘onni bilib, ani muxotab qildilarkim, bu ishni sen ыilibsen. Ul aytti: – ulug‘ butkim boltu aning bo‘ynidadur ul qildi. Dedilarkim, aning joni va harakati yo‘qtur, bu ish qilg‘oli nechuk bo‘lg‘ay? Ibrohim a. s. ayttikim, bir nimakim aning muncha qudrati bo‘lmag‘ay nechuk Tengrilikka shoyista bo‘lg‘ay? Bu so‘zdin dag‘i kufforni ilzom qilib, ko‘p kishi aning dinig‘a kirdilar. Chun bu so‘z Namrudg‘a yetishti, bildikim, munajjimlar xabar bergan kishi Ibrohim a. s.dur. Ani mahbus qilib, hukm qildikim, g‘alaba o‘tun yig‘ib, o‘t soldilarkim, Ibrohim a.s.ni ul o‘tqa solib o‘rtagaylar. O‘tning yoqinig‘a kishi bora olmas erdikim, ani o‘tqa solg‘aylar. Oqibat manjaniq bila o‘t ichig‘a ottilar. Naqldurkim, o‘tqa yetmasdin burun Jabrail a. s. kelib so‘rdikim, hojating nedur? Ibrohim a. s. dedikim, sanga hech hojatim yo‘qtur, anga kim hojatim bor. Ul vaqtdur haq taolo maloikaga Ibrohim a. s.ning sidqu tavakkulin ko‘rguzub, har oyinakim o‘tni anga guliston qildi, Namrud gumrohg‘a asar qilmay, Ibrohtm a. s.ni Bobil shahridin ixroj qildurdi. Ibrohim a. s. Sora bilaki amuzodasi va jufti erdi, Misrg‘a bordi. Sibon binni A’lvonki Misr podshohi erdi, Sorag‘a tama’ qilib, Ibrohim a. s.din oldi. Uzr yuzidin aning sori ilik sung‘och, iliki tutmas bo‘ldi. Sorag‘a uzr qulub, Hojar otlig‘ kanizak berdi. Va ul holda Ibrohim a. s. ko‘zidin hijoblar raf’ bo‘lub, Soraning pokligiga muttali’ erdi. Chun Sora Ibrohim a. s. qoshig‘a kirdi, Misrdin Falasting‘a bordi. Anda qahat erdi. Qullarin Xalil Misriy otlig‘ do‘stig‘a yiborib, quvvat tiladi. Ul betavfiq nima bermay, qullarni mahrum qilib qaytardi. Alar qopni qum bila to‘ldurub kelturub, Ibrohim a. s.g‘a kayfnyatni ayttilar. Ibrohim a. s. xijolatdin uyuqlamadi. Haq taolo ul qumni bug‘doy qildi. Hojar andin yorg‘uchoq bila un qilib, o‘tmak pishurdi va Ibrohim a. s.ni uyg‘ottikim, taom yegay. Ibrohim a. s. so‘rdikim, o‘tmakni qaydin olding? Hojar dedikim, qoptog‘i undin pishurdum. Ibrohim a. s. bildikim, tangri taolo ul sun’ani ko‘rguzubdur va ul bug‘doydin ba’zisin ekib, tangri taolo oncha barakat berdikim, Ibrohim a. s.g‘a bag‘oyat ko‘p mol hosil bo‘ldi va mehmondorlig‘ shi’or qildi. Namrud jahldin bir sanduqning to‘rt poyasig‘a to‘rt qochirni bog‘lab, o‘zi sanduqqa kirib, to‘rt yuqori

go‘shasida it bog‘lab, karkaslar it sori mayl qilib havolandilar. Osmon sori o‘q otib, o‘qni haq taolo xunolud aning sanduqig‘a tushurdi. Va ul nodon tangri taoloni o‘qladim deb karkaslarni yuqori yonig‘a bog‘lag‘on itlarni quyi yonig‘a bog‘lab, yerga indi. Va gumrohroq bo‘lub, Tengrilik da’vosin ko‘prak qildi. Va ba’zi Namrudni Kovis debdurlar. Oqibat Ibrohim a. s. duosi bila Namrudning sipohin pasha xayli halok qildi, yellar azob bila ani dag‘i halok qildi. Rivoyatdurkim, ul pasha Namrudning mag‘zig‘a qasd qilsa erdi, aning monglayig‘a aning nima ursalar erdi, taskin topar erdi. Ish bir yerga yettikim, to‘qmoq yasatti. Muttasil aning boshig‘a birov urar erdi va aning havosining yaxshiroq xizmati bu erdikim, ul to‘qmoqni aning boshig‘a bir karak urg‘ay, to bu azob bila jahannamg‘a bordi.

Dushmani xoksor johilkim,
Haqqa da’voyn ishtirok etti.
Ko‘rki, haq g‘ayratin ne nav’ opi,
Sarzanishlar bila halok etti.

Sora Hojarni Ibrohim a. s.g‘a bag‘ishladi va Ibrohim a. s.g‘a sekson yosharg‘onda Tengri taolo Ismoil a. s.ni berdi va Sora rashkdin Hojarg‘a fitnani vojib qildi. Va Ismoil a. s.chun iki yoshadi, Sora betahammul erdi. Ibrohim a. s. Hojar bila Ismoil a. s.ni eltib, bir biyobondakim, haq taolo o‘z kalomida «Vodin g‘ayri zi zar’in»[14] debdurki, Makka yeridur, qo‘ydi. Alarning maqdami barakatidin anda Zamzam suyi paydo bo‘ldi va xaloyiq ul suv jihatidin ko‘p yig‘ildilar. Va Ismoil a. s anda parvarish topti va jurhum ahli anda yig‘ildilar va Ibrohim a. s. Ka’ba uyini anda bino qilg‘usi. Bu qissa bu yerda tursun, biz Lut a. s.ning qissasini sharh qilib, insho alloh yana bu qissa boshig‘a keloli.

Lut a. s. Ibrohim a. s.ning qardoshi Horun o‘g‘li erdi. Tengri taolo anga nubuvvat karomat qilib, Mu’tafikot ahli hidoyat va irshodig‘a yibordi. Va Mu’tafikotni ba’zi besh shahr va ba’zi yeti shahr debdurlar va ba’zi ahli tarix bu shaharlarni Siyston bila Kirmon orasida debdurlarki, holo Lut biyobonig‘a mashhurdir. Va ba’zi Ardi navohiysidakim, Shom mulkida debdurlar. Har taqdir bila Mu’tafikot shahri ahli livota shahvatig‘a mash’uf edilar, butparast ham bor erdilar. Lut a. s. ul mulkka borib, necha vaqt alarni Tengri taolo ibodatig‘a dalolat qildi. Hech kishi qabul qilmadi va ul hazratqa ko‘p izo va malolat alardin yetishti. Va ul shumlarg‘aki g‘urabo alar mulkiga ubur qilurlar erdi va shani’ amr ishtig‘olig‘a qasd qilurlar erdi va Lut a. s. Ibrohim a. s.dek ziyofat amrig‘a mashg‘ul erdi, har kishi anga mehmon bo‘lsa erdi, ul palid qavm bu nav’ ishga qasd qilur erdilar. Lut a. s ojiz bo‘lub, duo qildi. Maloikani haq taolo mard yigitlar suratida Lut a. s.g‘a mehmon yubordikim, Mu’tafikotni buzg‘aylar. Ul qavm Lut a. sning mehmonlari qasdig‘a mayl qildilar. Lut eshikin bog‘lab, alardin ul kecha muhlat tiladikim, tongla alarni topshuray. Yorim kecha maloika o‘zlarin Lut a. s zohir qilib, buyurdilarkim, qo‘pung va bu shahrdin chiqing. Lut a. s tabai bila shahrdin chiqdilar. Jabrail a. s. ul shahrlarni yerdin qo‘ng‘orib, osmong‘a eltib, sarnigun yerga urdi va ul eldin har kishikim, har qayda bor erdi sijjil toshi yog‘ib, borisin halok qildi. Hattoki, Lut a. s: ning jufti ul qavmdin erdi, ul toshdin halok bo‘ldsh Va Lut a. s.ning da’vati muddati yigirma yil va bir nima. Va ba’zi o‘tuz yil debdurlar. Va marqadi Ibrohim a. s yonida bo‘ldi.

M a s n a v i y:

Gar Lut va gar livota ahli-
Kim ketgali keldilar jahong‘a.
Ko‘rguzmadi bu jahoni g‘addor,
Ne yaxshig‘a mehr, ne yomong‘a.

Ismoil a. s. payg‘ambari mursal. erdi. Haq taolo Ibrohim a. s.g‘a yiborg‘andakim, Ibrohim a. s. Soraning xotiri uchun ani Hojar bila Makka biyobonig‘a eltib qo‘yg‘oni mazkur bo‘ldi. Anda Ismoil a.

s. ulg‘oyib, tab’ paydo qildi va doyim ovg‘a mayl qilur erdi. Ibrohim a. s. Shomdin Makkaga kelib, gohi andin xabar tutar erdi. Bir qotla kelganda, Ismoil a. s ovda erdi, aning uyiga borib, ahvolin so‘rdi. Harami Ibrohim a. s.ni ziyofat qilmay, beparvolig‘ bila ani uzotti. Ibrohim a. s. ayttikim, Ismoil kelsa, aytqoysenkim, eshiging poshnasig‘a tag‘yir bergaysen deb. Ismoil a. s. kelganda, zaifasi ayttikim, bu sifat bila birov kelib erdi, sanga bu nav’ so‘z e’lom qildi. Ismoil a. s. bildikim, otasi erkandur. Hamul zamon ul xotunni taloq qildi, yana birovni nikoh qildi. Yana bir yil Ibrohim a. s. Makkaga keldn ham Ismoil a. s. ovda erdi. Ammo bu xotuni Ibrohim a. s.g‘a ko‘p ta’zim qilib, ziyofat istid’osi qildi. Ibrohim a. s. ayttikim: Ismoil kelsa, aytgilkim, eshigingning yaxshi poshnasi bor, tag‘yir bermagaysen. Ismoil a. s. kelgach, mahrami bu so‘zni aytti. Ismoil a. s. bildikim, otasi bu zaifadin rozi borib, siporish qilibdur. Ani aziz va muhtaram tutti. To ulki Ibrohim a. s. Makkaga kelib maqom tutti va yuz yashaganda, haq taolo Soradin Ibrohimg‘a Ishoq a. s.ni karomat qildikim, ul oyatki «Alhamdu lillohillazi va habali alal kibari Ismoila va Ishoqa»[15] andin xabar berur. Va Ibrohim a. s.g‘a Jabrail bashorat berdikim, ming payg‘ambar Ishoq naslidin mutavallid bo‘lg‘ay. Ibrohim a. s. munojot qilib dedikim, xudoyo, chun Ishoqqa bu nav’ ulug‘ mavhibat karomat qilding, Ismoilni ham bir maxsus inoyat bila bahramand qil. Xitob keldikim, oxiruzzamon payg‘ambari sallOllohu alayhi vasallamkim, koinot ofarinishi va mavjudot parvarishig‘a aning sharif zotining xilqati sababdur, Ismoil a. s. naslidin bo‘lg‘usidur. Ibrohim a. s. shodmon bo‘lub, tangri taolo hazratida shukr qoidasin bajo kelturub va Makkada Ka’ba uyin bino qildi.Va ul uy tamomg‘a yetkondin so‘ngra, manquldurkim, shukr qilib, uchasin Ka’ba devorig‘a qo‘yub, tafoxur qildikim, bu uyin tugotdim deb. Xitob keldikim, bir ochnimu to‘yg‘oribsen yo bir yalong‘ochni butkoribsenkim, mubohat qiladursen!

Andin so‘ngra Ibrohim a. s. bilgachkim, bu iki ishning ne miqdor qurbi va fazilati bor ermish, mehmonxona yasab, el ziyofatig‘a mubolag‘a ko‘rguzdi va Tengri taolo amri bila qurbong‘a ma’mur bo‘ldi. Ismoil a. s.nikim, qurratul-ayni erdi, Tengri rizosn uchun Mino tog‘i ustida ayog‘-ilkin bog‘lab, qurbon qilurg‘a pichoq bo‘g‘zig‘a surdi. Va haq taolo aning sidqi barakotidin qurbonin qabul qilib, bihishtdin Ismoil a. s. evazi Jabrail a. s.g‘a amr bo‘ldikim, qo‘chqor kelturub, Ibrohim a. s. ani qurbon qildi. Va Ismoil a. s. Hazarmavt ahlig‘a hidoyat uchun ma’mur bo‘ldi va ul xaloyiqqa ellik yil nasihat qilib, Tengri taolo yo‘lin ko‘rguzdi, qabul qilmadilar magar oz kishi. Va Ibrohim a. s.ning umri ixtilofida yuz to‘qson besh yil debdurlar. Va Shom navohiysida Jabrun qariyyasida Tengri taolo rahmatig‘a bordi va ani Sora yonida dafn qildilar. Laqabi Xalilulloh va Xalilul-rahmondur. Va kunyati Abuz-Ziyfon va Abul-An-biyo va Abul-Muhammaddur. San’ati dehqonliq. Va Ibrohim Abu rohimdur, ya’ni rahmliq ota. Anbiyog‘a millat otasidur.

She’r:

Gar Ibrohimu Ismoil bo‘lsun
Ki, haq amrin qabul etmak keraktur.
Bu foniy dayrda chun qildi manzil,
Turub bir necha kun ketmak keraktur.

Ishoq a. s. payg‘ambari mursaldur. Haq taolo ani Shom ahlig‘a yibordi va ul Shom xaloyiqin Tengri taolog‘a dalolat qildi. Va aning iki o‘g‘li bor erdi. Rufaqodinki amuzodasi erdi. Birining oti I’ys, birining Ya’qub. Va Shomda Ishoq a. s. ko‘zlari nobino bo‘ldi va farzandlaridin I’ys ovg‘a moyil erdi. Ya’qub a. s. qo‘i asramoqqa va Ishoq a. s.ning muhabbati I’ysg‘a ko‘p erdi va rufaqoning Ya’qubqa. Bir kun Ishoq a. s.ning ko‘ngli biryon mayl qildi. I’ysni tilab, ul orzuni anga zohir qildi. I’ys o‘q va yosin olib, tog‘ sori yugurdi. Rufaqo bu holdin voqif bo‘lub, Ya’qub a. s.g‘a bu holdin xabar berdi. Filhol bir semiz o‘g‘log‘ni biryon qilib, Ishoq a. s. qoshig‘a kelturdi. Chun anbiyo uyi saodati anga nasib erdi, Ishoq a. s. aning borasida duo qildi va mustajob bo‘ldi. So‘ngrakim, I’ys ham ul taomni tartib qildi. Ishoq a. s. dedikim, ulcha men senga tiladim, nasib bo‘lg‘ay. Tengri taolo Ya’qubqa

nasib qildi. Anga duo qildikim, salotin syoning naslingdin bo‘lg‘ay. Va ba’zi debdurlarkim, Sobir payg‘ambar sening naslingdin bo‘lg‘ay deb ham duo qildi. Va Ayyub a. s. I’ys avlodidindur va I’ysg‘a bu mazkur bo‘lg‘on jihatdin Ya’qub a. s.g‘a xusumat paydo qildi. Va Ya’qub a. s. andin haroson erdi. Va Ishoq a. s. umri yuz seksonga yetkondin so‘ngra Tengri taolo hukmin butkordi va Ibrohim a. s. yonida dafn qildilar. Ushbu yil Yusuf a. s. Misr azizi bo‘ldi.

N a z m:

Xizrg‘a nasib o‘lsa hayvon ziloli,
Skandarga ichmakka yo‘q ehtimoli.

Ya’qub a. s. payg‘ambari mursaldur va ko‘prak anbiyo aning naslidindur. Va Isroil ani derlar. Ishoq a. s. anga vasiyat qilib erdi, chun Ya’qub a. s.ning I’ysdin dog‘i azim xavfi bor erdi. Ba’zi debdurlarkim, hamul kechakim Ishoq a. s. baqo olamiga yuzlandi, Ya’qub a. s. Kan’ondin maxfiy chiqib, Shom diyorig‘a azimat qildi. Va bu safarda bir kecha tush ko‘rdikim, Tengri taolo anga xitob qilib, ul muqaddas yerda Baytul-muqaddas binosin qilurga bashorat berdi. Va ul yerning obodonligi Ya’qub a. s.ning avlod va zurriyoti hokim bo‘lub, nubuvvat va hukumat qilib, xaloyiqni o‘z himoyatlarida muraffahul-hol asrarg‘a va’da qildi. Ya’qub a. s. uyg‘onib shodmon bo‘lub, Ishoq a. s.ning duosi aning borasida mustajob bo‘lg‘onin bilib, yo‘lg‘a tushti. Va marohil qat’ qilib, Lubnonning maqomi Fidon degai yerga yetib maskan qildi. Va Ya’qub a. s.ning suhbati Lubnong‘a muloyim tushti. Va Ya’qub a. s. aning Layyo otlig‘ qizin qulmoq istid’o-si qildi. Chun hech bu kadxudolig‘ asbobig‘a dastrasn no‘q erdn, yeti yil aning qo‘ychiliq amrin bajo kel-turdi. Nikoh vujudin munga qaror berdilar: Mav’id yetkoch, aqd qilg‘on kecha Rohilnikim ulug‘roq qizi er-di, aqd qilib berdi, Ya’qub a. s.g‘a ma’lum bo‘lgach,. Lubnonga gila izhori qildi. Ul ayttikim, ulug‘ egachi uyda qolib, kichiki xasm uyiga bormoq nomunosibdur. Va agar ko‘nglung tilar Layyog‘a vobasta bo‘lmoq, yana yeti yil xndmat ixtiyor qil, to ani ham sanga musallam tutay. Ya’qub a. s. aning muddaosini qabul qilib, yeti yildin so‘ng, Layyoni ham anga berdi. Va Layyo iki kanizakkim, biri Faliha va biri Zalifag‘a mavsum erdilar, Ya’qub a. s. uyiga yibordi va ul shar’da iki egachi-singilni bir kishiga nikoh qilmoq ravo erdi. Muso a. s. zamonida mamnu’ bo‘ldi. Va aksar tavorix ahli ittifoqlari borkim, Ya’qub a. s.g‘a Layyodin olti o‘g‘ul bo‘ldi: Ro‘bil, Sham’un, Yahudo, Lovi, Zarbun, Yashxar. Va Rohildin Yusuf a. s. va Ibn-Yamin mutavallid bo‘ldilar va Falihadin Don va Nafqol va Zalifadin" Kov va Ashira vujudqa keldikim, «Kalomullo»da isbat lafzikim mazkurdur, iborat bu jamoatdindur. Va Ya’qub a. s.g‘a bu farzandlar muyassar bo‘lg‘ondin so‘ngra, qo‘y va sonir mavoshii vanddin ko‘b jam’iyat hosil bo‘ldi. Va Kan’ong‘akim vatan Ma’luf erdi bordi. "Ba’zi debdurlarkim, bir yil: Kan’onda bo‘lg‘ondin so‘ngra, Ibn Yamin mutavallid bo‘ldi. Va Ya’qub a. s. g‘urbatdin vatang‘a kelgandin so‘ngra, I’ys safar ixtiyor qilib, Rum sori mutavaj-jih bo‘ldi. Va aning Ismoil a. s. qizidinki amuzodasi erdi, besh o‘g‘li bor erdi. Birining oti Rum erdiki, ul mulkni aning oti bila atarlar. Va Rum qaysarlari aning naslidindurlar. Ul kunki I’ys Rumda olamdin o‘tti, Ya’qub a. s. dog‘i Kan’onda olamg‘a vido’ qildi. Va I’ysning so‘ngokin Jirung‘a naql qilib, obosi maqobiri javorida qundilar. Va Ya’qub a. s. I’ysning g‘urbati ayyomida Kan’on ahli hidoyatig‘a ma’mur bo‘lub, necha vaqt risolat amrig‘a mashg‘ul erdi, to dori baqog‘a bordi. Va aning ba’zi holotn Yusuf a. s. qissasida ijmol bila inshoalloh mazkur bo‘lg‘ay. Inshoallohul-aziz.

Sh ye ‘ r:

Ya’qubni ham sipehri purfan,
Berdi necha kun jahonda maskan.
Paymonayi umri chunki to‘ldi,

Davron anga dog‘i uzr qo‘ldi.

Yusuf a. s. qissasi andin mashhurroqdurkim, ehtiyoj aning tafsilina bo‘lg‘ay, nevchunki g‘arobat va shirinligi uchun akobir ham nazm va ham nasr aning sharhi asbobin tuzubdurlar va bayonida sehrlar ko‘rguzubdurlar. Ul jumladin biri Firdavsiy Tusiy va yana biri hazrat maxdumi Mavlono Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy navvarallohu marqadahukim, andoqkim Yusuf a. s.ning husni va jamoli ta’rifdin mustag‘niydur. Alarning dog‘i fazl va kamolig‘a vasf hojat emas. Yana xoja Mas’ud Iroqiy ham nazm qilibdur va balog‘atning dodin beribdur. Yana dog‘i azizlar mushg‘ulluq qilibdurlar. Bovujudi bular bu bebizoatki, ham iborat roqimdindur. Komi xotirg‘a bu orzuni kechururkim, inshoolloh umr omon bersa, turk tili bila-o‘q kofurchun varaq uzra xomani mushkin shamomani surgay. Va bu qissa nazmin ibtido qilib, intihosig‘a yetkurgay.

Haq bu tavfiqni nasib etgay,
Yo nasib ulcha tangridin yetgan.

Bas, bu muxtasarg‘a qissani ijmol rasmi bila ado qilmoq ansabdur.

Yusuf a. s. bani odam jinsining jamilrog‘idur. Bir kun o‘z yuzin ko‘zguda ko‘rub, andoqkn husn istig‘noyu g‘ururg‘a muqtazodur, ko‘ngliga kechtikim, oyo agar men qul bo‘lsam erdi, mening bahomni kim bera olg‘ay erdi. Chun bu xiyol dalolat bemisllikka qilur, ulkim «laysa kamislihi shay’un va huvas-sami’ul-basir»,[16] aning sha’nidadur. Haq taolo g‘ayrat ko‘rguzub, andoq qildikim, og‘olari Yusufni o‘n yeti qalb diramg‘a sottilar. Va muning kayfiyati bu erdikim, Yusuf a. s. tush ko‘rub erdikim, gunashu oy va o‘n bir kavkab anga sajda qildilar. Bu tushni Ya’qub a. s.g‘a ayttikim. «Vaizqola Yusufu liabihi yo abati inni raaytu ahada ashara kavkaban vash-shamsa valqamara raaytuhum li sojidina»[17] andin xabar berur. Ya’qub a. s. ayttikim, bu tushungni qardoshlaringdin yoshurkim, alardin senga osib tegmagaykim, bu tushning ta’biri budurkim, otayu ona va qardoshlaring senga muhtoj bo‘lg‘aylar. Chun taqdiri olihi Yusuf a. s.ning mehnatlarig‘a mutaalliq bo‘lub erdi, qardoshlari ul tushni va otalari ta’birin eshitib, mutag‘ayyir bo‘lub, Yusuf a. s. qasdig‘a bel bog‘ladilar. Va o‘zlarin Yusuf alayhis-salomg‘a mushfiq ko‘rguzub, Ya’qub a. s.din ani gashtka elturbiz deb yozig‘a borib, ani chohg‘a solib, ko‘nglokin qo‘y qonig‘a bulg‘ab, Yusufni bo‘ri yedi deb, qonlig‘ ko‘nglokin Ya’qub a. s. qoshig‘a kelturdilar. Va Ya’qub a. s.ni muhlik motamg‘a va o‘chmas o‘tqa soldilar. Va hamul uchurda ul choh boshinda bir karvon tushub, chohg‘a dalv solib, anda birov bor ekanin bilib, Yusuf a. s.ni chohdin chiqardilar. Va qardoshlari xabar topib, ul karvong‘a borib Yusuf a. s.ni bizing qulumizdur debkim qochib edi deb, ul qofilaning ulug‘i bilakim, oti Molik binni Zi’ar Xazoiy erdi, o‘n yeti yo yigirmi diramg‘a sottilar. Va Molik bu savdodin masrur erdikim, Misrda aning bahosidin sud mutasavvar erdi. Yusuf a. s.da za’f va shikastaliq ul martabada erdikim, Molikning ul so‘zin eshitib, o‘z-o‘zi bila aytur erdikim, bu musulmonkim mening bahomdin o‘zin xurram qilibdur, bu hol bilakim men-men iki oqchag‘a olg‘oylarkin ul olibdur. To ish anga yettikim, Misrda aning vazni bila yeti qotla mushk vazn qilib, Malik Rayonning xozinnkim, Misrning azizi erdi, Yusuf a. s.ni sotqun oldi. Va azizning Zulayxo otlig‘ xotuni bor erdi, Yusuf a. s.g‘a oshiq bo‘ldi. Har necha o‘zin zabt qilur erdikim, ani xadq ma’lum qilmag‘ay. Ammo betoqatlig‘ inon-ixtiyorin ilikdin chiqarur erdi, to ulki Yusuf a. s. g‘a ishqin izhor qilib, qalb visol qildi. Yusuf a. s. ul matlubin imtino’ qilib, Zulayxog‘a Tengri taolodin tasvif qildi va mavoiz va nasoyih izhor qildi. Va bu holatda Yusuf a. s. o‘n yeti yoshida erdi. Chun Zulayxo Yusuf a. s.ni ul ishdin bag‘oyat mujtanib ko‘rdi, vahmdinkim azizg‘a izhor qilg‘ay. Uzi aziz qoshida Yusuf a. s.din shikoyat qildikim, Yusuf manga izhori taalluq qilib, visol orzusi izhorin qildi. Aziz tafahhue qilg‘ondin so‘ngra ma’lum qildikim, Zulayxo o‘z qilg‘onin Yusuf a. s.g‘a tuhmat qilibdur. Bu ish Misr ahli orasida ishtihor topti. Va Misrning ashrofining zuafosi Zulayxog‘a ta’n tili uzottilarkim, falon kan’oni qulg‘a oshiq bo‘lub, o‘zin xalq tiliga solibdur. Zulayxo ul ishda muhiq erkanin sobit qilur uchun toin va tannozlarni ziyofat qilur uchun istid’o qilib, alar huzurida

Yusuf a. s.ni majlisda kiyurgach va ul jamoat olida turunj va turunj kesarga iliklarida bichoqlar erdi. Yusuf a. s.ni koʻrgach, «Mo hozo basharo»[18] deb aning jamoli mayidin andoq loya'qil boʻldilarkim, turunj oʻrnigʻa iliklarin kestilar. Yusuf a. s. chiqgʻoch, oʻz hollaridin voqif boʻlub, Zulayxoni ma'zur tuttilar. Va Zulayxo el mazannasi daf'i uchun azizgʻa iltimos qildikim, Yusufni zindonda mahbus qilib va bu hibsda Tengri taolo Yusuf a. s.gʻa ta'bir ilmin karomat qildi. Zindon ahli tush koʻrub, bir-biriga aytsalar erdi, ta'bir qilur erdi va hech taxalluf qilmogʻondin zindon ahli mutaajjib boʻlur erdilar. Malik Rayon suvchisn birla bakovuli anga zahr berur tavahhumidin yozgurub, zindongʻa yibordi. Alar Yusuf a. s. el tushiga ta'bir qilurin koʻrub, ittifoq bila har biri yolgʻon tush yasab, Yusuf a. s.gʻa arz qildilar. Suvchi tushini mundogʻ dedikim, bir bogʻda uch xoʻsha uzum koʻrdum, ul uzumni siqsam, filhol chogʻir boʻldi va ani malikka tuttum, ichib manga iltifot va tahsin qildi. Bakovul tushini mundoq aydikim, Malik matbaxidin uch xonda non boshim ustida koʻrdum va osmondin qushlar boshimgʻa qoʻnub, ul nonlarni yedilar. Chun Yusuf a. s. ul ikovnung gʻaybdin ogʻizlarigʻa kelgon soʻzlarning birini ne'mat va birini baliyyatqa dol koʻrdi, dedidim: «lo ya'tikumo taomun turzaqonihi illo nabba'tukumo bita'vilihi»[19], ya'ni sizga ulcha koʻrubsiz yetmagay. Magar ulki xabar berurmen sizga. Uch kundin soʻngra suvchini malik Rayon chiqorib, rioyat va tarbiyat qilur. Va bakovulning bu uzridin osor alar ayttilarkim, biz bu tushni koʻrmaydur erdik, balki yasab erduk. Yusuf a. s. ayttikim, tangri taolo taqdiri mening taqririm bila muvofiq tushubdur, boqi siz bilursiz. Va suvchigʻa ayttikim, malik Rayongʻa borib e'tibor topsang, meni sogʻundurgaysen. Chun Yusuf a. s. muxallisi uchun Tengri taologʻa iltijo qilmay, maxluqni vasila qildi. Haq taolo gʻayratdin yana yillar ani zindonda asradi va hamul uch kunda malik Rayon bakovul qatligʻa hukm qildi va soqiyni tarbiyat qildi. Va ul soqiy yeti yilgʻacha Yusuf a. s.ni sogʻinmadi. Bir kecha malik Rayon tush koʻrdikim, yeti semiz oʻyini yeti oruq oʻy yedilar va yeti toza koʻkargan xoʻshani yeti quruq xoʻsha chirmoshib, betarovat qildi. Va bu tush ta'biridin muabbirlar bila kohinlar ojiz boʻldilar. Soqiyning yodigʻa Yusuf a. s. kelib, malik arzigʻa yetkurdi va malik amri bila borib, Yusuf a. s.din bu tush ta'birin soʻrdi. Yusuf a. s. ayttikim, semiz oʻylar, toza xoʻshalar toʻqluq va ziroatligʻ yilgʻa dalildur va orugʻ oʻylar bila quruq xoʻshalar qahatliqqa dol. Yeti yil qutluq boʻlub, yana yeti yil qahatligʻ boʻlgʻusidur. Burungʻi yillarda oshligʻingizni yaxshi asrangkim, soʻnggʻi yillarda yaragʻay. Soqiy bu ta'birni malikka aytti ersa, haqiqati anga ma'lum boʻlub, Yusuf a. s.ni tiladi. Yusuf a. s. bormay z'lom qildikim, turunj bila ilikin keskan zuafodin istifsor qilgʻil. Malik tafahhusqa mashgʻul boʻlub, azizni va Zulayxoni va ul zuafoni tiladi. Va Zulayxo ul jamoat bila Yusuf a. s. ning pokligiga tonugʻluq. berib va aziz infioldin Zulayxoni taloq qildi va Yusuf a. s.ni zindondin chiqorib, malik qoshiga kelturdilar. Malik e'zoz qilib munosib yerda oʻlturtub, dedikim, bu tushum ta'birin manga saning oʻz taqriringdin eshitur xotirim bor. Yusuf a. s. burun aning tushin ayttikim, koʻp nima malik unutub erdikim, yodigʻa kelmadi. Bagʻoyat mutaajjib boʻlub, Yusuf a.s. din ta'birin ham tiladi. Yusuf a. s. ta'birin yuqori oʻtgan dastur bila ayttikim, Malik azizni azl qilib, azizligʻni Yusuf a. s.gʻa berdi. Va mulk va xazoinning amini va sohibi ixtiyori qildi. Yusuf a. s. viloyat ma'mur yillarda oshligʻini yaxshi muhofazat qilib, qahat boʻlgʻon yillarda xaloyiqqa sababi rizq boʻldi. Va qahat shiddati bir yerga yettikim, xaloyiq boru yoʻqin, balki oʻz nafslarin yegulikka sottilar. Rivoyat budurkim, Yusuf a. s. jami' Misr elin sotqun olib, qahatdin chiqqondin soʻngra ozod qildi va Zulayxoni oʻz nikohi aqdiga kiyurdi. Va bu vaqtda Yusuf a. s. oʻtuz iki yoshar erdi va Zulayxo oʻtuz va bikr erdi. Nevchunki, aziz aynayn erdi. Va Yusuf a. s. ga Zuloyxodin iki oʻgʻul boʻldi. Naqldurkim, qahat shiddati sa'b boʻlgʻandakim, atrofdin xalq rizq uchun Yusuf a. s.gʻa yuz qoʻyub erdilar, Kan'on eli ham ul jumladin erdi. Va Ya'qub a. s. Yusuf a. ye. firoqida xalqdin ulfat uzub va farzandlarin unsi munqati' qilib, goʻsha tutub, Baytul-ahzon maqomi boʻlub erdi. Farzandlari aning ruxsati bila Misrgʻa oʻzi uchun mutavajjih boʻlub, Ibni Yaminni Ya'qub a. s. oʻz qoshida asradikim, andin Yusuf a. s. isi topar erdi. Chun oʻn ogʻo-ini Yusuf a. s. xizmatigʻa yetishtilar, bizoatlarin arz qilib, roʻzi tiladilar. Yusuf a. s. alardin nasablarini soʻrub, otalarining holin tafahhus qilib, tirik erkonin bilib, Ibni Yamin holin ma'lum qilib, ehtirom etib, oshligʻ berib, bizoatlarin dogʻi oshligʻ ichiga yoshurun solib uzotti va ayttikim, yana kelsangiz, qolgʻoi ishingizni

olib kelingkim, bu qotlog‘idin ko‘prak rioyat qilay. Alar Kai’ong‘a kelg‘ondin so‘ng, kayfiyatni Ya’qub a. s. qoshida arz qilib, yana qotla Ibni Yaminni, agarchi Ya’qub a. s. rozi ermas erdi, o‘zlari bila olib Misrg‘a Yusuf a. s. mulozimatig‘a borg‘aylar va Ya’qub a. s. xizmatida o‘tkan holotni taqrir qildilar. Va iltimos etdilarki, Ibni Yaminni bir qotla alar bila aziz qoshig‘a yiborg‘ay. Anga agarchi ul yea’b ko‘rundi, ammo zaruratdin Ibni Yaminni yibordi va bir ruq’a bitdi. Ibrohim a. s.ning dastorinki, irs rasmi bila Ya’qub a. s.g‘a qolib erdi, Ibni Yamindin hadiyya dasturi bila aziz xizmatig‘a irsol qildi. Va alarg‘a vasiyat qildikim, Misrg‘a bir darvozadin kirmang. «Lo tadxulu min bobin vohidin vadxulu min abvobin mutafarriqa»[20].

Alar Ya’qub a. s. buyurg‘on dastur bila amal qilib, aziz eshikiga hozir bo‘ldilar. Azizg‘a xabar bo‘lg‘och, alarni tilab ta’zim bila o‘lturtub, Ibni Yamin ruq’a bila dastorni Yusuf a. s.g‘a taslim qildi. Yusuf a. s.g‘a mufrit nishot yuzlanib buyurdikim, alar ilayig‘a xon torttilar va har ikov ilayida bir tabaq qo‘ydurdi. Va Ibni Yamin yolg‘uz qoldi. Alardin ani o‘z qoshig‘a tilab hamtabaq qildi. Chun Yusuf a. s. burqa’ bila erdi, alar tonimas erdilar. Yusuf a. s. ning toqati qolmadi, qorindoshig‘a o‘zin nozukluk bila izhor qilib, mutag‘ayyir bo‘lmay, dag‘i ul jamoatqa keturgan ulog‘larig‘a ko‘ra oshlig‘ berib va oltun kaylkim, javohir bila tarsi’ qilib erdilar, Ibni Yamin yukida yoshurtti. Alar Kan’onga mutavajjih bo‘lg‘ondin so‘ng, kishi yiborib, yuklarin axtartib so’ni Ibni Yamin yukida toptilar va Ibni Yamiini olib aziz qoshiga keltirdilar. Va qardoshlari ham aning bila qoytib keldilar. Bu yerda ixtilof ko‘ptur. Har taqdir bila Yusuf a. s. Ibni Yaminni olib qolib, qardoshlari yana Kan’ong‘a borib, Ya’qub a. s.g‘a Ibni Yaminning o‘g‘urluq qilib, aziz ani asragonin ayttilar. Ya’qub a. s. ning mehnati o‘tti va furqati shu’lasi birga ming bo‘lub, bir yo‘li oyog‘din tushti. Oqibat azizg‘a bir ruq’a bitib, Yahudo o‘g‘li Forizdin yibordi va o‘z holinikim, Yusuf otlig‘ o‘g‘li firoqidin ne suubatqa qolib erdi va Ibni Yamin furqatidin ne shiddatqa musaxxar bo‘ldi deb arz qildi. Yusuf a. s. aning javobida ul nav’ nasihatomiz ruq’a yibordikim, Ya’qub a. s.g‘a yetkach, o‘qutub ayttikim, bu maktubdin anbiyo kalomi va rusul payg‘omi holoti ko‘ngulga yetishadur.

Yana o‘g‘lonlarig‘a Misrg‘a borurni taklif qilib, alar bizoati muzjot bila keldilar. Va bu qotla Yusuf a. s. o‘zin alarg‘a zohir qilib, ko‘p altof ko‘rguzdi. Alarni o‘z qilg‘onlarining xijolati va Yusuf a.s.ning lutfu karami lol qilib, Ya’qub a. s.ning ko‘zi ko‘rmasin arz qildilar. Yusuf a. s. o‘z ko‘nglokin Yahudodin Ya’qub a. s.g‘a yibordi. Yahudo Misrdin chiqqoch, Ya’qub a. s. ul ko‘nglok isin Kan’onda topib, huzzorg‘a zohir qildi. Alarning dimog‘i xiffatig‘a haml qilib, to Yahudo eshitib, Yusuf a.s.ning hayoti xabarin va salomatlig‘in Ya’qub a. s.g‘a yetkurub, ko‘nglokni aning yuziga soldi, hamul zamon basir bo‘lg‘on ko‘zi bino bo‘lub, shukrlar qildi. Va Yahudo borcha hol kayfiyatin anga arz qilib, Misrg‘a borur so‘zida erdikim, Yusuf ‘. s.ning rasullarin azim yarog‘lar bila yetib va zurriyotin Misrg‘a eltib, Yusuf a. s.g‘a xabar yetkoch, istiqbol qilib va Malik Rayon dog‘i ul davlatni g‘animat bila muvofiqat qildi.

Yusuf a. s.g‘a yaqinloshqoch, Ya’qub a. s. mahmildin chiqib, Yusuf a. s. aning ayog‘iga tushub ko‘rushtilar. Va Misrg‘a kelib, Yusuf a. s. otasi, onasini taxt ustida o‘lturtub, o‘zi alar yonida o‘lturub, qardoshlarig‘a ulcha qoidai ikrom edi, bajo kelturdi. Va alar borcha anga sajdai tahiyyat qildilar. Va Yusuf a. s. Ya’qub a. s.g‘a ayttikim, «yo abati hozo ta’vilu ru’koya min qablu»[21]. Bir rivoyat bila o‘n yeti yildin so‘ngra, bir rivoyat bila yigirmi to‘rt yildin so‘ngra Ya’qub a. s. Tengri taolo rahmatig‘a bordi va Yusuf a. s.ni vasiy qilib erdi va aning vasiyati bila Quddusda Ibrohim va Ishoq a. s. javorida qo‘ydilar. Va oz fursatdin so‘ngra malik Rayon ham olamdin chiqdi. Va aning bea’mamidin Qobus otlig‘ kofir maqhur Misr taxtida saltanatqa o‘lturdi. Yusuf a. s. bir necha yil ani islomg‘a dalolat qildi, bir tutmas erdi. Ammo Yusuf a, s.ni ta’zim qilur erdi. Yusuf a. s. aning da’vatidin ma’yus bo‘lub, balki o‘z avqotidin ham havl, haq taolodin munojotda obou ajdodi suhbatin tiladi. Va ul duo mustajob bo‘ldi, bani Isroilg‘a islom rusuxig‘a vasiyyat qilib, Fir’avn bila Muso a. s.din xabar berib, ul qavmning valiysi Yahudoni qilib, o‘zining madfanini Nil rudida Misrdin bir yig‘och yiroq muqarrar qildi va dorulfanodin gulshani baqog‘a xirom qildi. Bani Isroil Ya’qub a. s. zurriyotidur va isbot o‘n bir o‘g‘li.

Sh ye ‘ r:

Bordi Yusuf, qolmasdi Qobus ham bo‘lmay adam,
Ichtilar jomi fano siddiq ham, zindiq ham.

Xizr a. s. ni mursal debdurlar. Va ul Arfaxshad binni Somning o‘g‘lonlaridindur va Zulqarnayn zamonida aning mulozimi erdi. Zulqarnayi hayvon suyi xiyoli bila zulumotqa kirgonda Xizr a. s. ani boshlab kirdi. Va derlarkim, Ilyos a. s. dog‘i bila erdi. Umidkim, quyiroq zikr bo‘lg‘ay.

Ul suvni Tengri taolo bu ikovga nasib qildi va Zulqarnayn mahrum yondin.

Va ba’zi debdurlarkim, haq taolo Xizr a. s.g‘a ilmi ladunni nasib qildi va hayvon suyi iborat ondindur. Ahli islom mu’taqidi uldurkim, Xizr a. s. umri jovid topibdur. Va Xoja Muhammad Porso q. s. ba’zi nusxada mundoq bitilibdurkim, Xizr a. s. Sabzavorning Kavk otlig‘ kentidindur va holo Hazrat Risolat sallallohu alayhi vasallam dinidadur va imom Shofe’i rahmatullohi mazhabidadur, vallohu taolo a’lam.

She’r:

Xizr umrin tilarlar ahli xirad,
Yer vaslidurur, hayoti abad.

Ayyub Sabur a. s. onasi Lut a. s. qizidur. Otasini I’ys binni Ishoq a. s. avlodidindurur debdurlar: Vale ba’zi muxolafat qilibdurlar. Mavludi Rumdur, ammo Shomda muqim erdi. Har nav’ mol va manoli ko‘p erdi va o‘n o‘g‘li bor erdn. G‘animat juftidin hech nima yo‘q erdikim, haq taolo ibodati va tasbihi va tahliliga ul nav’ mashg‘ul va mash’uf erdikim, hech nimaga iltifot qilmas erdi. Ul martabadakim, haq taolo maloikag‘a aning holotini jilva berdikim, maning ibodatimdin o‘zga hech nimaga parvo qilmas. Maloika ayttilarkim, xudoyo, hech nav’ jam’iyatdin yo‘qturkim, anga nasib qilmaysen. Nevchun saning ibodatingdin o‘zga ish qilg‘ay.

Tengri taolo maloikag‘a xitob qildikim, bu zohir jamiyatlari parishonlig‘ asbobidur. Vale sizing mazannangiz bu bo‘lsakim, bu jihatlardinkim, aning ko‘ngli jam’ uchun ibodatqa mash’ufdur, andoq qiloyki, sizlar bilgaysizkim, bo‘lar-bo‘lmasa ham aning ishi toatdur. Bu mukolimadin so‘ngra Tengri taolo Ayyub a. s. sori balolar mutavajjih qildi. Avval mavoshiysig‘a andoq ofat tushtikim, biri qolmadi. Anga ayttilar ersa, iltifot qilmadi. Mazruotig‘a andoq balo yuzlandikim, yo‘q hisobi tutti. Munga ham multafit bo‘lmadi. Har jihotiki, anga ne itloq qilsa bo‘lur, beniyozliq yeriga bordi, parvo qilmadi, hamul haq taolo ibodatig‘a mashg‘ul erdi. Uy yiqilib o‘n o‘g‘li tom ostida qoldilar va halok bo‘ldilar. Ul dedikim, manga Tengri taolo basdur, alar bo‘lmasa. bo‘lmasun! Bulardin so‘ngra hech nimasi, balki hech kishisi qolmadi, muborak jismiga bemorlig‘lar va balolar yuzlandn. Dog‘i jarohatlar bo‘lub, qurtlar tushti, dog‘i ul jarohatlar islanib, ul navohiy xalqi andin mutanaffir bo‘lub, arolaridin ani ixroj qilib, bir nomunosib yerga soldilar va tegrasida hech kishi qolmadi. Haramidinkim, otini Rahima binti Ya’qub a. s. debdurlar va binti Ibrohim binni Yusuf a. s. ham debdurlar. Va Rahima yo muzdurluq, yo gadoyliq qilib, Ayyub a. s.g‘a qut kelturur erdi. Va Ayyub. a. s. ul baliyyatqa sabr qilib, Tengri taolo toatidin xotirig‘a o‘zga nima kechmay, derlarki, sharif badanidin bir qurt agar tushsa erdi, yana olib o‘rnig‘a qo‘yar erdikim, sizga haq bu nasib qilg‘on ro‘zidin mahrum bo‘lmang. Va shaytoni la’in Rahimag‘a har nav’ ig‘volar qilur erdikim, muhofazati Ayyub a. s.g‘a yetmagay. Tengri taolo ani shayton mutobaatidin asrar erdi. To ulkim, bir kun bir zaifa surati birla Rahimag‘a uchradi. Va Rahima ul kun hech nima topmaydur erdikim, Ayyub a. s.g‘a kelturgay. Shayton anga ayttikim, mening sochim bag‘oyat qisqadur. Agar gisularingni kesib, manga bersangkim sochimg‘a ulasam, muncha bahosin berurman. Rahima dedikim, Ayyub a. s. qoshig‘a bu kun qut topmaydur, manga gisu bo‘lmasa

bo‘lmasun. O‘z gisularin kesib, anga berib, olg‘on vajhqa qut olib, Ayyub a. s. qoshig‘a yetmasdin burun ul la’in Ayyub a. s. qoshig‘a Rahimaning sochin kelturub, nomunosib so‘zlar dedi. Rahima qut keturgach, Ayyub a. s. aning sochin ko‘rmadi. Mashhurdurkim, ahd qildikim Rahimani yuz yig‘och urg‘ay. Chun haq subhona va taolo Ayyubning baliyyatini nihoyatqa yetkurdi. Va ul hamul sabr va shukr qilur erdi. Malakut olamig‘a sho‘r tushti va g‘avg‘o. Va maloika aning fazl va saburluqin e’tirof qilib, o‘z so‘zlaridin nodim bo‘ldilar. Tengri taolo inoyat qilib anga sihat yiborib, Jabrail a. s. keldi va ilikin tutub qo‘pordi. Va tamom qurtlar tanidin tushti. Va iki jonibidin iki bulog‘ paydo bo‘ldi va Jabrail a. s.ning muborak jismini ul suvlarg‘a g‘usl berib, borcha jarohatlari butti. Va Rahimaning pokligiga tanug‘lug‘ berib, mashhurdirkim, yuz supurgu yig‘ochni bir-biriga bog‘lab, Rahima uchasig‘a urub, uhd-uhdasidii chiqti. Va Ayyub a. s.g‘a Tengri taolo zoye’ bo‘lg‘on amvolidin ortug‘roq yana karomat qildi. Ba’zi debdurlarkim, avlodin ham turguzdi, ba’zi barondurkim, yana avlod berdi va aning eviga ba’zi debdurlarkim, oltun chugurtka yog‘di. Va ba’zi aning manzilin Shomdadur va ba’zi Xuroson viloyatida Roz Mashhadda debdurlar. Va muddati nubuvvatida uch kishi anga iymon kelturdilar va baliyyatida murtad bo‘ldilar, sihotdin so‘ngra Rumg‘a bordi. Ho‘milki, ulug‘roq o‘g‘li erdi, vasiy qilib, olamdin o‘tti. Umri bobida ixtilof ko‘p uchun bitilmadi.

Sh ye ‘ r:

Besabr ulus garchi jahondin ketti,
Ayyub sabur dog‘i ketmay netti.

Shu’ayb a. s. Ani xatibul-anbiyo debdurlar. Ibrohim yo Solih a. s. avlodidin ekanda ixtilof bor. Va onasi Lut a. s. qizi erdi, oti Miko. Va haq taolo ani ashobi Madyan va ashobi Ayka hidoyatig‘a mab’us qildi va ba’zi Madyan va Ayka ashobidin bir qavm debdurlar. Va alar kayl va vazn ishida qalblig‘ qilur erdilar. Va tanga va pul soyir maskukotin nima qotib be ayor yasar erdilar. Va o‘g‘riliq va qaroqchiliq qilur erdilar. Va Shu’ayb a. s. mulozimatig‘a kelur elning yo‘lin tutub, man’ va izo etarlar erdi. Va millatlari butparastliq erdi. Shu’ayb a. s. alarni tuz yo‘lga dalolat qilib, Tengri taolo azobidin qo‘rqutur erdi. Alar muqobalasida istihzo va safohat qplur erdilar. Chun bu muddat tatvil topti, ul qavm jaholatlaridin Shu’ayb a. s. taxvifin yolg‘on xiyol qilib, tamasxur yuzidin azob va’dasig‘a taqozo ko‘rguzdilar. Shu’ayb a. s. munojot qilib, «Rabbana fatx baynano va bayna qavmino bilhaqqi va antaxayr-ul-fotihin»[22] takallumi bila tazarru’ qildi. Tengri taolo yeti kun havoning haroratin ul martabada qildikim, ul qavm betoqat bo‘lub, ayol va atfollari bila shahrlaridin chiqib, besha va daraxtistong‘a yuzlandilar. Va Ibni Abbos raziyallohu anhudin manquldurkim qazoi ilohi do‘zax o‘tidin shu’la yiborib, borchasin o‘rtadi. Va tarix ahli ani ham samum yeliga isnod qilibdurlar. Har taqdir bila Shu’ayb a. s. Ibrohim a. s. shariatig‘a da’vat qilur erdi va da’vati muddatida ming yetmish kishi da’vatig‘a kirdilar va ul qavm halokidin so‘ngra, haq taolo amri bila hamul yerda sokin bo‘ldi, to Muso a. s. anga qo‘shuldi. Va Muso a. s. ayrilg‘ondin so‘ngra, yeti yil va to‘rt oy hayotda erdi. Umri ikki yuz yigirmaga yetkondin so‘ngra oxirat olamig‘a yuzlandi va Makkada ruknu va maqom orasida madfundur. Va ashobi ras zikrikim o‘tti, ba’zi Shu’ayb a.s. zamonida debdurlar. Va Shu’ayb a. s.ni suryonny tili bila Shirub debdurlar. Va mu’jizotidin biri ulkim, kuffor toshni mis qilmoq tiladilar, aning duosi bila borcha toshlar mis bo‘ldi. Chun aqida qilmadilar, yana avval holiga bordi.

Sh ye ‘ r:

Shu’ayb ayladi chun jahondin xirom,
Zuhur etti Muso alayhis-salom.

Muso va Horun a. s. Muso a. s. ulul-azmdur va laqabi Kalimullohdur. Va Ya’qub a. s.

avlodidindur. Va bu qissaning ibtidosi budurkim, Yusuf a. s. ki, Rayon binni Validdin so‘ngra Qobus zamonida rihlat qildi. Qobus bani Isroilni zabun qilib, azim anif takliflar qilur erdi. Va borchasin o‘z ubudiyyatig‘a mansub qilib, qibtilarg‘akim o‘z qavmi erdi, ojiz va zeridast qilib erdi.

Chun ul Fir’avn jahannamg‘a bordi, qardoshi Valid binni Mus’abki mashhurdirkim, Fir’avn uldur. Misr saltanatida o‘lturdi va ko‘p yil xalqni butparastliqqa taklif qildi. Chun saltanati zamoni imtidod topti, mabhut dimog‘ig‘a fosid xiyol bo‘lub, «Ana rabbukum-ul a’lo»[23] da’vosi bila elni o‘z ibodatig‘a taklif qildi, chun saltanati zamoni imtidod topti va uluhiyyat muddaosi bila jabbor sifatlig‘ bunyod qildi. Va bani Isroilg‘a jafo va sitamni haddin o‘tkordi. Va andoqki, sharhi ko‘prak tavorixda masturdur va xalq orasida mashhur. Va qibtilarg‘a rioyat qildi.

Va ul mal’un bir kecha tush ko‘rdikim, Shom soridin bir o‘t paydo bo‘lub, misriylarning bog‘ va saroylarin kuydurdi. Va kent va shaharlaridin asar qo‘ymadi. Vahm bila uyg‘onib, kohinlarni tilab, bu tushning ta’birin tiladi. Alar dedilarkim, ul soridin birov mutavallid bo‘lg‘aykim, saning davlating va millating zavoliga say’ qilg‘ay va bani Isroildin bo‘lg‘ay. Va qibtilar zavoli ondin bo‘lg‘ay. Fir’avn zuafo tayin qildikim, bani Isroildin har o‘g‘ul mutavallid bo‘lsa, o‘lturgaylar. Besh yildin so‘ngra bani Isroilg‘a toun zahmati voqe bo‘lub, ko‘p xalq zone’ bo‘ldi. Qibtilar Firavng‘a ayttilarkim, bu toifaning atfolin sen o‘lturasen, ulug‘larin toun. Oz vaqtda tugonurlar. Bizing xizmat va paykorimizni kim qilur?

Fir’avn nodonlig‘idin buyurdikim, atfolni bir yil o‘ltursunlar, bir yil qo‘ysunlar.

Baxshish yili Horun a. s. mutavallid bo‘ldi va g‘ayri baxshish yil Muso a. s. mutavallid bo‘ldi. Tafsili budurkim, kohinlar dedilar, Fir’avngakim, ul mavlud falon kecha Iskandariyada ota pushtidin rahmg‘a borur. Fir’avn Iskandariyag‘a borib, ul kecha jami’ bani Isroilni zuafodin ayirdi va o‘zi esa Osiya birlakim harami erdi, xilvat ixtiyor qildi. Va Imron Muso a. s.ning otasikim, muqarrib kishisi erdi, bog‘ eshikida qo‘ydi. Zuafo sayrda erdilarki, bog‘ eshikiga yettilar, Imron xotunin ko‘rub mayl qildi.

Alqissa, Muso a. s.ni onasi homila bo‘ldi va Muso a. s. ning bir mu’jizi bukim, onasining homila erkani o‘zga zuafodek ma’lum bo‘lmas erdi. Va muakkalalarg‘a vuquf hosil ermas erdi. Chun Muso a. s. mutavallid bo‘ldi, onasi ani bir tobutqa momuqlar orasida ta’biya qilib, darzlarin qir bila tutub, Nil rudig‘a solib, Tengri taolog‘a topshurdi. Va Fir’avnning bir qizi bor erdikim, anga baras illati bor erdi. Va ilojidin atibbo navmid bo‘lub erdilar. Kohinlar ushbu tarixda deb erdilar, bir zulhayot daryodin chiqqoykim, aning og‘zi luobidin ul maraz daf’ bo‘lg‘ay. Qiz onasi bila hamul va’da kuni Nil qirog‘inda o‘lturub erdilarkim, ul tobut yetib, bir daraxtqa band bo‘ldi. Kanizaklar ul sanduqni kelturdilar, Osiya ochti, tifli ko‘rdikim, bormog‘in emadur erdi. Yana Muso a. s.ning mo‘‘jizi bukim, og‘zi suyi bila ul baras filhol daf’ bo‘ldi va Osiya anga Muso ot qo‘ydiki, ibriy tili bila ma’nisi sarv daraxtidur. Ona va qiz Muso a. s.ni Fir’avn qoshig‘a kelturdilar. Va Fir’avnning ko‘zi aning yuziga tushkoch, Tengri taolo Muso a. s. muhabbatini aning ko‘ngliga solib, xalqi ayttilarkim, bu hamul tifldurkim tilar erding, qatlida ta’xir qilma. Ammo Osiya ayttikim, «Qudratu aynen li valaka lo taqtuluhu asoyan yanfaano avnattihizahu valado»[24].

Fir’avn aning qatlin Osiyag‘a bag‘ishlab, Osiya aning muhofazati uchun sutluk zuafo kelturdi. Hech qoysining sutin ichmay, ittifoqo onasini ham kelturub erdilar, onasining sutin icha kirishti va onasi suti bila parvarish topti. Bir yoshog‘ondin so‘ngra Osiya Fir’avn qoshig‘a kelturdi. Fir’avn qo‘ynig‘a olg‘och, ilik urub, aning saqolin tutub, tortib necha qilin uzub, Fir’avn g‘azab qildi, dog‘i Muso a. s.ning qatlig‘a hukm qildi. Osiya mone’ bo‘ldikim, atfolni bu nav’ harakotqa muxotab qilsa bo‘lmaskim, alarg‘a shuur va g‘araz bo‘lmas. Imtihon uchun buyurdikim, bir tabaqda o‘t va bir tabaqda yoquti ahmar kelturdilar. Muso a. s. ilayiga qo‘ydilar. Muso a. s. ilik yoqut tabaqig‘a uzotti. Ammo Jabrail a. s. ilikin o‘t tabaqi sori moyil qildi. Va Muso a. s. bir cho‘g‘ni olib, og‘zig‘a soldi, tili kuydi. Derlarki, muborak tilida laknat voqe’ bo‘ldikim, sin harfin yaxshi aytaolmas erdi. Andoqki, munojotida «Vahlul uqdatan min lisoni»[25] andin xabar berur. Fir’avn bu ishni ko‘rgach, munbasit bo‘lub, Muso a. s.ni Osiya aning qoshidin eltib, tarbiyat qilur erdi, to o‘n yoshig‘a yetti. Va ani salotin avlodi va dasturi bila g‘oyat zeb va tajammulda asrar erdi. O‘tuz yoshig‘a yetkach, qibtilarning

ashrofidin birining qizin aning nikohiga kiyurdi. Va ul to‘yda muluk dasturi bila oyinlar bog‘latti. Va Muso a. s.g‘a iki farzand bo‘ldi. Va ul munosibat asli bila bani Isroilg‘a qibtilar zulm qilg‘anda rahm qilur erdi. Bir kun sayrda ko‘rdikim, bir bani isroiliyg‘a Qonun otlig‘ qibti zulm qilg‘onda shiddat bila izo qiladur. Ul nasihat yuzidin man’ qildi. Va ul mumtone’ bo‘lmadi va izoni ortturdi. Va chun ul beqondalig‘i haddin o‘tti, Muso a. s.ning g‘azabi o‘ti mushtail bo‘lub, ul qibtini urg‘och, yiqilib o‘ldi. Fir’avn eshitkoch, Muso a. s. qatlini ko‘ngliga jazm qilib, aning izhorig‘a hukm qildi. Hamul najjorkim, aning onasi ani suvg‘a solurda sanduq yo‘nub erdi, kufrdin yonib, din qabul qilib erdi, Muso a. s.g‘a ul holdin xabar berdi. Muso a. s.g‘a chun hanuz nubuvvat rutbasi yetmaydur erdi, vahmdin yayog‘ Misrdin qochib, yeti kecha-kunduz ko‘p riyozat bila yo‘l qat’ qilib, bir choh boshig‘a yetishtikim, Madoyin navohiysida erdi.

Va anda bir daraxt soyasida sokin bo‘ldi. Bir lahzadin so‘ngra el gala qarosin ul choh boshig‘a suvorg‘ali kelturub, choh ustida yopqon toshni olib, qolin qo‘y va mavoshiyg‘a suv berdilar. Dog‘i chohg‘a toshni yopib, galalarin surub kettilar. Iki zaifa bir necha qo‘yni qiroqga asrab erdilar, el ketkondin so‘ngra, qo‘ylarin suvorub, el mavoshiysidin qolg‘on suvni o‘z qo‘ylarig‘a berdilar. Muso a. s. ul ishtin mutaajjib bo‘lub, ul zuaffoning kayfiyati holin so‘rub, alar dedilarkim, biz Shu’ayb payg‘ambar qizlaribiz. Kuffor qo‘ylarin suvorg‘ondin so‘ngra, ul galadin qolg‘on tufayli suvdurkim, biz ham suvlab borurbiz. Muso a. s. alarning qo‘ylarig‘a suv tortib serob qilib yibordi.

Alar xushnud kelib Shu’aybqa ul holdin xabar berdilar. Shu’ayb a. s. Muso a. s.ni uyiga indab, hasab va nasabni ma’lum qilib, Safura otlig‘ qizin anga atadi. Shu shart bilakim, sekiz yil Muso a. s. Shu’ayb a. s.ning kutgan mi’od o‘tkach, Muso a. s.ni uylandurub, biror nima molidin berib, o‘n yildin so‘ngra odam Safiyulloh bihishtdin chiqarg‘on asoni anga berib, ani Misrg‘a uzotti. Va aso bobida so‘z ko‘ptur. Mabsut kutubdin bilsa bo‘lur.

Chun Muso a. s. besh kun yurudi, Turi Sino tog‘iga yetishti. Oltinchi kechakim havo sovug‘ bo‘lub, bulut olamni tiyra qildi. Safurag‘a tug‘urur dardi paydo bo‘lub, o‘tqa ehtiyoj bo‘ldi va ul tog‘ sori mutavajjih bo‘ldikim, o‘t keturgay. Ko‘p yurgondin so‘ngra bir yoruglug‘ ko‘rundi, yetkoch, ul yorug‘lug‘ bir daraxtda erdi, Muso a. s. yetkoch, daraxtqa chiqti. Va ul yorug‘lug‘ qoshida quyosh nuri tiyra ko‘rundi, ammo yig‘ochni kuydurmay yafrog‘ va shoxlarin tozaroq qilib erdi. Muso a. s.g‘a hayrat g‘olib bo‘lub dedi: Yo rab, bu na hol erkin? «Inni analloh»[26] nidosi kelib, Muso a. s.ning davlatmand boshig‘a risolat toji qo‘yuldi va saodatmand egniga nubuvvat xil’ati kiyduruldi va yadi bayzo va aso mo‘‘jizasi karomat bo‘ldi. Va orada o‘tkon mukolama «Toho» surasida ma’lum. Va Muso a. s. o‘z ubudiyyati ajzin zohir qilib, Horun a. s.g‘a ham nubuvvat davlati nasib bo‘lub, Fir’avn hidoyatig‘a va bani Isroil istixlosig‘a ma’mur bo‘ldi. Muso a. s. vodiyi muqaddasdin masrur yonib, manzilga kelib, tonglasi Misr azimati qilib, yotkon kecha onasi uyiga borib, onasi va xalqini o‘z dinig‘a kiyurub, Horun a. s.g‘a nubuvvat bashorati berib, tonglasi Fir’avi qasriga yuzlandi. Va anga nubuvvat farridin elga mahobat dast berib, Fir’avn bila muloqot qilib, ani Tengri taolo ubudiyyatig‘a dalolat qildi. Va o‘z nubuvvatin izhor qilib, o‘z dinig‘a yo‘l ko‘rguzdi. Fir’avn mo‘‘jiza tiladi ersa, Muso a. s. asoni ilkidan solg‘och, ajdahoe bo‘ldikim, haybatidin necha kishi halok bo‘ldi. Fir’avn vahmdin behush bo‘lub, o‘z holig‘a keldi. So‘ngra, iltimos qilib, Muso a. s. asoni olg‘och, hamul aso bo‘ldi. Va asoni olurda yadi bayzo ko‘rguzdi. Fir’avn dedi: «Sen sohirsen, mening ham sohirlarim bor. Agar alarg‘a g‘olib kelsang, sen degondek qilay, yo‘q ersa, seni halok etay». Sohirlarin yig‘ib, holni alarg‘a aytti. Alar qabul qildilarkim, necha kundin so‘ngra biz sehrlar qilolikim, Muso a. s. ning sehrin botil qilg‘ay.

Mi’dod kuni alar ip va yig‘ochlar bila yilonlar yasab erdilar, ul dashtqa qo‘yg‘och, mutaharrik bo‘lub, Muso a. s. asoni tashlag‘och, ajdaho bo‘lub, ul sehrlarni yutti. Va Muso a. s. tutqonda hamul aso bo‘lub, ul: sahara bu holni ko‘rgoch, Muso a. s.g‘a iymon keturdilar va bani Isroil masrur bo‘ldilar.

Osiya dag‘i Fir’avn musohabati kuduratda batang bo‘ldi, haq taolog‘a munojat qildikim, «Rabbibni li indaka baytan fil jannati va najjini min Fir’avna va amalihi va najjini minal qavmizzolimin»[27]. Haq taolo duosin mustajob qildi va Fir’avn bani Isroilning sururin ko‘rub, soyir qibtilarg‘a buyurdikim,

alarg‘a burung‘idin ko‘prak izo qilg‘aylar. Alar Muso a. s. hazratida tazarru’ va tazallum qildilar ersa, Muso a. s. qibtilar bobida duo qildi va baliyyat alar sori yuzlandi. Ul el uch yil qahat balosig‘a giriftor bo‘ldilar. Ikkinchi, to‘fon balosi erdikim, ba’zi yog‘in debdurlar, ba’zi toun, o‘zga nimalar ham debdurlar. Bu balo yeti kungacha bo‘ldi va aksar ashroflari o‘ldi. Va uchunchi, chugurtka balosi erdikim, borcha mazruot va jihotlarin nobud qildi. Bu ham yeti kun erdi. To‘rtinchi, qaml balosi erdikim, a’zolarig‘a, balki quloq va ko‘zlarig‘a tushub, ko‘pini ma’dum qildi. Anda ixtilof ko‘ptur. Beshinchi, zafo’ balosi erdi. Chun bular bila ul badbaxtlar tanbih bo‘lmadilar. Oltinchi balo ul erdikim, haq taolo alarg‘a Nil suyin qon qildi. Bani Isroilg‘a suv erdi, qibtig‘a qon. Bu ham yeti kunga tortti. Yetinchi balo ul edikim, azim yellar va tiyra havolar va ra’du barq alarni halok etti. Va sekizinchi balo ul erdikim, yozi vuhush va sibo’ini haq taolo alarg‘a musallat qildikim, azob qildilar. Har balo bo‘lg‘onda shart qilur erdilarkim, daf’ bo‘lg‘onda, imon keltiroli. Muso a. s. duo bila daf’ qilg‘och, kufrda muzirroq bo‘lub, bani Isroilg‘a zulm ko‘prak qilur erdilar. Chun Muso a. s. Fir’avn bila qavmidin noumid bo‘ldi, o‘z qavmi bani Isroilg‘a haq taolo amri bila buyurdikim, Misrdin chiqib, Nil qirog‘inda tushsunlar. Ul qavm buyurg‘ondek qildilar. O‘tkon baliyot asnosida Fir’avn sarhi mumarradni Homong‘a buyurdikim, osmong‘a chiqib, Muso a. s.ning tengrisi bila urushay, deb ko‘p muddat ustodlarni jam’ qilib, ul sarhni yasadikim, «Yo Homonubni li sarhan»[28] anga doldur. Va aning irtifo’in ba’zi to‘rt yig‘och va ba’zi mundin ortuq debdurlar. Fir’avn chun ul qasrg‘a chiqti, osmon anga yerdin ko‘rungondek ko‘rundi. Munfail tushkondin so‘ng, haq taolo amri bila ul qasr nobud bo‘ldi. Chun Muso a. s. qavmin Nil qirog‘inda ta’biya qildi, Muso a. s. ning tobutin aning vasiyati mujibi bila olib chiqtilar. Va ul maqbara Nil rudi ichinda qolib erdi, Muso a. s. duosi bila suv aning ustidin ketti. To yerni qozib, tobutnikim, ba’zi toshdin, ba’zi shishadin debturlar, chiqordilar. Fir’avn bu holatdin vuquf topg‘och, cherik tortib, Muso a. s. ro‘baro‘yig‘a chiqti. Ul sipahning adadin hisobdin toshqari debturlar. Muso a. s. bag‘oyat mutavahhim bo‘ldi, Muso a. s.g‘a nido keldikim, «Izrib biasokal bahra»[29].

Muso a. s. haq taolo amrin bajo kelturdi. Nil daryosida o‘n iki yerda suv ayrilib, o‘n iki ko‘cha suv paydo bo‘ldi. Isbot adadi bila muvofiq Muso a. s. har sabt qavmini bir ko‘chaga kirarga farmon buyurdi. Alarg‘a buyurg‘ondek qilib, chun haq taolo amri bila daryo tubi qurub erdi, solim o‘ttilar. Fir’avn suv qirg‘og‘ig‘a yetkach, ul holni mushohida qilg‘och, a’zosig‘a ra’sha tushub, suvg‘a kirarda mutaraddid bo‘ldi va Homon ig‘vosi bila otin surdi. Va qibtilar dog‘i kirdilar. Chun tamom cherikdin biri toshqori qolmadi, hanuz biri suvdin chiqmaydurlar erdikim, suvg‘a amr bo‘ldikim, muttasil bo‘lub ravon bo‘ldi. Qahhorlig‘ va muntaqimliq bahri mutalotim bo‘ldi ersa, bir lahzada Fir’avn bila andoq azim sipohdin osor qolmadi. «Nauzu billohi min g‘azabillohi va nauzu billohi min shururi anfusino va min sayyioti a’molino»[30].

Va bu voqea oshuro kunida sodir bo‘ldi. Va necha kun ul daryo yuzida va iki qirog‘ida qibtilardin loshay erdi, nihoyatsiz zeb va tajammulkim, alarning libosida erdi, Muso a. s. qavmig‘a irshod qilur erdikim, bu amvolg‘a tasarruf qilmang. Saodat ahli ma’mur bo‘lub, shaqovat ahli ul jihodin ixtiyor qilib jam’ qilur erdilar. To oqibat alarg‘a yetishgon quyiroq mazkur bo‘lg‘ay, inshoallohul-aziz. Va Muso a. s. Yuvsha’ binni Nung‘a qolin sipah qo‘shub, Misrg‘a yibordi. Va ul Misrni fath qilib, qibtilar amvolin va soyir jihotin zabt qilib ham qibtidin bir kishini valiahd qildi, dog‘i Muso a. s.g‘a qo‘shuldi. Va Muso a. s. muharram oyining o‘n ikisida suv yaqosidin ko‘chub azimat qildi. Ul yonki Tengri taolo amri erdi, ba’zi Ray shahrig‘a debdurlar. Chun bani Isroil doim Muso a. s.din iltimos qilurlar erdikim, bir alohida shariat bizing uchun Tengri taolodin tilasangkim, ul dastur bila amal qilsak. Ul hazrat munojot qilib, xitob keldikim, Turi Sino tog‘ig‘a borib, o‘tuz kun ro‘za tutub, ulcha tilarsen yetsun.

Muso a. s. qavmning xilofatin Horun a. s.g‘a berib, qavm ashrofidin yetmish kishi ayirib, o‘zi bila olib Turi Sinotog‘ig‘a borib, mi’od muqarrar qildikim qachon kelgai. Chun ro‘za ayyomi ul muqaddas vodiyda mu’takif bo‘ldi, Jabrail a. s. kelib, payg‘om kelturdikim, yana o‘n kun dag‘i bu dastur bila o‘tkar. Chui qirq kun o‘tti, Muso a. s. Turg‘a mutavajjih bo‘lub, ul jamoat qoldilar. Oralarida bir bulut paydo bo‘lub, mone’ bo‘ldi.

Muso a. s. bila haq subhona va taolo tilsiz takallum qildi va o‘n lavh yibordi. Va anda shariat ahkomi marqum erdi. Va Muso a. s. ru’yat isti’dosi qilib muyassar bo‘lmadi. Chun rafiqlari qoshig‘a keldi, ul qavmlari haq taolo kalomin eshiturni istid’o qildilar. Borchani g‘azabi ilohi halok qildi. Yana Muso a. s. qoytib, qavmg‘a mulhaq bo‘ldi, ul o‘n kun jihatidinkim mav’idg‘a o‘tub erdi, qavm Somiri ig‘vosi bila go‘solaparast bo‘lub erdilar, magar o‘n iki ming kishikim isbotdin erdilar.

Muso a. s. bu holdin mutaajjib bo‘lub, Horung‘a g‘azab ogoz qildi. Horun a. s. masmu’ uzr etib va Somiri bobida yomon duo qildi va go‘solani kuydurdi. Va qavm bobida haq taolodin xitob keldikim, ul o‘n iki ming kishikim go‘sola parastish qilmaydurlar, jami’ bani Isroil elini qatl qilsunlar. G‘arib rustoxez tushti va ajib qatl voqe’ bo‘ldi. Yana Muso a. s. duosi bila Tengri taolo alarning qolg‘onin bog‘ishladi va tig‘ yurumas bo‘ldi. Muso a. s. buyurdikim, qatldin ilik torttilar. Yana Muso a. s. borib munojot qildi, «Tavrot» nozil bo‘ldi. Va ul qirq mujallad erdi. Va aning ahkomin qavm eshittilar va qabul qilmadilar va dedilar: «Sami’no va asayno»[31]. Muso a. s.g‘a yana malolat bo‘lub, Jabrail a. s. Tur tog‘ini yerdin ko‘torib, ul qavm boshi ustiga kelturdikim, Tengri taolo hukmin eshitmasalar, boshlarig‘a urg‘aylar. Zaruratdin sajda qildilar, ammo vahmdin bir yuz bila sajda qilib, bir ko‘zlari yuqori tog‘ sori erdikim, tog‘ tushmagay. Andoqki, yahudg‘a bu dastur bo‘ldikim, emdi dog‘i bir yuzlari bila sajda qilurlar. Chun qavm din qabul qildilar, yana Muso a. s. duosi bila ul tog‘ alar boshi ustidin g‘oyib bo‘ldi. Va, to‘rt ahkomi olti yuz o‘n uchga qaror tutti. Va Muso a. s. qavmini boshlab, Misrg‘a mutavajjih bo‘ldi. Va Muso a. s. seksen yashag‘onda Tengri taolo amri bila bir sanduq yasab, javohir bila murassa’ qilib, alvohi samoviyni anda solib, tegrasiga haftrang debodin shodurvon va saroparda tikib, aning muhofazatin Horun a. s. va avlodig‘a muqarrar qildi. Va ani sanduqush-shahoda dedilar. Va ul tavobe’ baytul-muhaddasqa shuhrat tutti. Va bu uchurda bani Isroil Omil otlig‘ kishini qardoshining iki o‘g‘li moli uchun o‘lturub, iki qavm orasig‘a soldilar va qotilni topmoq uchun Muso a. s.g‘a ilhoq bunyod qildilar. Muso a. s. ul iki qavmg‘akim, maqtul alarning orasida tolilib erdi, qassomag‘a hukm qildi. Alar qabul qilmadilar va dedilarkim, duo qil, to qotil topilsun. Duo qildi. Tengri taolo hukm buyurdikim, bir o‘yin kelturub o‘lturung va aning bir uzvini maqtulg‘a urung, to aytsunkim, qotili kimdur. Alar o‘y sifatida ilhoh qilib, o‘zlariga ishni dushvor qildilar. To ish anga yettikim, bir o‘ykim o‘rta yoshlig‘, rangi sorig‘, ziroat va yuk zahmatin ko‘rmagan bo‘lg‘ay va nopok yerda o‘tlamamish bo‘lg‘ay va umrida anga mashaqqat yetmamish bo‘lg‘ay, topquluq bo‘ldilar. Andoqkim, Baqara surasida mazkurdur. Va topqondin so‘ngra iyosi bahosida mubolag‘a qilib, o‘y terisini yormoq to‘ldurub anga berur va’dasi bila o‘yni olib o‘lturdilar. Va etidin o‘lukka urub, o‘luk tirildi. Va Muso a. s. andin qotilin so‘rdi. Ul iki qotilni ko‘rguzdi va hamul zamon Tengri hukmin butkardi. Muso a. s. qotillarin qasosqa yetkurdi va ul o‘yni kuydurub, kulin asradilar. Har qachon bu nav’ ish voqe’ bo‘lsa, aning kulidin ham bu xosiyat topar erdilar. Va ul mo‘‘jiza Horun a. s. avlodida erdi.

Va bu voqeadin so‘ngra, bani Isroilg‘a Qurbon farz bo‘ldi va Qoron jo‘yasida Shu’ayb a. s. kelib, Muso a. s. ni ko‘rdi. Muso a. s. azim jashn qilib, Shu’ayb a. s. ni znyofat qildi. Va Shu’ayb Muso a. s.g‘a buyurdikim, sibtining rayosatni bir kishigakim, alar orasida aql va kiyosat va shijoat bila orosta bo‘lg‘ay, muqarrar qildi. Va ul xaloyiqning adadin daftarlarda mastur qildilar. Olti yuz mingdin ortug‘roq erdilarkim, yigirmi yosh bila ellikning orasida erdilar. Shayx va shabobining nihoyati yo‘q erdi. O‘n iki kishi bularg‘a sardor bo‘ldilar. Va bu vaqt havoning harorati chog‘i erdi. Haq taolo Muso a. s.ning cheriki ustiga doim bir qaro bulut yiborib erdikim, ko‘lanka qilgay.

Nogoh Horun bila Maryamning xiyollarida bu kechtikim, nasab va hasabda biz Musodin kam emasbiz va bashariyat jihatidin bir necha nima Muso a. s. nisbatig‘a. Dedilarkim, ul hazrat ul nimalardin biri erdi. Ul bulutdin bu ish man’ig‘a nahiyb un keldikim, ey bani Isroil, sizga ne hadkim, Muso a. s. bila o‘zunguzni teng tutqaysizkim, bu kungacha barcha mursal payg‘ambarlarni Jabrail vositasi bila va ilhom bila va ro‘yo bila o‘z xitobimizg‘a musharraf qilibmiz. Va anga vositasiz o‘z kalomi majidimizga takallum qilibbiz va anga berilgan mo‘‘jizot hech rasulg‘a berilmaydur. Bu un murtafn’ bo‘lg‘och, ul bulut dog‘i g‘oyib bo‘lub havo ostida harorat topib, Horun a. s. bila Maryam

Muso a. s. hazratida ul gustoxliqdin istig‘for qildilar va ul afv qildi. Ammo Maryam yuziga baras illati zohir bo‘lub, ul ham Muso a. s. duosi bila daf’ bo‘ldi. Yana Qorun qissasidur. Ul bani Isroilda ilmu fazlda munfarid erdi. Va g‘oyat husn va jamolidin ani munavvar derlar erdi. Va Muso a. s.ning yaqin qarobatidur. Va Muso a. s. aning tarbiyatida mubolag‘a qilur erdi. Va ulumi g‘ariba va fununi ajibakim, fayzn ilohidin muborak zamirig‘a munaqqash erdi. Aning fahmi yetkoncha ne anga ta’lim qilur erdi, bu jumladin, kimyo ilmidurkim, Qorun o‘rgonib anga ishtig‘ol ko‘rguzdi. Va aning molu tajammuli ul yerga yettikim, xazoyinu kunuzlarining kalidlarin qirq xachir ko‘tarur erdi. Aksar bani Isroil anga munqod bo‘ldilar.

Muso a. s. anga amr qildikim, mingdin bir zakot Tengri taolo hukmi bila bergil. Ul betavfiq ibo qildi, bu Baytul-muqaddas va sanduqi shahodat ixtiyoriki Horun a. s.g‘a taalluq erdi, istid’o qildi. Muso a. s. anttikim, ul ishlar haq taolo amri bila anga qaror tutubdur. Andoqki, muncha zohir asbobi sanga mutaalliq bo‘lubdur. Qorun Muso a. s.g‘a ihonat va istehzo qilib, bir zaifag‘a ko‘p mol berib buyurdikim,, Muso xaloyiqqa va’z va nasihat qilurda, ul zaifa qo‘pub, Muso a. s.g‘a o‘zi bila tuhmat qilg‘ay va tavriya hukmi bila Muso a. s.ni bani Isroilg‘a buyurub siyosat qildurg‘ay. Ul vaqtni asrab, ul xotun qo‘pub, bu so‘zni ayturda Tengri taolo tiliga rost so‘zlar soldikim, Qorun anga buyurtubdur. Va so‘zi tugagondin so‘ng, iymon arz qilib Muso a. s.g‘a uzr quldi. Muso a. s.g‘a Qorun ishida g‘azab mustavliy bo‘lub, munojot qilib, Jabrail a. s. kelib, hukm kelturdikim, biz yerni saning farmoningda qilduq, Horun har nega shoyista bo‘lsa qil. Muso a. s. xushhol bo‘lub qavmg‘a buyurdikim, Tengri taolo meni Qorung‘a muzaffar qildi. Har kim aning tobe’idur, anga qo‘shulsun, maning tobe’im manga qotilsun.

Qavm mutavahhim bo‘lub, Muso a. s.ga qo‘shuldilar.. Muso a. s. yerga ayttiki, «Yo arzi xuzihi»[32]. Yer Qorunni oshug‘ig‘acha o‘ziga tortti. Horun dedikim, ey Muso yana sehr og‘oz qilding. Muso a. s. aytti: «Yo arzi xuzyhi». Tizig‘acha yerga botti. Qorun mutaiahhim bo‘lub», uzr og‘oz qildi. Muso a. s. g‘a maqbul tushman yerga amr aytar erdi va yer ani quyiroq tortar erdi, to tamom yerga kirdi va gum bo‘ldi. Xitob keldiki, yo Muso, Qorun sendin yetmish qotla iymon tiladi va topmadi. Bir qotla bizdin tilasa erdi, qabul qilur erduk. Muso a. s. dedikim, men dog‘i ko‘z tutar erdimkim, sandin iymon tilagay. Taqdiring yo‘q erdi, tilamadi. Andin so‘ngra qavm arozil va botilga gumon bo‘ldikim, Muso a. s. Qorunning moli tama’ig‘a ani halok qildi. Muso a. s. duo qildikim, aning yig‘ilg‘oni majmu’i yerga kirdikim, hech nima qolmadi. Va Muso a. s. g‘a amri ilohi nozil bo‘lub erdikim, Shom diyoriga a’moliqa va jabborlar daf’in qilg‘an. Va ul toifa bag‘oyat zaxim va jasim el erdilar. Avj binni Unuqki mashhurdurkim, boshi bulutqa surtulur erdi, ul qavmdin erdi. Muso a. s. o‘n iki naqibnikim, qavmning sardori qilib erdi, yibordikim, Shomga borib, ul qavm ahvolining kayfiyatin bilib, xabar kelturgaylar. O‘zi qavm bila alar so‘ngicha tebradi. Alar Shomg‘a yetib ittifoqo Avj binni Unuqqa yo‘luqtilar va Avj alarni tutub, ba’zi debdurlarkim, etokiga solib, ba’zi debdurlarkim ovuchig‘a olib, podshoh qoshig‘a elttikim, bu toifa keladur ermishki, mulkni bizdin olg‘aylar. Tamasxur qilib, ul jamoatni qo‘ydilar. Qoytib shart qildilarkim, ko‘rgonlarin Muso a. s.din o‘zga kishiga demagaylar, qavm eshitsalar, tavahhum g‘olib bo‘lub, munhazam bo‘lmag‘aylar. Ammo qavmg‘a yetkondin so‘ngra Yuvsha’ binni Nung‘a Qolab binni Yufnodin o‘zga o‘n rafiq yurub, qavmg‘a ayttilar: Muso a. s. Shom azimatin musammam qilib, bani Isroil dedilarkim, bizga a’moliqa bila urushur quvvat yo‘qtur, urushg‘a bormasbiz. Ey Muso, agar Shom mulki hukumatin tilarsen, «Izhab anta va rabbuka faqotilo»[33]. Muso a. s. qavmidin ranja bo‘lub, sajda qilib ayttikim, «Rabbi inni lo amliku illo nafsi va axi, fafruq baynano va baynal qavmil fosiqin»[34]. Va Yuvsha’ va Kolut yig‘lab, qavmni yomon duo qildilar. Hamul zamon xitob keldikim, Ey Muso, necha bu qavm bizing voziha oyot va loyiha bayyinotimizni ko‘rub, tamarrud va isyon qilg‘aylar. Chun bularni fosiq deding, jazolarin beroli. Bu vai’ddin so‘ng, ul o‘n kishikim, ahdlarin sindurub erdilar, jasadlari erib oqti! Va qavm qolib, Muso va Horun va Yuvsha’ va Kolut a. s. Shomg‘a azimat qildilar. Va bani Isroil Misrg‘a yondilar. Va ul kun tongidin oqshomg‘acha yo‘l yurub, oqshom manzilg‘a tushgondin so‘ngra ko‘rdilarkim, hamul ko‘chgon manzil erdi. Hayrat bila tonglasi ko‘chub, yana bu holni ko‘rdilar. Bildilarkim, ul af’ollari jihatidin Tengri taolo alarni bu

balog‘a giriftor qildi, yerdin chiqardin noumid bo‘lub, yerlik yeriga tushub, ko‘ngullarin baloga qo‘ndilar.

Muso a. s. chun ashob bila Shomga yettilar, ul kishikim avval alarg‘a uchradi, Avj binni Unuq erdi. Debdurlarki, Avj bir tog‘ porasin ko‘torib, jami’ kavmning ustiga tashlab, borisin halok qildi, deb keladur erdi. Soni’i korsoz qudrat izhorig‘a hudhudga amr qildikim, ul tog‘ ustida o‘lturub cho‘qug‘och, andoq teshildikim, Avjning bo‘ynig‘a tushub, ani halok qildi. Ba’zi debdurlarkim, Muso a. s. asosi zarbi bila o‘ldi.

Va Muso a. s. ashob bila qavm sori keldilarkim, bu kishi halok bo‘ldi. Alar ul hollarin arz qildilar. Muso a. s. duo qilib, alarg‘a karak va taranjabin yog‘ar erdi. Va bir toshtin iki bulog‘ joriy bo‘lub, alar serob bo‘lur erdilar, to haq taolo ul qavmni qirq yil ul bodiyada azob bila halok qildikim, biri qolmadi. Ammo qudrat ko‘rguzub, tihada bo‘lg‘on avlod va atbo’larin alarning adadi bila muvofiq biyobondin najot berdi va qavmdin hamul to‘rt buzurgvor chiqdilar. Muso a. s.ning fazlu ilm va nubuvvat jihatidin martabasi andin o‘ttikim, uqul havsalasig‘a sig‘iqmay, yo tiliga, yo ko‘ngliga kechtikim, oyo bu kun olam yuzida Tengri taoloning mendin donoroq bandasi bormu ekan? Xitob keldikim, ey Muso, o‘zungdin olimroq bandani ko‘rar bo‘lsang, majmaul bahrayng‘a bor. Muso va Yuvsha’ a. s. ul mavzi’g‘a bordilar va bir tosh ustida bulog‘ boshida ozuqlarni unuttilar. Va ul qoq bolig‘ erdi. Xizr a. s. maqdami barakotidin ul bolig‘ tirilib, talpinib o‘zin suvg‘a soldi. Muso a. s. Yuvsha’din ju’ daf’ig‘a nima tiladi ersa, Yuvsha’ z. s. aytti, zodni falon tosh ustida unutibmen. Ikov yondilar: «Qola Araayta iz avayno ilassaxrati fainni nasitul huta»[35]. Chun yonib ul mavzi’g‘a yettilar. Muso a. s. Xizr a. s.g‘a musharraf bo‘lub, andin musohabat istid’osi qildi. Xizr a. s. dedikim, shoyad sanga mening musohabatlig‘im toqati bo‘lmag‘ay. Muso a. s. dedikim, «Satajiduni insho allohu sobiran valo a’si laka amro»[36] bu shart bila ikov bir kemaga kirdilar va bahr qat’ining asnosida Xizr a. s. ul kemaning tubin teshib, ma’yub qildi. Base zahmat bila yasadilar. Muso a. s. taajjub qilib, sababin so‘rdi. Xizr a. s. ayttikim, «Alam aqul innaka lan tastatia maiya sabran»[37]. Muso a. s. xomush bo‘lub, kemadin chiqqondin so‘ng bir shahrg‘a yettilar. Suruk atfol o‘yung‘a mashg‘ul erdilar. Xizr a. s. alar orasidin bir tiflni halok qildi. Muso a. s. ni hayrat beixtiyor qilib, yana ul ish kayfiyatidin savol qildi. Yana Xizr a. s. dedikim, «Alam aqul innaka lan tastatia maiya sabran»[37]. Muso a. s. yana degondin pushaymon bo‘lub, azimat qilib, kechqurun bir shahrg‘a yettilar.

Ibn Abbos roziyallohu anhu debdurkim, ul Antokiya shahri erdi. Kecha anda bo‘lub, ul eldin taom tilab, alar ibo qildilar. Ikov andin o‘tub, bir yerga yettilarkim, bir buzuq devor erdikim, oz asari qolib erdi. Xizr a. s. ul devorni imorat qilib, biyik qildi. Muso a. s. yana taajjub qilib, betoqat bo‘lub dedikim, bu devorni ne jihatdin imorat qilmoqg‘a bois erkin. Xizr a. s. dediki, bizing oromizda musohabatlig‘ ushmuncha bo‘lg‘ay. «Qola hozo firoqu bayni va baynika»[38]. Va lekin uch ish hikmatin Muso a. s. so‘rub, Xizr a. s. ayttikim, kema g‘arqig‘a jihat ul erdikim, chiqqon viloyat podshohi Manzar otlig‘ zolim kishidur. Elning butun kemasin zulm bila olur erdi va bu kema o‘n faqirning erdikim, maoshlari aning ijarasi bila kechar erdi. Bu kemani aning uchun teshtimki, payvandlig‘ ko‘rub, ma’yub deb olmag‘ay, to ul faqirlar maosh jihatidin ojiz bo‘lmag‘aylar. Va ul tiflki o‘lturdum, musulmon elning o‘g‘li erdi va ulg‘oysa, kofir bo‘lg‘usi erdi. Aning maslahati bu qatlda erdikim, kufr ahli zumrasig‘a kirmagay va azobi do‘zax mustavjibi bo‘lmag‘ay. Ammo bu vayrona imoratig‘a sabab bu erdikim, bu shahrda iki yatim tifldurkim, ato-ano solih erkandur. Va ul atfol uchun bu devor orasida ganj madfun qilibdurlar. Alar bulug‘ haddig‘a yetib, muni tasarruf qilurdek bo‘lg‘uncha, bu devor munhadim bo‘lur erdi. Va alar o‘z haqlarin topmaslar erdi. Bu nishona jihatidin topqusidurlar.. Muso a. s. Xizr a. s.ning ilmig‘a mu’tarif bo‘lub, xayrbod qilib, bir-biridin ayrilishtilar. Ba’zi bu voqeani tihadin burun, ba’zi so‘ngra debdurlar. Ammo asah uldurkim, tiha baliyyasi ayyomida erkandur. Ba’zi tavorixda Horun a. s.ning voqeasin tiha baliyyasining uchunchi yilida debdurlar va ba’zi ul baliyyaning qirqinchi yilida va aning sharhi budurkim, mazkur-bo‘lg‘on tarixda Muso a. s.g‘a vahyi keldikim, Horun a. s.g‘a ajal yetibdur. Aning bila falon mavzi’g‘a bor. Muso a. s. Horun a. s. bila ul sori mutavajjih bo‘ldilar. Bir yerga yettilarkim, bir mutakallif uyda bir zebo taxt ko‘rundi. Horun a. s. Muso

a. s. g‘a ayttikim, xotirim orzu qiladurkim, bu taxt ustida orom topsam. Muso a. s. ayttikim, andoq qil. Horun a. s. istid’o qildikim, Muso a. s. dag‘i aning bila yotqay. Muso a. s. qabul qildi. Chun ikov taxt ustida yottilar, Horun a. s. ruh vadi’atin ajal mutaqoziysig‘a topshurdi. Muso a. s. ma’lum qilg‘och, aning madfanig‘a mashg‘ul bo‘lg‘och, ul uy bila taxt g‘oyib bo‘ldi. Muso a. s. ul qavmg‘a kelib, xabarni aytti ersa, bani Isroil dedilarkim, Muso a. s. bu jihatdinki qavm andin Horun a. s.ni ko‘prak sevarlar, ani o‘zi qatl qilibdur. Muso a. s. duo qildi, to haq taolo ul taxtni Horun a. s. bila alarg‘a ko‘rguzdi. Va Horun a. s. ul taxtdin qavmg‘a man’ qildi. Dog‘i yana ul taxt g‘oyib bo‘ldi. Va Muso a. s. uy va taxtni ko‘rgan yerga oliy imorat yasab, Horun a. s.ning Alfozor otlig‘ o‘g‘lin otasi mansabida voliy qildi. Bu holdin so‘ngrakim, Muso a. s.ning yoshi yuz yigirmiga yetib erdi, bani Isroilni hozir qilib, alarg‘a nasihatlar qildi. Va kotiblar o‘lturtub, «Tavrot»ni mutaaddid bitib va o‘zi birni muborak xati bila bitib, Jabrail a. s. bila tashih qilib, sandiqush-shahodag‘a soldi. Va o‘zgalarni tashih qilg‘ondin so‘ngra har qavmig‘a birin berdi. Va aning tilovati va ahkomining ijrosig‘a vasiyat qildi. Va o‘z xilofatiii Yuvsha’ a. s.g‘a berib, elni anga topshurdi, eldin vasiqatlar oldi.

Yuvsha’ a. s. xilofatig‘a va borcha qabul qilg‘ondin so‘ngra Yuvsha’ bila qavm orasidin chiqti va Yuvsha’ a. s.ni quchub, xayrbod qilib, kiygon ko‘ngloki orasidin g‘oyib bo‘ldi. Noinsof qavm Yuvsha’ni Muso a. s. qatlig‘a muttaham qilib, mahbus qildilar. Kechasi Muso a. s. qavm tushiga kirib, ul ishdin man’ qilib tonglasi ani qo‘ydilar. Va Muso a. s. Horundin uch yosh kichik erdi. Va qabri ma’lum ermaskim qoydadur.

R u b o i y:

Musoki, jahong‘a tushti g‘avg‘osi aning,
Horun erdi vaziri donosi aning.
Chun bo‘ldn bihisht sori ma’vosi aning,
Ne qoldi aso, ne yadi bayzosi aning.

Ba’zi mutafarriq axborki, ul chog‘ voqea bo‘ldi, Fir’avn qizining bir mashshotasi bor erdi. Bir kun aning sochin tararda tarog‘i ilikdin tushti. «Bismilloh» deb yerdin oldi. Qiz otasig‘a aytti. Otasi ul zaifani temir qozug‘lar bila chormix qilib, o‘tluq qiziq toshni bosh va yuziga qo‘ydurdi. Ul mazluma dindin yonmadi. Va uch oyliq tiflni qiziq tanurg‘a soldi. Va ul tifl onasig‘a fasih til bila dedikim, «Isbiri yo ummoh faqad vasalti ilallohi va nilti rizohu va laysal ona baynaki va baynal-jannati illo xatvatan avxatvatayni»[39]. Bu holdin azim xalq qibtilardin musulmon bo‘ldilar. Va Osiya binti Mizohum roziyallohu anho aning maqtali mujmalan o‘tti, chun tojurrijol erdi, oncha bila o‘tsa bo‘lmas. Nisbati Lut a. s.g‘a yetar va Fir’avnning aqrabosidindur. Ba’zi aning maqtalin debdurlarkim, mashshotani Fir’avn qatl qilurda, ul iztirob qilib, Fir’avng‘a qotiq so‘zlab, dinni izhor qildi. Fir’avn ani ham mashshotag‘a qilgan azob bila qatl qildi. Ammo azobi chog‘ida Muso a. s. duosi bila Tengri taolo ul azobdin alam yetkurmay, bihishti jovidong‘a eltti. Va Muso a. s.ning mu’jizoti borcha anbiyodin ko‘ptur.

Yuvsha’ binni Nun a. s. mursal payg‘ambardur. Va Muso a. s.din so‘ngra Shom xilofatin yaxshi qildi. Va ko‘prak mufassirlar muttafiqdurlar mungakim, haq subhona va taolo ul oyatda debdurkim: «Va iz qola Muso lifatohu lo abrahu hatto ablug‘a majmaal bahrayni av amziya huquban»[40] iborat Yuvsha’dindur. Anga amr bo‘ldikim, Muso a. s.din so‘ngra, Shom jabborlari yana istilo toptilar, borib alarni daf’ qilg‘an. Yuvsha’ a. s. bani Isroil bila mutavajjih bo‘lub, Ardun rudig‘a yetkonda, suv uluq erdi, Muso duosi bila Nil shaq bo‘lub cherik o‘tti. Va Ari shahrikim, matonat va qo‘rg‘oni rif’atda vasfdin toshqoridur, muhosara qildi. Xaloyiq ayttilarkim, bu qal’ani muhosara bila olmoq mumkin ermas. Yuvsha’ a. s. eshitib, duo qildi. Ul qo‘rg‘onning porasi yiqilib, qavm kirib tasarruf qildilar va g‘anoyimni Yuvsha’ a. s. amri ilohi bila buyurdikim, kuydirdilar. Bir kishi bir oltin toshin xiyonat qilib erdi, xoing‘a ham o‘t tushti. Va bu voqeadin so‘ngra Yuvsha’ a. s. qavmg‘a amr qildikim, o‘tgan

yozug‘laringiz uzri uchun Tengri hazratida tazarru’ qilib, talabi mag‘firat qiling! Alarkim amr baho kelturdilar, mag‘fur bo‘ldilar. Ba’zi ul so‘zga istehzo qildilar. Osmondin bir o‘t tushub, mustahziy elni o‘rtadi. Va Yuvsha’ a. s. Dori shahrini fath qilib, Balqog‘a mutavajjih bo‘ldilar. Va Boliq degan anda podshoh erdi. Bal’am Bo’urki, mustajobud-da’va erdi, ul shahrda erdi.

Yuvsha’ a. s. muhosara qilg‘ondin so‘ngra Boliq istido’sidin duo qildikim, Yuvsha’ a. s. sipohi munhazim bo‘ldi. Yuvsha’ a. s. munojot qildikim, xitob keldikim, bu shahrda bir banda biznig ismi a’zam bila duo qilur. Bu inhizom aning duosidin bo‘ldi. Yuvsha’ a. s. dedikim, bori xudoyo, chun g‘ayri mavqe’ duo qildi, ul ismni anga unuturg‘il. Tengri taolo Yuvsha’ a. s. istid’osi bila ul ism Bal’am zamiridin mahv bo‘ldi. Yana Yuvsha’ a. s. sipoh yig‘ib, ul shahrni muhosara qildi. Bu qotla xush shakl fohishalarni shahrdin chiqardilarkim, bani Isroildin har kim zino qilsa erdi, Tengri taolo balo yiborur erdi. Birov ul favohishdin biri bila zino qilg‘och, orolarig‘a toun tushti. Ul kishi bila ul fohishani o‘lturub, xalq tazarru’ qilib, Yuvsha’ a. s. duosi bila Tengri taolo ul baloni daf’ qildi. Andin so‘ngra Yuvsha’ a. s. ul shahrni fath qildi va a’moliqa qatlig‘a hukm qildi. Va Bal’am ham ul maqtullar orasida, chun islom tarkin qilib erdi, do‘zax azimati qildi, jum’a sabohidin shomig‘acha yoqin qatl erdi. Va a’moliqadin xotirjam’ bo‘lmaydur erdi. Bani Isroilg‘a shanba kechasi va kuni ham toatdin o‘zga ishga ruxsat yo‘q erdi.

Yuvsha’ a. s. duosi bila Tengri taolo kunni mag‘rib soridin qoytorib, falakda oncha tavaqquf berdikim, qavm dushman ishidin forig‘ bo‘lub, o‘z ibodatlarig‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Va gunashni Yuvsha’ a. s.din boshqa Tengri taolo Sulaymon a. s. bila amirul-mo‘minin Ali karramullohi vajha mo‘‘jiza va karomatidin mag‘ribdin mashriq sori harakat berdi. Har qoysi o‘z yerida kelgay, inshoalloh taolo.

Va Yuvsha’ a. s. bu fathdin so‘ngra O’y degan shahrni ham fath qilib, zlidin o‘n iki ming kofirni qatl qildi. Va ul diyorda ko‘p xalqni islomg‘a kiyurdi. Va mag‘rib zaming‘a azm qilib, ko‘p bilod olib, o‘tuz bir podshoh kuffordin o‘lturub qoytti. Va muncha g‘aroyib taqriban yeti yilda bo‘ldi. Va andin so‘ngra, yigirmi yil xalqni «Tavrot» mutolaasig‘a ta’lim qildi. Andin so‘ng qazo yetti. Va ba’zi islomg‘a kirganlardin ham murtad bo‘ldilar debdurlar. Kolut binni Buqyoni o‘z xilofatig‘a musharraf qilib, xalqni anga topshurdi va olamdin vido’ qilib chiqti yoshi ba’zi rivoyatda yuz o‘n va ba’zida yuz yigirmi yetidur. Vallohu a’lam.

Sh ye ‘ r:

Yuvsha’ki, solib kufr ahli ko‘ngliga xarosh,
Muso dinida el bila qildi maosh.
Har necha quyoshda ayladi mu’jiza fosh,
Oxir qaro yerga kirdi andoqki quyosh.

Kolut binni Yufno a. s. ko‘prak ulamo qoshida mursaldur. Yuvsha’ a. s.din so‘ngra bani Isronlni yaxshi zabt qilib, mulk ochti. Oxirul-amr Salm xayyomig‘a sipoh tortib, malik Boraqni asir qildi. Va ul ko-fire erdnkim, yillar jabbor sifatlig‘ bila saltanat qildi. Derlarki, yetmish podiyuh va podshohlin doiya qilg‘onlar aning hibsida erdilarkim, bormog‘larin kesib erdi. Shom taomi tortilurda alarni hozir qilib, ilaylariga taom qo‘idilar va alar og‘izlarin yerga kelturub, iЂlardek nima yerlar erdi. Kolut aning bila ham bu muomalani qildi. Chun bu fath dast berdi, Kolut qavmni Misrg‘a olib keldi va ko‘p vaqt ham nubuvvat va ham saltanat surdi. Oqibat o‘g‘li Nusho Qavsga saltanatni musallam tutub, valiahd qilib, olamdin o‘tti. Muddati zamoni necha yil erkani ma’dum ermas uchun bitilmadi.

R u b o i y:

Kolutki, Yuvsha’ vasiy etti oni,

Ko‘p vaqt erdi olam aro davroni.
Ham shahlig‘ va ham nubuvvat erdi shoni,
Gar shohu gar nabiy bo‘lurlar foni.

Hizqil a. s. Xaloyiq ani Abula’juz dedilar. Sharhi bukim, atosining iki xotuni bor erdi. Aning anosig‘a farzand bo‘lmas erdi. Va yoshi ham ulg‘oyib erdi. Ammo yana bir xotundin o‘n o‘g‘li bor erdi. Va bu xotun andoqki, zuafo rasmidur, ul birga ham o‘g‘ulsizliq jihatidin ham ta’n qilur erdi, ham ajuzalig‘ jihatidin shamotat ko‘rguzur erdi. Ajuza aning shamotatidin mutaassir bo‘lub, bir kecha tong otquncha munojot qilib, Tengri taolodin bu baloning ilojin tiladi. Tengri taolo aning duosin bu nav’ mustajob qilibdurkim, ul o‘n iki yoshtin yigit bo‘ldi. Va Hizqil a. s.ning atosidin homila bo‘lub, Hizqil a. s. vujudqa keldi. Bu jihatdin ani Abulajuz debdurlar. Tafsir ahli qoshida muxolifatdur, bu bobdakim ul payg‘ambarkim, qavmini Tengri taolo isyonlari jihatidin halok qildi va ul duo bila borchasin tirguzdi, Yuvsha’dur, yo Ushmul, yo Hizqil a. s. Va debdurlarkim, asah uldurkim, Hizqil a. s. bo‘lg‘ay. Ul voqea bu nav’durkim, Hizqil a. s.g‘a amr bo‘ldikim, Ilyo shahrig‘a borib, kufforni ding‘a dalolat qilg‘ay. Va ba’zi Doron degan shahrni debdurlar. Hizqil a. s. amrni bu qavmg‘a targ‘ib qildi. Qabul qilmadilar. Qahri yalohi qavmni toun balosig‘a mubtalo qildi. Qavm ul balo maxlasig‘a jalo ixtiyor qildilar. Chun mulklaridin bir miqdor yo‘l chiqdilar, bir hoyil un osmondin kelib, borchasi halok bo‘ldilar. Ibn Abbos raziyallohu anhu alarni to‘rt ming debdur va Hasan sekiz ming va Vahb binni Munabbih sekson ming. Har taqdir bila, chun borcha halok bo‘ldilar, kishi yo‘q erdikim, alarni dafn qilg‘ay. Islonib etlari so‘ngaklaridin ayrildi. Hizqil a. s. e’tikofidin chiqib, chun qavmg‘a o‘tub, ul holni ko‘rdi, ko‘ngliga riqqat bo‘lub, duo qildikim, Yorab, bu xalqni tirguz! Duosi mustajob bo‘ldi, Tengri taolo alarni borchasin tirguzdi. Bo vujudi bu g‘arib hol qavm gohi Hizqil a. s. amrig‘a muti’ erdilar, goh emas erdilar. Muborak xotiri alardin malul bo‘lub, vatandin hijrat qilib, Bobilg‘a bordi. Va anda muddate bo‘lub, Tengri taolo hukmin butkardi. Va muborak marqadin Hilla bila Kufa orasida ham debdurlar.

R u b o i y:

Hizqil erdi rasuli pokiza sifot,
Mursal dedilar nubuvvatin borcha siqot.
O‘lganlar agarchi damidin topti hayot,
O‘lmakdin o‘ziga bo‘lmadi lek najot.

Ilyos a. s. Horun a. s. naslidindur. Ba’zi ani Idris debdurlar, bu man’i bilaki, aning ruhi va haqiqati bu surat bila noqislar takmili uchun zuhur qilmish bo‘lg‘ay. Ba’zi ham musallam tutmaydurlar.

Rivoyatdurki, Hizqil a. s.din so‘ngra bani Isroig‘ orasida millat haysiyyatidin ko‘p bulgonchug‘luq voqe’ buldi. Ul nav’ki, Muso a. s. dini arodin chiqti va «Tavrot» ahkomi unut bo‘ldi va anvo’ butlar yasab, ul qavm butparastlig‘qa mashg‘ul bo‘ldilar va fisq va isyonlari haddin o‘tti. Haq taolo Ilyos a. s.ni alarning hidoyati uchun mab’us qildi. Va Ilyos a. s. alarni Tengri taolog‘a dalolat qildi. Hech kishi Ilyos a. s. so‘zin qabul qilmadi va aning qatli qasdig‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Ilyos a. s. amri ilohi bila alarning arosidik chiqib tog‘lar arosida mahfiy maosh o‘tkarur erdi, to ulki Ba’labak podshohi bir azim but yasab, otin Ba’l qo‘ydi. Va borcha ishda istionat andin qilur erdi. Va sevar o‘g‘li xasta bo‘ldi. Har necha aning sihatin istid’o qildi, foyda topmadi. Xotuni makkorai qattola g‘arib erdi. Bani Isroildin yegi podshohg‘a tegib erdi. Har birin bir hiyla bila o‘lturub va yetmish farzand ul salotindin hosil qilib erdi. Va Ilyos a. s.g‘a bag‘oyat dushman erdi va aning qatlig‘a ko‘p sa’y qilur erdi. Va o‘g‘li shifosig‘a Shom viloyati butlaridin istimdod uchun jamoati kasir yiborib erdi. Ilyos a. s. chun alarg‘a uchrab dedikim, ey nodon qavm, bu ja-modlardin hech naf’ va zarar yo‘qdur, nega anga marau bergan xoliqdin shifosin tilamassiz? Qavmg‘a aning so‘zi haybatidin titrotma tushti. Kelib podshohqa

ayttilarkim, kishilar yiborib Ilyos a. s.ni keltururg‘a hukm qildi. Ul elga osmondin o‘t tushub kuydilar. Necha qotla bu nav’ voqe’ bo‘ldi. Oqibat Ilyos a. s. amri ilohi bilan Ba’labakka kelib, Yunus a. s. atosi uyida qaror tutti. Va Yunus a. s. tifl erdi, necha kundin so‘ngra yana tog‘u dasht azimati qildi. Va ul favrda Yunus a. s. g‘a ajal yetib oxir bo‘ldi.

Yunus a. s. atosi Ilyos a. s.ni topib iltimos qilib, Ilyos a. s. duosi bilan Yunus a. s. badanig‘a ruh kirib ihyo zumrasig‘a kirdi. Va Ilyos a. s. ajuzalar uylarida maxfiy yurur erdi. Chun qavm nodonlig‘idin malul bo‘ldi, duo qildi, uch yil elga yog‘in yog‘madi va azim qahat bo‘ldi. Bu asnoda Alyasa’ a. s. Ilyos a. s.g‘a rafiq, bo‘ldi. Va ul yigit erdi. Va Ilyos a. s. ulg‘oyib erdi, yana amri ilohi bila qavm arosig‘a kirib dedi, yil-lardurkim bu jamodlarni parastish qiladursiz, bularg‘a shafoat qilingkim, sizga yog‘in yog‘sun. Va illoh, siz iymon kelturung, men Tengri taolog‘a munojot qilay to yog‘in yog‘sun. Qabul qildilar. Alar shafoatidin yubusat ko‘prak bo‘lg‘ay. Ilyos a. s. duosidin yog‘in yog‘ib, hububot ko‘kardi. Kuffor va’dag‘a vafo qilmadilar, Ilyos a. s.g‘a ul gumrohlar ixtilotidin malolat ortqondin so‘ngra, Alyasa’ a. s. ni xilofatig‘a ta’yin qilib, xaloyiq ko‘zidin maxfiy bo‘ldi. Va Tengri taolo ani izzat qibobida eldin mastur asrabdur. Bahru bar darmondalarig‘a dastgirliq qilur. Va holo tirikdur. Avdoqki, Hizr a. s. vallohu taolo a’lam. Va muddat va da’vatida bir kishi aning dinig‘a kirdi.

R u b o i y:

Ilyosqa eldin chu ko‘b o‘ldi tug‘yon,
Elning ko‘zidin ruhdek bo‘ldi nihon.
Har kimni xalos qilsa eldin yazdon,
Ne tong anga umri abadiy bo‘lsa nihon.

Alyasa’ a. s. bani Isroil anbiyosidindur. Atosini. Axtub debdurlar. Va aning ishi dehqonliq erdi. Ilyos a. s.g‘a vahy yettikim, ani valiahding qil! O‘l hazrat aning tarbiyatig‘a mashg‘ul bo‘ldi, ishi elga xilofatqa yetti. Va muddate bani Isroilni haq taolog‘a da’vat qildi. Va andin xoriq odot va mu’jizot ko‘p voqe’ bo‘lubdur. Ul jumladin biri bukim, birov uyiga mehmon bo‘ldi va ul mezbonig‘a farzand orzusi erdi va bo‘lmas erdi. Aning duosi bila Tengri taolo anga farzand berdi. Va ul farzandig‘a necha vaqtdin so‘ngra ajal yetti. Yana aning duosi bila ruh badanig‘a kirib, ko‘p vaqt tirildi. Bu nav’ mu’jizoti ko‘ptur. Bovujudi bu nav’ holot bani Isroil gohi anga munqod erdilar, gohi yo‘q. Xotiri ul eldin toriqib, Zul-kiflni o‘z xilofatig‘a ta’nin qildi. Va o‘zi munojot qilib, Tengri taolog‘a vosil bo‘ldi. Va bu murodini Tengri taolo hosil qildi.

R u b o i y:

Ilyos chu Alyasa’ni voliy etti,
Haqdin anga anvori nubuvvat yetti.
Gar ul qochib el malolatidin ketti,
Ul ketgondek bu dog‘i ketmay netti.

Zul-kifl a. s. bobida ixtilof ko‘bdur. Ba’zi ani Dizqil debdurlar. Ba’zi debdurlarki, Ayyub a. s.ning o‘g‘lidur, oti Bashar. Va agar bu rivoyatlardin har qoysi rost bo‘lsa, Alyasa’ zamonidin yiroq tushar. Ul asah rivoyat bila Alyasa’ binni Axtub a. s.g‘a vasiydur. Va bu laqab bila mulaqqab bo‘lg‘anida aqvol ko‘ptur. Bu muxtasarda iki qavl bila ixtisor qililur. Biri ulkim, Alyasa’ning vasoyasig‘a bani Isroilning Tengri taolog‘a dalolat qilmog‘ida Muso a. s. dinining rivojida va «Tavrot» ahkomining ijrosida va ta’limida mutakaffil bo‘ldi. Yana bir qavl ulkim, Tengri taolo bir kofir podshoh da’vatig‘a amr qildikim, oti Kan’on edi. Ul ayttikim, mendin ko‘b isyon voqe’ bo‘lubdur. So‘zung bila iymon qabul qilsam, ne bilaykim Tengri taolo qoshida qabul bormu, yo yo‘q? Magar sen haq taolo rahmatig‘a

kafil bo‘lg‘aysenqim, men ko‘ngul tinchi bila iymon keturgaymen. Zul-kifl a. s. Kan’ong‘a kafil bo‘ldi, kafolat xati bitib berdi. Ul iymon qabul qilib, saltanat tarkin tutub, Tengri ibodatig‘a mashg‘ul bo‘ldi. Chun ajal yetti, ul xatni vasiyat qildikim, aning bila dafn qilg‘aylar. Rivoyat budurkim, haq taolo payg‘ambari kafolati jihatidin Kan’ong‘a rahmat qilib, bihisht nasib qildi. Va bir malakka amr bo‘ldikim, ul xat bila elga zohir bo‘lub, Kan’on bashoratin yetkurdi. Qavm ul holdin mutaassir bo‘lub, iymon qabul qilib, aning risolatig‘a e’ti-rof qildilar. Ba’zi debdurlarkim, e’tirof ahlining iymonlarig‘a ham qabul uchun kafil bo‘ldi. Chun ishi Tengri taolo rahmatig‘a e’timodidin bu nav’ ishlarga kafolat erdi, bu laqab bila mashhur bo‘ldi. Va muddat qavmi hidoyatig‘a ishtig‘ol ko‘rguzub, olami foniyg‘a vido’ qildi.

R u b o i y:

Zul-kifl ishikim, haqqa dalolat erdi,
Haq rahmatidin elga kafolat erdi.
Chun qavmning oyini zalolat erdi,
O‘tti chu zamirig‘a malolat erdi.

Ashmuil a. s. oliy sha’n payg‘ambardur. Zul-Kifl o‘tkandin so‘ngra, necha qarng‘acha bani Isroil orasida payg‘ambar mab’us bo‘lmadn. Va O’diy g‘olib bo‘lub, alarning ahvolig‘a ko‘p futur yuzlandi, va qatl, va asir va toroj ko‘rdilar. Va dushmanlar Sakina tobutidin necha payg‘ambarzoda va malikzoda bila toroj va asir elttilar. Qavm tazarru’ qilib, o‘zlariga bir peshvo tiladilar ersa, Tengri taolo Ashmuil a. s.ni mab’us qildi. Va aning bi’sati zamonida oliy imom Tengri rahmatig‘a bordikim, qavmning qabz va basti aning ilkida erdi. Qavm Ashmuildin podshoh istid’o qildilar. Ul ilhom mujibi bila Shovakni dediki,. Tolutqa mashhurdur, Tengri taolo sizga podshohliqqa taqdir qilibdur. Qavm or qildilarkim, bu vaqtg‘acha saltanat Yahudo naslida erdi va Shovak Ibni Yamin naslidin erdi. Ashmuil a. s. dedikim, taqdir budurkim, aning saltanati vaqti yetkach, Quddus tog‘nki, muddatlardurki taskin topibdur, o‘tsiz qaynay boshlag‘ay. Va Sakina tobutikim, qarnlardur g‘oyib bo‘lg‘oli, oshkoro bo‘lg‘ay. Va hol ulkim, bular vuqu’ topti va Ashmuil a. s. Tolutni saltanat amrig‘a mansub qildi, Qavm dog‘i qabul qildilar. Va ul vaqtda Falastin mulki Jolutning istilosidin bani Isroil ul yerg‘a yetib erdikim, borcha zulm ko‘rarlar erdi. So‘ngra alarg‘a jizya ta’yin qilib erdi, Ashmuil a. s. Tolutnis Jolut daf’ig‘a amr qildi. Va Tolut sekson ming cherik bila Falastin mulkiga azimat qildi. Va aning sipohi Jolut vahmidin biyobonda suvsizlig‘u isig‘ havo shiddatidin mutafarriq bo‘lub, uch yuz o‘n kishi bila Jolutqa yetishti. Va Jolut aning olida sipoh tuzatmakka or qilib, yolg‘uz maydong‘a kirdi. Va Tolut Dovud a. s.g‘a qizin berur va’dasin qildi va anga o‘tru yibordi. Dovud a. s. Jolutni halok qildi. Va Jolutni ham Kalbos derlar. Bani Isroil fath topib, Jolut azim cherikining amvolin tasarruf qildilar. Va Ashmuil a. s.ning yoshi ellik ikkiga yetkanda olamdin o‘tti. Va o‘n iki yil qavm orasida nubuvvat qildi. Va marqadin derlarki, Sovadadur, vallohu a’lam.

R u b o i y:

Chun qavmg‘a Ashmuil bo‘ldi hodi,
Jazm o‘ldi anga rasulluq isnodi.
Elga qilibon haq yo‘lining irshodi,
Azm etti, chu yetti umrining mi’odi.

Dovud binni Iysho a. s. Yahudo avlodidindur. Aning zikri ijmoli bila o‘tti. Juzviy tafsil zarurdur. Ashmuil a. s. zikri dog‘i aning zikrida lozim kelur. Va Dovud a. s. ahvolining tafsili bukim,, Iyshoning o‘n uch o‘g‘li bor erdi. Dovud a. s. Borchadin kichikroq erdi va haqir jussaroq erdi va girih manzarroq

erdi va Iysho ani shubonliqqa ta’yin qilib erdi va anga ajib holot mushohada bo‘lur erdi. Chun Ashmuil a. s. Kalbos urushig‘a Tolutni muqarrar qildi, vahy keldikim, Jolutning qatli Iysho avlodidin ul birining ilikidadurkim, falon zirih aning bo‘yig‘a rostdur. Ashmuil a. s. Iyshoning avlodidin tilab, o‘n iki og‘oinining bo‘yig‘a rost kelmadi, Iyshog‘a aytti: yana o‘g‘lung bor esa, keltur! Iysho ayttikim, bir o‘g‘lum borkim, qo‘y kutar. Ammo anga bu ish qobiliyati no‘qtur va ani tilamak befoydadur. Ashmuil a. s. aning so‘rog‘in so‘rub, borib topti. Qo‘yin suvdin o‘tkaradur erdi, suv ulug‘roq jihatidin qo‘ylarni ikirar-ikirar ko‘torib o‘tkarur erdi, Ashmuil a. s. ko‘rgach, bildikim, nubuvvat shafqatining osoridur. Aning bila muloqot qilib dedikim, sanga o‘z ahvolingdin g‘aribosor hech ma’lum bo‘lurmu? Dovud a. s. aytti: bo‘lur. Sharhini so‘rdi ersa, ko‘p g‘arib osor bayon qildi. Ul jumladin biri bukim, keldikim, bir tosh maning birla takallum qildikim, men ul tosh menkim, maning bila Horun a. s. falon dushmanini halok qildi. Va men ul toshni olib to‘brag‘a soldim. Yana iki tosh ham ushbu dastur bila biri Muso a. s, biri Ibrohim a. s. dushmanini o‘lturubbiz, bizni dag‘i ko‘tor, deb ayttilar. Alarni ham to‘brag‘a solib, solg‘ondin so‘ngra ucholasi tosh bir bo‘ldi. Ashmuil a. s. Dovud a. s.g‘a nubuvvat va saltanat bashoratin berib, Tolut qoshig‘a kelturdi. Va Tolut kuyovliki va mulk sherkati va’dasi berib, Dovud a. s. Jolut maydonig‘a kirib, ul toshni anga otib, qodir qudrati bila ani halok qilib Jolut bani Isroilg‘a mag‘lub bo‘ldi, Va Dovud a. s. Tolut va’dalarig‘a vafo tiladi. Tolut ko‘p xizmat buyurg‘ondin so‘ngra, qizin anga berdi. Va bani Isroil qoshida Dovud a. s. ning izzu sharafi ortti. Va Tolut vahmdin pushaymon bo‘lub, Dovud a. s. qasdig‘a bel bog‘ladi. Dovud a. s. andin qochib, maxfiy yurur zrdi. Tolut ko‘b kishi aning topmog‘ig‘a ta’yin qilur erdikim, o‘lturgay. Bani Isroil ulamo va ahborini qatlg‘a yetkurdikim, bu toifadin hech kishi qolmadi. Va bu ish vuqu’idin so‘ngra nodim bo‘lub, parishon hol go‘ristonlar kezar erdikim, ne qilsam tengrk taolo tavbamni qabul qilg‘ay. Bir mustabojud-da’va zaifa qolib erdi, anga tavassul qilnb, holin dedi. Ul Ashmuil a. s. qabri boshig‘a borib, duo qildi. Ashmuil a. s. qabridin chiqib ayttikim, oni jihod qilsangkim, o‘n o‘g‘lung ilayingda shahid bo‘lsalar, so‘ngra o‘zung shahodat topib, Tengri taolo tavbangni qabul qilg‘ay, deb yana qabrig‘a kirdi. Va qabr butti. Va Tolut Ashmuil buyurg‘onini bajoy kelturub, bani Isroil andin xalos bo‘ldilar. Bu holdin so‘ngra, Dovud a. s. nubuvvat baland poyasi bila saltanat piroyasig‘a musharraf bo‘ldi. Va aning sha’nida bu oyat keldikim, «Yo Dovudu inno jaa’lnoka xalifatan fil arzi fahkum baynannosi bil haqqi»[41].

Va derlarki azimati bir yerga yettikim, to‘rt ming kishi kecha anga nigohbonlig‘ qilurlar erdi. Va mu’jizotidin biri hasan savtdurkim, Tengri taolo anga nasib qildi. «Zabur»ni anga irsol qildikim, qachon ul savt bila «Zabur»ni o‘qusa erdi, vahshu tayr, jinu ins yig‘ilib, behol bo‘lurlar erdi. Va ul gohlar o‘zga libos kiyib, ani tonimas eldin istifsor qilur erdikim, Dovud sizing bila nechuk maosh qiladur. Bir kun anga masmu’ bo‘ldikim, Dovud a. s.ning aybi budurkim, baytul-moldin maosh o‘tkaradur. Mutaassir bo‘lub, Tengri taolodin bir san’at istid’o qildikim, vajhi maosh andin hosil qilg‘ay. Tengri taolo zirhgarlik. san’atin anga karomat qildi. Yana bir mu’jizasi bu erdikim, zirhgarlikka hojati ifzor yo‘q erdikim,, temur ilikida mumdek yumshar erdi. Yasalg‘ondin so‘ngra o‘z holig‘a borur erdi. Rivoyatdurkim, har qachon Dovud a. s. tasbih va tahlilg‘a mashg‘ul bo‘lsa erdi tog‘u tosh va davobu ashjor aning muvofaqatig‘a tasbihg‘a ishtig‘ol qilurlar erdi. Va ul avqotin to‘rt qism qilib erdi. Bir kun ulamo bila suhbat tutub dars va ta’limg‘a mashg‘ul bo‘lur erdi. Va yana bir kun quzzo masnadig‘a o‘lturub, xaloyiq qazoyosin bir-birdin o‘tkarur erdi. Yana bir kun o‘z haramlari bila zist qilur erdi. Yana bir kun munojotda der erdikim, yorab, saning hazratingda ne nav’ maosh qilsamkim, sanga mustahsan tushgay? Xitob kelur erdikim meni ko‘p yod qil va men sevgailarni sev, xaloyiqqa o‘z nafsingg‘a hukm qilg‘ondek qil va g‘oyib qardoshing farroshidin muhtariz bo‘l!

Manquldurkim, bani Isroil ulamosi bir kun dedilarkim, oyo, hech bandag‘a bir kun o‘tgaymukim, andin zillati vujudqa kelmagay? Dovud a. s. dedi: shoyad mendin ibodat qilur kun kelmagay. Va bu xiyol bila ibodat kuni ishga mashg‘ul bo‘ldi. Ko‘rdikim, bir g‘arib ranglik farishta, kabutar chiroyliq erdi, ravzandin kirib, aning qoshinda qo‘ndi. Dovud a. s.g‘a qil-g‘on xiyolin unututturdilar. Ul qushni tutarg‘a mayl qilg‘och, ul qush ravzandin chiqib, tomg‘a qo‘ndi. Dovud. a. s. ani tutmoqg‘a tomg‘a

chiqti. Haryon ko‘z solurdakim, qush qayon bordi ekan, ko‘zi savmaasi yonidag‘i bir bo‘stong‘a tushtikim, bir jamila g‘usl qiladur erdi. Xotiri bag‘oyat moyil bo‘ldi. Tafahhus qilg‘ondin so‘ngra bildikim, Uryoning mankuhasidur. Va Uryo Dovud a. s.ning Savob otlig‘ inisi bila Balqo shahrining muhosarasi mashg‘ul erdi. Va qavmda mutaayyin kishi erdi. Dovud a. s. Savobqa noma bitib, dushvor ish Uryog‘a ruju’ qildikim, Uryo ul harbda shahid bo‘ldi.. Va Dovud a. s. ul zaifaning iddati o‘tkondin so‘ngra nikoh qilmoq bo‘ldi. Va hamonoki, Dovud a. s.ning to‘qson to‘quz harami bor erdi. Ul zaifa dedi: bu sharg bila qabul qilurmenkim, mendin o‘g‘lung bo‘lsa, valiahding bo‘lg‘ay. Dovud a. s. qabul qilub, ani quldi. Sulaymon a. s.ning onasi uldurkim, nubuvvat va saltanat Dovud a. s. din so‘ngra anga yetti. Va muddate Dovud a. s. ni Tengri taolo qilg‘on xatosig‘a olim; qilmadi, to bir kun xilvatida toatqa mashg‘ul erdikim, ilayida necha kishi hozir bo‘ldi. Va bu ish g‘ayri ma’hud erdi. Dovud a. s. so‘rdikim, ne xalqsiz? Alar dedilar, qo‘rqma. «Qolu lo taxaf, xasmoni bag‘o ba’zuno alo ba’zin fahkum baynano bil haqqi valo tushtit vahdino ilo savois-sirot»[42].

Dovud a. s. xusumatlaridin so‘rdi. Alardin biri yana biridin shikoyat qildikim, to‘qson to‘quz qo‘yi bor. Va mening bir qo‘yum bor erdi, mendin tama’ qilib, ul qo‘yumni oldi. Dovud a. s. ayttikim, mundoq bo‘lsa, sanga zulm qilibdururlar. Alar tabassum bo‘lub dedilar: Qazo-ar-rajulu alo nafsihi»[43]. Va g‘oyib bo‘l-dilar. Dovud a. s. bildikim, alar maloyika erdilar. Va Dovud a. s. o‘z qilg‘on ishining qabohatidin xotirig‘a kelib, dud boshig‘a oshti. Va bu xatosi uzrig‘a qirq kun sajdadin bosh ko‘tarmadi. Navha bila o‘z holig‘a yig‘lab tazallum qildi. Jabrail a. s. kelib, baxshish bashoratin kelturub dedikim, Uryoning rizosin hosil qil, Tengri taolo karami bila xud guno-hingdin o‘tti.

Dovud a. s. Jabrail ta’limi bila Uryo qabri boshig‘a borib, Uryodin talabi afv qildi. Haq taolo Uryo tanig‘a ruh kiyurub, Dovud a. s. ani qatlg‘a amr qilg‘onin afv qilib, mankuhasin nikoh qilg‘oli jihatidin javob bermadi. Dovud a. s. boshig‘a tufroq sovu-rub, jaza’ bunyod qildi ersa, xitob keldikim, sen xotnringni jam’ tut, biz chun gunohinpsh bog‘ishla-duq, qiyomat kuni Uryog‘a oncha javr va qusur karomat qilolikim, ul ham seni buxl qilg‘ay. Dovud a. s. ko‘ngli ul ishtin itmiynon topti. Va bu voqeadin so‘ng, o‘tuz yil hayotda erdi. Rivoyatdurkim, Dovud a. s. tazallumi va munojoti chog‘ikim, mulk ishidin parvoyi qolmaydur erdi, o‘g‘li Shalum Arozil va Avbosh ig‘vosi bila mulk ishiga daxl qilib, istiqlol ko‘si urdi. Chun Dovud a. s. gunohi afv bo‘lub, mulk ishiga shuru’ qildi, Shalum vahmdin firor ixtiyor qildi. Va Dovud a. s. Savobni aning daf’ig‘a yiborib dedikim, iliklasang, ani qatl qilmag‘aysen. Savob ani tutqoch, oxir qildi. Dovud a. s. ranjida olamdin o‘tdi. Utar chog‘da, Sulaymon a. s.g‘a aning qasosin buyurub, Sulanmon a. s. ul amrni bajo kelturdi. Va bu vaqtda bani Isroil ul nav’ qolin bo‘lub erdikim, adadin kishi bilmas erdi. Tengri taolo alarni toun marazi bila kam qildi.

Manquldurkim, uch kecha-kunduzda yuz yetmish ming kishi alardin Tengri taolo hukmin butkordilar. Bu holatda Dovud a. s. va qavm, ulamo va ahbori Baytul-muqaddasning sahrosi ustiga kelib, boshlarin yalong qilib tazarru’ qildilar. Haq taolo ul baloni daf’ qilg‘och, Dovud a. s. qavmning qolg‘onig‘a buyurdikim, bu yerda Tengri taolo shukrig‘a bir ma’bad bino qi-lingkim, hamisha shukr adosig‘a ibodat qilg‘aysiz. Va qavm aning buyrug‘i bila masjidi Aqso imoratin bino qildilar. Yorimig‘a yetkondin so‘ng, Dovud a. s. bir rivoyat bila, yuz yigirmi yashab erdi, Tengri taolo rah-matig‘a bordi. Va xilofat va valiahdi Sulaymon a. s. erdi, o‘z saltanati zamonida ul binoni tugotti.

R u b o i y:

Dovudki, shoh erdi va payg‘ambari pok,
Johi qoshida past edi avji aflok.
Jonig‘a ajal urarda tig‘i be bok,
Naf’ etmadi shahlig‘u nubuvvat xoshok.

Sulaymon binni Dovud a. s. andin mashhurroqdurkim, ahvoli ko‘b sharhqa ehtiyoj bo‘lg‘an, ammo juzviy tafsildin chora yo‘qdur. Ul duo qildikim, «rabb ig‘firli va habali mulkan lo yanbag‘i li

ahadin min ba'di»[44]. Har oyina duosi mustajob bo‘lub, bovujudi nubuvvat, ba'zi debdurlarkim bo vujudi ulkim, rub'i maskun saltanatini Tengri taolo anga nasib qildi, bovujudi bu saltanat jinu ins va vahshu tuyurni aning mahkumi amri qildi. Va yelni farmonig‘a kiyurdi va ismi a'zam yozilg‘an xotam karomat qildikim, mazkur bo‘lg‘onlar aning barakotidin. Ul buyur-g‘onni qildilar. Va ul bir bisot yasattikim, jami' xalq sipohi aning ustida sig‘ar erdi. Qayon borsa, elga amr qilur erdikim, bu bisot bila xalqini aning bila eltur erdi. Va mashhurdurkim, saboh Shomdin azimat qilib, choshtni Istaxrda yer erdi. Andin azimat qilib, shom taomin Qobulda ixtiyor qilur erdikim, «valisulaymonar-riha g‘uduvvuho shahrun va ravohuho shahrun»[45] aning sha'nida nozil bo‘lubdur.

Dovud a. s.din so‘ngrakim, masjidi Aqso binosili Sulaymon a. s. tugatti va aning asnosida Baytul muqaddas shahrini ham yasadi. Va shahri azamatida va masjid zebida ahli tarix g‘arib mubolag‘alar qilibdurlar. Ul jumladin biri bukim, shahrg‘a o‘n iki qo‘rg‘on biri-birining davrig‘a yo‘ng‘on toshtin yasatti. Yana biri bukim, masjidni yeti rang toshdin tugotib, qiymati javohir bila murassa' qildi. Va ushoq tosh o‘rnig‘a hamul javohirdin to‘kturdi. Va ul uyda amr qildikim, hargiz ibodatdin va ulamo ilmi ta'limidin xoli bo‘lmag‘ay. Va Baytul-muqaddas va masjidi Aqso ko‘b qarilar bu dastur bila ma'mur erdi. Vayronlig‘i Buxtun-nasrdin erdi, shoyadki o‘z yerida kelgay.

Va Sulaymon a. s. vahshu tayr tilin Tengri taolo inoyatidin bildi. Bir maydoni murabba'kim har zal'i-o‘q iki yig‘och bo‘lg‘ay, farsh tushotib erdikim, xishtining biri oltun, biri ko‘mush erdi. Bir jonib taxtinkim, javohir bila murassa' erdi qo‘yarlar erdi. To‘rt ming oltun kursi taxtining iki yonida qo‘yarlar erdikim, bani Isroil ulamo va ahborin o‘ltururlar erdi. Va taxtqa yoqin Osifi Burxiyoki vaziri erdi, aning kursisin qo‘yarlar erdi. Va Sulaymon a. s. tulu'din g‘urubqacha «mo xalaqa illo»[46] qoziyasin surub, hukmin qilur erdi. Va devu pari va vahshu tayr xizmatida turarlar erdi. Va isig‘ havoda tuyur boshi ustida soya qilurlar erdi. Va oqshom uyiga azimat qilg‘och, zanbalboflig‘din hosil qilg‘on nima bila ro‘za ochar erdi. Bir kun aning hukmi bila yel mazkur bo‘lg‘on bisotni va farshni eltib boradur erdi. Vodiyun-Namlg‘a yettikim, ba'zi ani Toyifi Hadido debdurlar. Va mo‘r xaylining shohi sipohig‘a amr qil-dikim, Sulaymon sipohi bila o‘tadur. Maskaningizga kiringkim, sizga ul sipohdin zarare yetmagay. Sulaymon a. s. ul amrdin voqif bo‘lub, anda tavaqquf qilib, ul mo‘rni ovuchig‘a olib, aning bila mukolama qildi. Biri muni so‘rdikim, xaylingni bizing ostimizdin tanbih qilding, bilmassenmukin, bizing oyog‘imiz ostida mo‘r ozurda bo‘lmas. Mo‘r dedikim, yo nabiyulloh, sendin xotirjam'durman, ammo shoyad saning shuurung bo‘lmagay, xanlingdin osib yetkay, deb tanbih voqe' bo‘ldi. Va rayosat sharti nomar'iy qolmadi. Sulaymon a. s. dedikim, mandin azimush-sha'nroq maxluq bilurmusen? Dedikim, sendin azimush-sha'nroq mendurmen. Sening taxting bir jamoddur. Mening taxtim saning muborak ilkingdur. Sulaymon a. s. dedi: saning sipohing ko‘prak ekan yo maning? Mo‘r dedn: Maning. Sulaymon a. s. dedi: Maning sipohim adadin kishi bilmas. Mo‘r amr qildi, yetmish ming mo‘r xayli chiqtilarkim, bir xaylning adadin kishi bilmas erdi. Sulaymon a. s. ul ishtin ibrat olib, mo‘r Sulaymon a. s.ni chekurtka ayog‘i bila ziyofat qilib, Sulaymon a. s. mo‘rg‘a navozishlar qilib, ul yerdin o‘tti. Manquldurkim, Sulaymon a. s.ning hashamati nihoyatqa yetkondin so‘ngra, muddao qildikim, har maxluqnikim haq taolo aning mahkumi qilibdur, borchasin ziyofat qilg‘ay. Munojot qilib ruxsat ham topti. Bir biyoboni vasi' azim toptikim, bir tarafi daryo erdi. Devlarga buyurdikim, iki ming yeti yuz qozon yasadilarkim, har qaysisining davrasining qutri ming qari erdi.

Banokatiy tarixida debdurkim, yigirmi iki ming o‘y zibh bo‘ldi. Uzga borcha ashyoni mundin qiyos qilsa bo‘lg‘ay. Bu ma'kulot necha vaqtdin so‘ngkim tugandi. Ul dashtda yoydilar va borcha maxluqotqa salo urdi. Va bu asnoda Tengri taolo bahr davobbidin bir dobbani suvdin chiqordi. Va ul dobba Sulaymon a. s.g‘a dedikim, sen maxluqotni ziyofat qiladur emishsen, bu kun rizqimni haq taolo saning xoningga havola qi-libdur. Sulaymon a. s. dedi, bu taomlardnnkim yoyilibdur, ulcha sanga kofiydur, yegil. Ul dobba ul muddatda pishkon taomni tamom yeb to‘ymay, Sulaymon a. s.din nima tiladi. Sulaymon a. s. ojiz bo‘ldi. Dobba dedikim, saboh bir rizqimdin sulsi yeyildi, yana iki sulsi qolibdur. Sulaymon a. s. dedi: Magar sen Tengri taolo xon arzoqidin to‘yg‘aysen. Dobba dedikim; yo

Sulaymon, sen muni bilmasmu erdingkim, Tengri taolo maxluqotin magar o‘z xoni karamidnn to‘yg‘ozg‘ay, bu nav’knm meni ko‘rdung. Bu bahrda Tengri taolo andoq jonivorlar yaratibdurkim, har biriga iki mendekni tu’ma qilibdur. Sulaymon a. s. Tengri taolo sun’ng‘a ofarinlar qilib, o‘z qilg‘onidin munfail bo‘lub, haq taolo qoshida ajzig‘a e’tirof qildi, afvu ma’rifat tiladi. Tengri taolo aning matlubini anga yetkurdi. Ul tanbih bo‘ldi. Manquldurkim, Sulaymon a. s. tuyurdin har birini bir ishga ta’yin qilur erdi. Hudhudni suv topmoq amrig‘a muqarrar etib erdikim, taxti yiliga biyobonlarg‘a guzar qilurda suv darboyist bo‘lur erdi. Bir kun suvg‘a ehtnyoj bo‘lub, Hudhud topilmadi. Sulaymon a. s. suvg‘a buyurdikim, ani hozir qilg‘ay. Ul hozir qilg‘och, Sulaymon a. s. xitob qildi, g‘azab bilakim, qayon borib erding? Va hol ul-ki, Hudhud bir zamon mulozimatdin forig‘ topib, sayr uchun tayron qilib, bir shahrg‘a ko‘zi tushub erdikim, oti Sabo erdi va podshohi Bilqis otlig‘ xotun erdi. Va aning ahvolining kayfiyatin mashruh bilib kelib erdi, Sulaymon a. s. so‘rg‘och, arz qildikim, bu nav’ shahrg‘a yettim va bu nav’ podshohi bor. G‘oyat husnu jamol va nihoyati husnu kamol va salotindin munfarid va millati oftobparastlig‘. Otasi Sharohil Ya’rib binni Qahiton naslidin va onasi Rayona jinikim, jin shohining qizi bo‘lg‘ay. Va muning asnosida oncha ta’rif qildikim, Sulaymon a. s.g‘a aning muloqoti mayli bo‘lub, maktub bitdikim, islom davlatig‘a musharraf bo‘lsunki, «Innahu min Sulaymona va innahu bismillohir-rahmon-ar-rahimi allo ta’lu alayya va’tuni muslimina»[47] andin muxbirdur. Va bu nomani Hudhudqa berib, Sabo shahrig‘a yibordi. Va noma Bilqisqa yetkondin so‘ngra, Bilqis taammul bila to‘rt kirpich ikisi oltun, ikisi kumush, dog‘i bir muhrlik durj va yuz qiz va o‘g‘ul – barisin borchasig‘a eranlar libosi kiydurulgan orasta qilib, Manzar binni Umarkim, aql va kayosatlig‘ kishi erdi, bu nimalar bila Sulaymon a. s. hazratig‘a yibordi. Dog‘i dedikim, agar xishtlarni qabul qilur va sening bila istig‘no yuzidin muloqot qilur, payg‘ambar emas va agar aks qilur, payg‘ambardur. Andin so‘ngra o‘g‘lonlarni qizlardin ayirsun, dog‘i huqqada ne nima erkanni desun va degondin so‘ngra yetishmokin ham aytsun. Manzar mutavajjih bo‘lub, Sulaymon a. s.g‘a Jabrail a. s. kelib, ul ishlardin xabar berdi. Sulaymon a. s. mazkur bo‘lg‘on ul o‘n iki yig‘och oltun, ko‘mush, xisht to‘shagon yerda sipohini orasta qilib, Manzarning yo‘lida to‘rt xisht o‘rnini ochuq qildilar. Manzar bu hashamatni ko‘rub, hayron qolib, o‘z kelturgon tuhfasidin sharmanda bo‘lub, hamul ochuq qolg‘on to‘rt xisht o‘rnig‘a qo‘yub, Sulaymon a. s. hazratig‘a keldi. Ochuq yuz bila e’zozu ikrom qilib buyurdnkim, tuhfakim kelturub erding, ne uchun tashlading? Ani qabul qilmasbiz, qoytib Bilqisa aytkim, iymon qabul qilsun. Va inosni zukurdin ayirdi va durj ichinda dedikim, yoquti nosuftadur. Ani chiqorib buyurdikim, olmos bila sufta qilsunlar. Chun Manzar Bilqis xizmatig‘a ko‘rgonlarin arz qildi, Bilqis Sulaymon a. s. xizmatig‘a mutavajjih bo‘ldi. Bir yig‘och yoqin yetkonda Sulaymon a. s.g‘a xabar bo‘ldi. Va mazolim devonida o‘lturub, dedikim, bo‘lg‘ayki Bilqisning taxtin Sabo shahridin bot kelturgay. «Qola ifritun minal jinni ana otika bihi qabla an taquma min maqomika va inni alayhi laqaviyyun amin»[48]. Sulaymon a. s. dedikim, mundin botroq kerak. Yana bir jin dedikim, ko‘z yumub – ochquncha kelturay. Sulaymon a. s. qilg‘on da’viysi bila hozir qildi. Va ul taxtni Bilqis yeti o‘tlosh uy ichinda qo‘yub, borchasin muqaffal qilib erdi, Sulaymon a. s. buyurdikim, o‘z taxti ustida qo‘ydilar. Bilqisqa bor bo‘ldi va o‘z taxti go‘shasida yer berib, iltifotlar qildi. Bilqis o‘z taxtini ko‘rub, mutaajjib bo‘lub, Sulaymon a. s.ning nubuvvatig‘a shaki qolmadi. Va Sulaymon a. s. Bilqisni o‘z qiz-qardoshi qoshida tushurdi. Necha kunluk musohabatdin so‘ngra, mezbon mehmonning xasoyili hamidasin ta’rif qilib, Sulaymon a. s. Bilqisni o‘z nikohig‘a tortti. Va aning muborak ayog‘ida tuk bor erdn. Aning jihatidin devlar hammom binosin qilib, to‘ra tarkibi bila ul ishning iloji qildilar. Va ul sohibi davlat jihatidin necha ming yildurkim, xaloyiq hammom osoyishig‘a musharrafdurlar, ta’rifdin mustag‘niydur. Sulaymon a. s. fitnasi «Qolallohu taolo: va laqad fatanno Sulaymona va alqayno alo kursiyyihi jasadan summa anoba»[49]. Sulaymon a. s. fitnasi sharhida muxtalif rivoyat bor. Ammo ulcha bu muxtasarg‘a munosibdur yozilur. Ba’zi debdurlarki, bovujudi yeti yuz haram va uch yuz surriyat Tengri taolo Sulaymon a. s.g‘a bir o‘g‘ul berdikim, bir ko‘zi ko‘r va bir iliki va bir oyog‘i yo‘q erdi. Sulaymon a. s. va Bilqis va Osaf insof yuzidin o‘zlarining uyubig‘a mu’tarif bo‘lub, duo qilg‘och ul tiflni haq taolo tandurust qildi va aning muhofazati uchun Sulaymon a. s. jinlarni ta’yin qildi. Tengri taolo aning o‘z o‘g‘lini soyir atfoldin

mumtoz qilib, pisandida tushmay, Azroilg‘a amr bo‘ldnkim, ruhin qabz qilib, jasadin Sulaymon a. s.ning taxti ustida tashladilarkim, «Va alqayno alo kursiyyihi jasadan»[50] maqsud mundin bo‘lg‘ay. Va Vahb binni Munabbih bila ibni Abbos Raziyallohu anhumo debdurlarkim, Sulaymon a. s.ning fitnasi intizoi erdi. Va jasad iborati Sixrbord otlig‘ devdin erdikim, aning taxti ustiga aning surati bila qirq kun mutamassil bo‘ldi. Va bu ish kayfiyati bu erdikim, Sulaymon a. s. kim, Jazira mulukidin birinkim, otin Saydun debdurlar va butparast erdi o‘lturdi. Qizinkim malohat zevari bila orosta erdi qo‘ldi. Ul qiz otasi firoqida betoqat erdi, Sulaymon a. s. aning davosin tilab topmas erdi. Ul qiz shayton ig‘vosn bila Sulaymon a. s.g‘a iltimos qildikim, devlar otam shakli bila bir surat yasab keltursalarkim, gohi ani ko‘rub ko‘nglumga tasalli bo‘lsa, aning muddaosi maqbul tushub, bu ish surat tutti.

Chun qiz burun butparast erdi, bu suratni parastish qila boshladi. Sulaymon.a. s. g‘ofil va bu ish Osafg‘a yetti. Osaf Sulaymon a. s. majlisida anbiyoyi sobiqning na’tin qilurda, Sulaymon a. s.ning otasi zamonig‘acha tufuliyyat anyomi maoshining ta’rifin qildi. Sulaymon a. s.g‘a bu dushvor keldikim, muncha g‘arib inoyatlarkim, anga Tengri taolo saltanati ayyomida nasib qildi. Osaf alardin nechuk nima demadi. Osafdin istifsor qilg‘och, ayttikim, birovningkim qirq kun uyida butparastlig‘ bo‘lg‘ay, anbiyo zumrasida ne nav’ ta’rif qilsa bo‘lg‘ay. Sulaymon a. s. so‘rub bilgandin so‘ngra, ul butni ushotib, o‘zi tazarru’g‘a tushti. Bu asnoda mustarohg‘a kirarda ma’hud tariqi bila xotamni Jaroda otlig‘ kanizakka topshurdi. Mazkur bo‘lg‘on dev Sulaymon a. s. surati bila kelib, kanizakdin xotamni olib, Sulaymon a. s. taxti ustiga chiqib, hukm qila boshladi. Sulaymon a. s. chiqib xotamni tilagach, shaklin ham Tengri taolo mutag‘ayyir qilib erdi, kanizak ani tanimadn. Dedikim, xotamni Sulaymon oldi, sen ne kishisen? Sulaymon a. s. o‘z surati bilan birovni taxtida ko‘rgach, bildikim, hol nedur. Shahrdin chiqib, shahrda sargardon yurur erdi. Qayon borsa, ne kishisen? – deb so‘rsalar erdi, men Sulaymonman, der erdi. Ani telba deb, tosh otib, boshig‘a tufroq sochib, iyzo qilurlar erdi. Va devi la’in taxt ustida noma’qul va nomashru’ hukilar qilur erdi. Mutaajjib va mutag‘ayyir bo‘lg‘ondin so‘ng, dev bildikim, qiladurg‘on ish aning ishi emas. Ul xotamni daryoga tashlab, g‘oyib bo‘ldi.

Va Sulaymon a. s. ro‘zi jihatidin daryo qirog‘inda bolig‘chilarg‘a muzdurluq qilur erdi. Ul xotamni bir bolig‘ yutub, alarning domig‘a tushub, Sulaymon a. s. muzdig‘a berdilar. Sulaymon a. s. bolig‘ ichidin xo-tamni olib, yana saltanat taxtig‘a bordi.

Va bu voqea hamul butparastlig‘ ayyomi bila muvofiq qirq kun va Jasadni ba’zi mufassirlar. bu devdin ta’bir qilibdurlar. Va aning g‘aroyib e’jozin bir gunash raddidurkim, mujmalan o‘tti. Va sharhi budurkim, osorini ko‘rarga mashg‘ul erdikim, gunash botti va muborak xotirig‘a asr namozi favt bo‘lg‘on uchun iztirobg‘a tushti. Tengri taolo gunashni qaytarib, ul hazrat namozin qilg‘uncha o‘z yerida turg‘uzdi. To namoz tugondi, yana g‘urub qildi. Tarix ahli debdurlarkim, Sulaymon a. s.ning savmaasining eshikida har kun g‘aybdin bir daraxt paydo bo‘lur erdi va xosiyatin Sulaymon a. s. so‘rar erdi. Bir kun bir daraxt paydo bo‘ldi va xosiyatin so‘rg‘och, javob berdikim, xosiyatim sening mulkungga vayronlig‘dur. Sulaymon a. s. bildikim, vaqt yetibdur. Vasiyatlar kitobat qildi va Tengri taolodin iltimos qildikim, aning favtin dev va paridin necha vaqt maxfiy tutqay. Va shishadin bir uyi bor erdikim, anda toat qilur erdi. Ul uyga kirib, asosig‘a tayonib olamdin o‘tti. Va xaloiq ko‘rar erdikim, Sulaymon a. s. asosig‘a tayonib turubdur. To muddatlardin so‘ngra, asosin qurt yeb usholdi. Va ul hazrat yiqilg‘ondin el favtin bildilar va aning mavtidin ixfosi iltimosida so‘zlar debdurlar. Yaxshiroq budurkim, Baytulmuqaddas tuganmoki hamoncha fursat maqsud erdikim, aso butun erdi, tugagondin so‘ngra aso sindi va devlar ul ishni tugotib erdilar. Vallohu a’lam.

R u b o i y:

Olamni Sulaymong‘a haq etmish ma’mur,
Hukmi soldi jinu bashar xaylig‘a sho‘r.
Oxir chu ajal anga maqom ayladi go‘r,
Tufroq ichida qildi vatan uylaki mo‘r.

Luqmoni hakim. Tarix ahlidin ba’zi ani hukamo silkida mazkur qilibdurlar. Va ko‘prak el ani payg‘ambar debdurlar. Va ba’zi rivoyatda mundoqdurki, Tengri taolo nubuvvat va hikmat orasida muxbir qildi. Har taqdir bila «Va laqad otayno luqmonal-hikmata»[51] aning sha’nidadur. Bo‘la olurki, bovujudi nubuvvat hikmat dag‘i anga nasib bo‘lmish bo‘lg‘ay. Rangi qaro erkandur. Dovud a. s. suhbatig‘a musharraf bo‘lur erdi. Va andin ko‘b g‘aroyib vujud tutar erdi. Ba’zi debdurlarki, qul erdi va ozod bo‘lg‘onida muxtalif rivoyat bor. Biri bukim, xojasi bir rud qirog‘indi birov bila nard o‘ynadi, bu shart bilakim, mag‘lub bo‘lg‘on bu rud suyin tamom ichgay yo molin bergay. Va Luqmonning xojasi utkuzdi. Harif rudxona suyin tamom ichmak taklif qildi. Va ul mutahayyir bo‘ldi. Luqmon dedikim, shart qiladurg‘on vaqtdag‘i suvni hozir qil yo g‘arazing bu hozir suv bo‘lg‘on bo‘lsa, rudning bu qirog‘indag‘n suvni ichkuncha nori qiro-g‘indag‘i suvni turg‘uz. Harif bu ishdin ojiz bo‘ldi. Xojasi xalos topib, Luqmonni ozod qildi. Yana biri bukim, xojasi anga buyurdikim, qo‘y o‘lturub, yaxshiroq: uzvini pishurub keltur. Ul yurokini tili bila pishurub kelturdi. Yana bir qotla dedikim, qo‘y o‘lturub, yomonroq uzvini pishurub keltur. Hamul iki uzvdin kelturdi. Xoja nuktasin so‘rdi ersa, dedikim, ko‘ngul: noshoyista af’oldin va til noboyista aqvoldin biri bo‘lsa, alardin yaxshiroq uzv yo‘qtur va agar bo‘lmasa, alardin yomonroq yo‘q. Yana biri bu kim, xoja anga buyurdikim, kunjid ek! Ul arpa ekti. Xoja so‘rdikim, arpa ekib, kunjid nechuk toparsen? Dedikim, chun sen noshoyist ish qilib, nechuk Tengri taolodin rahmat va jannat tama’ qilursen, men ham dedim: arpa eksam, kunjud shoyad bar topqaymen. Xoja mutanabbih bo‘lub, ani ozod qildi. Duo qilib, uch ming yil umr topibdur. Ba’zi yeti Kargas umri debdurlarki, har biri besh yuz yildur, aning so‘zlaridindurkim, to‘rt ming so‘z. bitibdurlar va to‘rt so‘z bila ixtisor qilibdurlar. Ikisini doyim yod qilmoq kerak va ikisini unutmoq kerak. Burung‘i ikidin biri o‘zi qilg‘on yaxshilikdur va biri g‘ayri qilg‘on yomonlig‘.

Luqmonning g‘arib holoti va nofi’ maqoloti ko‘ptur. Bu muxtasarda muncha bila qanoat qilildi.

R u b o i y:

Luqmonniki ba’zi dedilar payg‘ambar,
Ba’zi dedilar hakimi pokiza siyar.
Uch ming yashabon bu dayrni qildi maqar,
Ming muncha ham o‘lsa, qilg‘uluqdur bu safar.

Yunus binni Mato a. s. otasi oti bila mashhurdur. Otasi Dovi binni Ya’qub a. s. naslidindur, mursal. payg‘ambardurkim, «qolallohu taolo va inna Yunusa laminal mursalin»[52]. Agarchi Sulaymon a. s. zamoni-din anga degincha, balki Sulaymon a. s. avlodidin erdi, ammo chun hech tarixda marbut topilmadi. Yunus a. s. chun Sulaymon a. s.din so‘ngra, mursal payg‘ambar erdi, andin boshlandi. Ani Tengri taolo mab’us qilib, Suy eliga yibordi. Va Suy eli ani nubuvvatga takzib qilib, Yunus a. s. g‘azab qildi va xalqig‘a yomon duo qildi. Va ruxsati ilohi bo‘lmay, ahlu ayoli bila xalqning orasidin chiqib, alardin andoq maxfiy bo‘ldikim, agar Tengri taolodin qavmig‘a balo kelsa, ani duo qilurg‘a topmag‘aylar. Tengri taolo xotimal-anbiyo salavotullohi alayhi va alo olihig‘a sabr qilmoqqa amr qilib, Yunus a. s. qilg‘onidin nahy qilurkim, «Fasbir lihukmirabbika va lo takun kasohibin huti»[53] Chun Yunus a. s. eldin chiqti, qavmig‘a Tengri taolo bir bulut yibordikim, andin o‘t yog‘ar erdi. Qavm muni ko‘rgach, Yunus a. s.ni tilay boshladilarkim, iymon keturgaylar. Chun bildilarkim, Yunus a. s. alar topqudek bormaydur, dedilarkim, Yunus a. s. bo‘lmasa Yunus a. s. Tengrisi hozirdur. Borchalari o‘g‘ul-ushoqlari bila boshlarin yalong qilib, tazarru’g‘a mashg‘ul bo‘ldilar va tavba va inobat qila boshladilar. Chun tavbalarida sodiq erdilar, Tengri taolo qabul qilib, ul baloni alardin daf’ qildi. Ammo Yunus a. s. alardin ayrilg‘onda kemaga kirib, bahr yuzinda bir azim bolig‘ og‘zin ochib, kema ahlig‘a qasd qildi. Borcha ittifoq qildilarkim, bir kishini anga tu’ma bergaylar. Necha qotla qur’a soldilar. Yunus a. s.g‘a qur’a tushub, Yunus a. s. bildikim, mag‘zub bo‘lubdur. Uznni bolig‘ og‘zig‘a tashladi.

Va bolig‘ Yunus a. s.ni yutub, Tengri taolo bolig‘ning qursog‘ida ani asradi. Va Yunus a. s. qirq kun bolig‘ ichinda erdi va bu tasbihni vird qilib erdikim, «Lo iloha illo anta subhonaka inni kuntu minazzolimin»[54]. Qirq kundin so‘ngra, Tengri taolo Yunus a. s. xatosidin kechib, ani uch qarong‘uluqdin qutqordikim, biri kema va biri suv va biri bolig‘ qursog‘i bo‘lg‘ay. Va bolig‘ daryo qirog‘ig‘a kelib, ani yoqog‘a soldi. Va ul yanglo tuqqan yoshdek bo‘lub erdi, bir sutluk kiyikka amr bo‘ldikim, har kun kelib, anga sut berur erdi va bir yig‘och anga soya qilur erdi. Qirq kundin so‘ngra, o‘z holig‘a kelib, amri ilohi bila qavm orasig‘a kirdi, qavm aning hidoyati bila inmon sharafig‘a musharraf bo‘ldilar. Va ko‘b vaqt bo‘lub, Tengri taolo hukmin butkardi. Va derlarki, Kufada madfundur.

R u b o i y:

Yunuski nubuvvat ko‘zini yorutti,
Tanzib ila qavm ko‘nglini o‘rgotti.
Bolig‘ ichida agarchi maskan tutti,
Ham oxir ajal bolig‘i ani yutti.

Omus va Muso va Ma’. Sohibi «Guzida» Hamdulloh Almustavfi bu uch kishini ahli tarixdin naql qilibdurki, mursal erdilar. Va bani Isroilni Muso a. s. dinig‘a da’vat qildilar.

Sodiq va Sidduq va Salum – bu uch kishiga Tengri taolo nubuvvat berib, Antokiyya xalqig‘a yibordikim, alar havlidin borcha halok bo‘ldilar. G‘ayri atfolkim, bulug‘ haddig‘a yetkaydur erdilar va ul atfol nymon davlatig‘a musharraf bo‘ldilar.

Fanjar Muso va Momal-qavsi va Javfarf va San’o Kusi va Uryo – bu besh kishini ahli tarix payg‘ambar debdurlar. Bani Isroilda Muso a. s. dinig‘a da’vat qildilar va Zul-kifl ahdig‘a yoqin erdilar. Ba’zi Zul-kifl a. s.ni bulardin so‘ngra aytibdurlar.

Favoyil va Hikoy. Ba’zi muarrixlar bu ikovni ham payg‘ambar debdurlar. Zul-kifl zamonida Muso a. s. dinig‘a da’vat qildilar.

Zijurmo va Madohi. Ba’zi qavl bila payg‘ambardurlar. Zul-kifl a. s.din so‘ngra va da’vatlari Muso a. s. dinig‘a erdi.

Va Shu’yo payg‘ambar erdi. Va ba’zi debdurlarki, Yunus a. s. o‘zidin so‘ng ani bani Isroilg‘a valiy qildi. Va ani ba’zi debdurlarkim, ul Yunus a. s.din burunroq erdi. Vallohu a’lam. Buxtun-nasrning buzug‘lig‘i va Baytul-muqaddasni vayron qilib, javohirikim Sulaymon a. s. yasag‘ondin beri bor erdi, ul borchasni eltgoni va azim qatllar qilg‘oni ko‘prak ahli tarix ittifoqi bila bu anbiyo zamonidadur. Va ba’zi debdurlarkim, Doniyol a. s.ni Buxtun-nasr Baytul-muqaddasdin eltib, muddati zamonida asrab, bir tush ko‘rub, unutqondin so‘ngra, Doniyol a. s. ham tushin, ham ta’birin aytib, ul banddin xalos bo‘ldi.

Uzayr a. s. anbiyo avlodidindur. Buxtun-nasr Baytul-muqaddasni buzg‘onda, ani abnoyi jinsi bila asir qilib, Bobilg‘a eltti. Andin xalos topib kelurda, bir kentda tushti va eshokini bog‘lab, uchasin bir daraxtqa qo‘ydi. Va ilayida anjir erdi va bir zarfda uzum shirasi. Va bu mahalda xayolig‘a Tengri taolo amvotni ihyo qilurig‘a fikrga tushti. Va ul kentning buzug‘larida odamizodning quruq so‘ngoklari bor erdi. Alarni ko‘rub, hayrati orttikim, bu churuk so‘ngoklarni tirguzmokta g‘ayri hayratki, aqlg‘a mustavliy bo‘lg‘ay, o‘zga nima no‘qdur. Haq taolo qudrati iqtizosi ul qildikim, Uzaarning hayrati daf’ bo‘lub, bu hol anga aynal-yaqin bo‘lg‘ay. Lojaram, amr bo‘ldikim, ruhin muborak jasadidin chiqordilar va markabin dog‘i ruhsiz qildilar. Va Tengri taolo Uzayr a. s. jismin el ko‘zidin pinhon asradi, bu holg‘a yuz yil o‘tti.

Bu muddatdin so‘ngra Tengri taolo Uzayr a. s.nig tirguzdi. Bir malak andin so‘rdikim, «Kam labista?» Javob berdikim, «Yavman av ba’za yavmen». Ul malak did, «Ballabista miata omin fanzur ilo taomika vsh sharobika lam yatasannah. Vanzur ilo himorika al-mayiti»[55]. Chun muni Uzayr a. s.

mulohaza qildi, ko‘rdikim, anjir o‘z o‘rnida va uzum shirasi hamul zarfda toza erdi. Va markabining churugan so‘ngaklariga boqti. Ko‘rdikim, bir-biriga muttasil bo‘lub, ustiga ig o‘rlandi va aning ustiga teri tortildi, dog‘i ruh badanig‘a kirib tirildi.

Uzayr a. s. bildikim, aning yuz yil burung‘i qilg‘on taraddudi jihatidin haq taolo anga bu nav’ qudratin ko‘rguzdi. Va aning san’atig‘a ofarin o‘qub, markabin minib, o‘z shahrig‘a tebradi. Ul shahrg‘a yetkondin so‘ngra, chun yuz yil o‘tkon jihatidin ko‘p tag‘yir topib erdi, hech yerni tonimay, ko‘b zahmat bila o‘z saroyini topti. Ammo kishi yo‘q erdi, bir ko‘r kanizakdin o‘zga. So‘ngra Uzayr a. s. andin so‘rdikim, bu uy. Uzayrning uyidur? Ul tasdiq qilib dedikim, sen kimsenkim, bu yuz yildakim, mening maxdumum g‘oyib bulubdur. Men ani kam eshitibmen. Ul dedikim, men Uzayrdo‘rmen. Kanizak ayttikim, agar chin aytasen, Uzayr a. s. mustajobud – da’va erdi, duo qilkim, maning ko‘zum bino bo‘lsun. Uzayr a. s. duo qildi. Haq taolo ul kanizakning ko‘zin bino qildi. Uzayr a. s. ning muborak yuzin ko‘rgach, tanidikim, anga bu yuz yilda hech tag‘yir voqe’ bo‘lmaydur erdi. Faryod qilib ayog‘ig‘a tushub, yugurub Uzayr a. s.ning o‘g‘lonlarig‘a mujda yetkurdikim, o‘g‘lonlari biri yuz yoshar erdi, biri yuz o‘n yoshar erdi. Atolarin yigit ko‘rub tanimadilarkim, Uzayr a. s.ning bag‘rida bir xol bor erdikim hilol shakli bila. Ul nishonann ochib ko‘rub, alar ham muborak qadamig‘a yuz surtub, qavmg‘a xabar bo‘ldi. Qavm ham inonmay, dedilarkim, «Tavrot»ni hechkim Uzayr a. s.din yaxshiroq bilmas erdi, to ul kitobni Buxtun-nasr eltti oramizda kishi bilmas. Uzayr a. s. «Tavrotoni azbar o‘qudi va alar bildilar. Ba’zi yerlarda yoshurun qolg‘onni muqobala qildilar ersa, bir harf ortuq-o‘ksuk emas erdi. Ba’zi bu g‘arib holotdin Uzayr a. s.ni ibnulloh dedilar. «Va qolatil-yahudu uzayr-unubnullohi»[56]. Va ba’zi muarrixlar Uzayr a. s.ni bo‘lg‘on holotini Armiyog‘a isnod qilibdurlar. Va Uzayr a. s.ni Arz otlig‘ inisi bila tug‘ub bila o‘ldilar. Ammo o‘lar vaqtda Uzayr a. s. yuz yoshar va Arz iki yuz yoshar erdi. Mundin g‘aribroq hol tavorixda oz voqe’dur. Va o‘g‘lonlari qari kishilar erdi, yoshqa atolaridan ulug‘roq. Vallohu a’lam.

Zikriyo va Yahyo a. s. va Maryam binti Umron. Alar zaylida Zikriyo a. s.ni Sulaymon a. s. naslidin debdurlar. Va ul Baytul-muqaddasda mujovir erdi. Va Umronkim, Zikriyo a. s.ning amuzodasi erdi, ul dag‘i mujovir erdi. Ikalasining haramlari egochi-singil erdnlar. Imrong‘a farzand ko‘p bo‘ldn va Zikriyo a. s. g‘a bo‘lmadn. Imron bu shukronag‘a nazr qildikim, yana farzand bo‘lsa, Baytul-muqaddasqa mujovir bo‘lg‘an. Va haramiki oti Hifa erdi Maryamg‘a homila erdi. Va tuqqondin so‘ngra nazr jihatidin Imron mutahayyir bo‘ldikim, inosni mujovir qilmaslar erdi.

«Qolallohu taolo inni vaza’tuho unso vallohu a’lamu bimo vaza’at va laysaz-zakari kal unso va inni sammaytuho Maryama va inni u’iyzuho bika vazurriyya tahominash-shaytonir-rajim»[57]. Bu sharafdin Maryamni bir nimaga chirmab, Hifa Baytul-muqaddasqa eltti. Ulamo va ahboraning qavlin munkiri ko‘rdilar.

Zikriyo a. s.g‘a vahy keldikim, bu fahirani o‘g‘ulg‘a qabul qilduq «Fataqabbalaho rabbuho biqabulin hasanin»[58]. Bu jihatdin axbor aning muhofazatig‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Zikriyo a. s. dedikim, aning taahhudi manga avlodurki, xolasi maning uyumdadur. Axbor qabul qilmay uch qotla qur’a soldilar. Ucholosida qur’a Zikriyo a. s. otig‘a tushti. Borcha zaruratan musallam tuttilar. So‘ngra Zikrnyo a. s. Maryamni uyiga eltib, Ashbo’kim, Zikriyoning harami va Maryamning xolasi erdi, aning muhofazatig‘a mashg‘ul bo‘ldi, to anga ibodatqa va masjid xizmati qobiliyati paydo bo‘ldi.. So‘ngra Zikriyo a. s. aning uchun masjidda bir g‘urfa yasattikim, eshiki yo‘q erdi. Zina bila anga chiqor erdi. Va o‘zi g‘oyib bo‘lsa, g‘urfa to‘shukin qufl qilur erdi. Va ul jumladin biri bukim, qishda yoz mevasi va aks ham ko‘rar erdi. So‘rg‘ondakim, «anno laki hozo. fi g‘ayri vaqtihi»[59], javob toptikim, «hozo min indillohi yarzuqu man yasho’u big‘ayri hisob»[60].

Va bu vaqtda Zikriyo a. s. va harami Qibarsanda erdilar. Zikriyo a. s. dedikim, Xoliqikim Maryamg‘a g‘ayr vaqtida bu nav’ favokih nasib qila olur, maning ham hayotim shajarasndin, agarchi g‘ayri vaqtdur, bir necha karomat qila olur. Bu orzu ko‘ngliga o‘tti, Jabrail a. s. anga Yahyo a. s. vujudig‘a bashorat berdi. «Fanodat-hal-maloikatu va huva qoyimun yusalli fil mihrobi»[61]. Va chun Yahyo a. s. mutavallid bo‘ldi, oz vaqtdin so‘ngra Tengri taolo muborak ko‘nglin vahy nuzulidin

munavvar qildikim. «Yo Yahyo huzil kitoba biquvvaten va otaynohul-hukma sabiyyan»[62]. Va Yahyo a. s.ning toati bag‘oyat va yig‘lamog‘i benihoyat erdi. Derlarki, g‘oyat bukodin iki yuzida iki novdondek chuqur xat paydo bo‘lub erdi va bu favrda Maryam zuafo g‘adridin g‘usl qilur mahalda Jabrail a. s. ani Iso a. s.g‘a bashorat berdi. Ba’zi debdurlar Iso a. s. to‘quz oydin so‘ngra mutavallid bo‘ldi. Xaloyiq nomunosib so‘zlar dedilar. Ammo Iso a. s. hamul dam takallum qilib, Tengri taoloning bandalig‘i va o‘zining nubuvvatig‘a va onasi poklig‘ig‘a tonug‘luq berdi va xotamul-anbiyo vujudi muborakig‘a sallOllohu alayhi vassalam bashorat yetkurdi. Necha vaqtkim, o‘tti, Yahyo a. s. bila musohabat qilur erdi. Ul vaqtkim, Iso a. s. mutavallid bo‘ldi va axbor anga ta’n hildilar. Bovujudi ulki, Tengri taolo Iso a. s.ni o‘tkan takallum bilaki mutaqallim qildi, bani Isroilning ham yuzi, ham ko‘ngli qaroladi. Iso a. s.ni ul ish tuhmati bila muazzab tutar erdilar. To ish ul yerga yettikim, Zikriyo a. s. ul nopok el orasidin qochti. Va alar qovlay borib, mashhurdurkim, ul hazrat yig‘och shikofig‘a kirib, ul shikof butti. Va a’do yetib, etokining uchin yig‘ochdin toshqori ko‘rub, yig‘och boshidin arra qo‘yub Zikriyo a. s.ni halok qildilar.

Bu yerda chun so‘z derdin, balki dam urardin xoma tili lol va til xomasi gung maqoldur, avlo ulkim, maqsudqa shuru’ qiloli. Yahyo a. s. qatli bu nav’ erdikim, ul zamonning podshohining yoshqa yetgon harami bor erdi. Bu jihatdinki, chun qaribdur, bo‘lmag‘aykim, podshoh yana birovni nikohng‘a kiyurgay va aning mujibi azli bo‘lg‘ay. Uzga abushqadin jamila qizi bor erdi, podshohg‘a targ‘ib qildikim, ul qizni olg‘ay. Podshoh Yahyo a. s.din so‘rdi ersa, Yahyo a. s. dedikim, sanga aning nikohi ravo ermas. Ul qiz bila onasig‘a Yahyo a. s. adovati paydo bo‘ldi. Bir kunki podshoh mast erdi, ul qizni onasi orosta qilib, aning qoshig‘a yibordi. Sukr g‘alayoni va shahvat tug‘yonidin anga mayl qildi. Qiz ibo qildikim, agar hojatimni ravo qilursen, bu ish bo‘lur. So‘rdikim, hojating nedur? Ul badbaxt dedikim, hojatim Yahyo a. s. ning qatlidur. Ul zoniy bu zoniya xotiri uchun Yahyo ma’sum qatlig‘a rizo berdi. Derlarki, ul hazrat qatl bo‘lg‘ondin so‘ng-ra, ul iki mal’unni yer yutti. Derlarki, bani Isronlning iki fasodidin so‘ng‘isi Yahyo a. s. qatlidur. Bu amr vuqu’idin so‘ngra, Tengri taolo fors mulukidin Xurvis otlig‘ni bani Isroilg‘a istilo berdikim, ul iki payg‘ambar qoni evazi alarni andoq qatl qildikim, yahuddin kishi oz qoldi. Derlarki, Baytul-muqaddas darvozasidin Xurvis o‘rdusig‘acha rudxonadek qon oqti. Alqissa, Zikriyo a. s. dori fanodin bu nav’ do-ri baqog‘a bordilar.

R u b o i y:

Aylab Zikriyo bila Yahyoni qabul,
Qildi ikisini olam ahlig‘a rasul.
Ne qildilar erkin bu ato birla o‘g‘ul
Kim, elga yana alarni qildi maqtul.

Iso binni Maryam salavotullohi alayh bir qavl bila uchunchi ulul-azmdur, bir qavl bila beshinchi. Andin burung‘i anbiyodin so‘ngra hech qoysig‘a qirq yoshdin burun nubuvvat yetmadi. Va lekin ul modarzod pay-g‘ambar erdi. Va aning valodatidin burun Tengri taolo Maryamg‘a aning vujudi bashoratin berdikim, «Iz qolatil-maloikatu yo Maryamu innalloha yubash-shiruki bikalimaten minhu ismihul masihu Isabnu Maryama va jiyhan fit-dunyo val oxirati va minal-muqarrabiyna va yukallimunnosa fil mahdi va kahlan»[63].

Masih lafzida so‘z ko‘ptur. Va Iso a. s. valodatida ham so‘z ko‘ptur. Tafosir kutubidin ma’lum bo‘lur. Chun bu muxtasarda matlub ixtisordur, ya’ni muarrixona ishlarga qone’ bo‘luldi. Muqarrardurkim, Iso a. s.ning otasi yo‘qtur. Maryam Jabrail a. s.ning nafasi bila homila bo‘ldi va tug‘urur vaqtda Baytulliuqaddasdin chiqib, qirog‘roq yerda vaz’ haml qildi. Xalq bu ishni bilib, borib ul holni ko‘rub, irik so‘zlar ayta boshladilar. Yuqoriroq bitilibdurknm, Iso a. s. ne nav’ javoblar berdi. Andin so‘ng el mutaajjib bo‘lub, so‘z ayta olmay qayttilar. Maryamni Habnb Najjorkim, xolazodasi erdi, Iso a. s. bila olib Damashqqa bordi. Iso a. s. o‘n uch yoshag‘uncha anda maosh qildi. Anda ham

Iso a. s.ning mu’jizoti ko‘b zohir bo‘ldi.

Chun «Injil» Iso a. s.g‘a nozil bo‘ldi, uchovda Baytul-muqaddasqa kelib, Iso a. s. amri ilohi bila xalqni Tengri taolo amrig‘a dalolat qildi. Xalq ani takzib qilib, nomunosib so‘zlar dedilar. Ammo havoriyun iymon kelturub, dinini qabul qildilar. Va alar o‘n iki kishi erdilar, peshalari bo‘yog‘chiliq erdi. Iso a. s.din mu’jiza tiladilar, borchaning bo‘yar raxt-larin olnb, Nil ko‘yiga soldi. Alar iztirob qilg‘ochkim, bulardan har birini bir rang buyurubdurlar. Iso a. s. Mil ko‘yiga ilik urdi. Har birinikim chiqardi, iyosi tilagon rang bila chiqti. Bu mu’jiza ul elga mujibi imon bo‘ldi. Ul nimakim Yso a. s. eliga amr qildi tavhid erdi. Va xotamun-nubuvvatning risolatiga iqror qildikim, Qolallohu taolo: «va iz qola Isabnu Maryama yo bani isroila inni rasulullohi ilaykum musaddiqan limo bayna yadayya minat-tavroti va mubashshiran birasulin ya’ti min ba’dismuhu Ahmadu»[64]. Sallallohu alayhi va alo olihi vassalam.

Iso a. s. olam va dunyo asbobidin hech nima qabul qilmadi va alardnn bir pashmina to‘n va bo‘rk va bir asosi bor erdi. Bir yerda bo‘lmas erdi, doyim sayrda erdi. Ro‘zi uchun kasb qilmadi, har ne yetti qone’ bo‘ldi. Chun havoriyun iltimos qildilarkim, bir markab mingilkim, yayog‘liq mashaqqati kamroq bo‘lg‘ay. Aning yemak va muhofazati tashvishidin rad qildi. Va iltimos qildilarkim, bir maskan yasoli. Qabul qilmadi. Va zuafo bila ixtiloti yo‘q erdi. Bu jihatlardin mujarradliqqa mashhur bo‘ldi. Va soyir mu’jizotidin biri xuffoshdurkim, bolchig‘din ul hay’ot bila yasab, nafasin anga surdi. Va ul nafasdin ruh topib uchti va emdigacha bor. Va biri akmah va biri abras ilojidurkim, Qolallohu taolo, «Anni axluqu lako‘m minat-tiyni kahiyatut-tayri faanfuxu fihi fayakunu tayran biiznillohi va ubriul-akmaha val-abrasa»[65] yana ulkim, duo bila o‘lukni tirguzdik, «va uhyil mavta biiznillohi»[66]. Va ul o‘lukkim, Iso a. s. tirguzdi ibnal-a’juz erdi. Va sharhi budurkim, sayr asnosida bir ajuzani ko‘rdikim, bir qabr boshida muassir navha qiladur, kayfiyatin so‘rdi. Dedikim, o‘g‘lum erdi va firoqidin betoqatmsn. Iso a. s. duo qilib, Tengri taolo ul mayyntqa ruh kiyurdn va o‘luk tirilgach, iltimos qildikim, duo qilg‘ayki, burung‘i holig‘a borg‘ay va mavt sakaroti bo‘lmagay. Ruhulloh duosi bila bu ish ham bo‘ldi va ruhulloh andin o‘tti. Nasibin viloyatida malike bor erdi; mutakabbir va jabborsifat. Iso a. s. aning da’vatig‘a ma’mur bo‘lub, ul yon azimat qildi va havoriyung‘a dedikim, sizdin kim bo‘lg‘aykim shu shahrg‘a kirib nido qilg‘aykim, Iso ru-hullohknm, Tengri taoloning rasulidur va kalimasidur kelibdur. Ya’qub va Tumon va Sham’un otlig‘ uchov dedilarkim, biz borurbiz. Iso a. s. har qaysi bobida bir so‘z aytti, dag‘i alarni uzotti. Alardin ikisi ilgorirak, Sham’un keyinrak yurub, Ya’qub ul nidoni qildi. El hujum qilg‘och, yondi. Tumon iqror qildi. Ani podshoh qoshig‘a elttilar. Hamul so‘zni aytti. Ul zolim buyurdikim, Tumonning ilikin, ayog‘in kesib, ko‘zlarin ham ko‘r qildilar. Ul so‘zidin qaytmadi. Bu mahalda Sham’un yetib, malikdin Tumon ilzomig‘a so‘z istid’osini qildi, ruxsat topti. Dog‘i Tumondin so‘rdikim, bu kishikim, sen aning risolatig‘a iqror qilasen hech hujjati va mu’jizi bormu? Tumon dedikim, bor! Sham’un dedikim, ayt! Ul dedikim, akmah va abrasni iloj qilur. Sham’un dedikim, bu ishta atibbo sharikturlar. Tumon dedikim, kishi oqshom ne yemish bo‘lsa va uyida ne nima bo‘lsa, aytur. Sham’un dedikim, imkoni sihr borkim, jin tasxiri qilmish bo‘lg‘an. Tumon dedikim, bolchig‘din qush yasab, damini anga hurub, ruh tanig‘a kiyurur. Sham’un dedikim, imkoni sihr bor. Tumon dedikim, o‘lukni tirguzur. Sham’un malik sori boqib aytti: muning imtihoni osondur va imkoni yo‘qturkim, bu ish Tengri taolodin yo payg‘ambaridin kelur. Agar hukm qilsangkim, ul kishi hozir bo‘lsa, filhol ma’lum bo‘lur. Iso a. s.ni hozir qildilar, Tumon aytqon so‘zlarni so‘rdilar. Borchasig‘a iqror qildi. Sham’un dedi: agar bu so‘zlaring chindur, avval rafiqingdin boshla. Iso a. s. Tumonning kesilgan a’zosini o‘runlarig‘a qo‘yub, duo qildi. Tengri taolo borchasni butkordi. Va xuffosh bobida taqozo qildilar, yasadi. Salmoni forsii rahmatullohi ilayhdin manquldurkim, ul viloyatning jami’ murazosini dedilarkim, sahih qilmoq kerak. Aning duosi bila borcha sihat toptilar. Borchadin, so‘ngra o‘lukni tirguzmak iltimos qildilar. Iso a. s. dedikim, har o‘luknikim siz desangiz duo qilay. Ittifoq bila Som binni Nuhni dedilar. Tirguzkim, mavtidin to‘rt ming nil o‘tub erdi, aning qabri boshig‘a borib, Iso a. s. iki rak’at namoz qilib, duo qildi. Qabr shaq bo‘lub, bir oq soch-soqolliq kishi chiqti va elga dedikim, Iso ruhulloh payg‘ambardur, aning dinag‘a kiring va g‘animat tutuig. Iso a. s. andin

so‘rdikim, sizing zamonda soch oqarmas ermish. Som dedikim, saning duong uni yetkoch, qiyomat bo‘lg‘on sog‘inib, vahmu xavfdin bular oqardi. Chun Som elga pandlar dedi, Iso a. s. duosi bila avvalg‘i holig‘a bordi va shaq bo‘lg‘on yer bir-biriga qo‘shuldi. Ham Salmoni forsindin manquldurkim, bu mu’jizani ko‘rub, ul mulk eli musulmon bo‘ldilar. Ba’zi safardakim, yemakka tanglik voqe’ erdi. Bani Isroil havoriyung‘a dedilarkim, agar Iso a. s. duo qilsakim, Tengri taolo osmondin moida yiborsakim, taomg‘a muhtoj xaloyiq andin bahra topsalar va Tengri taolo vujudi va Iso a. s. nubuvvatig‘a tainlari bo‘lsa, deb havoriyun arz qilg‘och, Iso a. s. tazarru’ qilib dedikim, «rabbano anzil aylayna moidatan minas-samoi takunu lano i’ydan li avvalina va oxirina va oyatan minka varzuqno va anta xay-rur-roziqin»[67].

Chun Iso a. s. munojotdin forig‘ bo‘ldi, vahy keldikim, biz moida yiborali va lek har kishi kufroni ne’mat qilsa, qottiq azobg‘a giriftor bo‘lur. Iso a. s. bu so‘zni aytqoch, borcha dedilarkim, har kishi kufroni ne’mat qilsa, Tengri taolo anga azob nasib qilg‘ay. Bu so‘zdin so‘ngra Tengri taolo osmondin moida yibordi. Xonning azamat zebu ziynatini aytmoq hojat emaski, Tengri taolo xoni erdi. Ammo moida non va biryon bolig‘ erdi. Ta’m va mazasi ham ta’rifdin toshqari erdi. Va anda tuz va sabzalar bor erdi. Bir rivoyat bila uch kun va bir rivoyat bila qirq kun bu moida indi. Qavm har necha yedilar kam bo‘lmadi. Jami’ murazo ani yegoch, sihat toptilar. Saboh inar erdi, oqshomg‘acha el andin yerlar erdi. Oqshom yana osmonga borur erdn. Qavmdin ba’zi inkorg‘a til uzottiknm, bu moida osmondin kelmaydur, Iso sihr qiladur.

Har oynakim, Tengri taolo kufroni ne’mat qilg‘onlarni va’da qilg‘on dastur bpla to‘ng‘uz shakli bila o‘runlaridin qo‘pordn. Va ul to‘ng‘uzlar mazbalalarda kezib, najosatlarni yerlar erdilar.

Iso a. s. qoshig‘a kirib, ko‘zlarndin yosh borib, bosh-larnn yerga qo‘yarlar erdi. To uch kundin so‘ngra aqabah vujuh bila adam yo‘lng‘a aznmat qildilar. «Nauzu bil-lohi min shuro‘ri anfusino va min sayyioti a’moli-no»[68]. Va Iso a. s.ning mu’jizoti bag‘oyat g‘arib va ko‘ptur. Masbutroq kutubdin ma’lum qilsa bo‘lur. Va Iso a. s. osmong‘a chpqqanida muxtalif rivoyot ko‘ptur. Ammo sohibi «Guzida» mundoq debdurkim, ul jamoat 'chhud va masx bo‘lg‘ondin so‘ngra, Iso a. s. yonnb Baytul-muqaddasqa keldi. Va ul gumrohlarining baqinyasi Iso a. s.ning qatlig‘a qasd qnldnlar. Va Iso a. s. maxfiy bo‘ldi. Va Sham’uini tuttilar va ul Iso a. s. ni ko‘rguzmadi. Parvis o‘tuz diram rishvat olib, Iso a. s.ni ko‘rguzdi. Juhudlar tiladilarkn, Iso a. s.nn tutub o‘lturganlar. Tengri ta.olo alarning ko‘zidin ani g‘oyib qilib, osmonga chiqordi. Va Iyshu’nikim, juhudlarning ulugi erdi, Iso a. s.ning shakln bila mutashakkil bo‘ldn. Juhudlar ani Iso a. s. sog‘inib tuttnlar qatl qilgoli. Ul har necha faryod qildikim, men Iyshu’men, foyda bermadi. Ani bir daraxtqa bo‘g‘-zidin ostilar. Va yeti kecha-kunduz osig‘lig‘ qoldi. Maryam ani Iso a. s. sog‘nnib, har kecha kelib azo ras-mi bila yig‘lar erdi. Iso a. s.ni Maryam xotnri it-minoin uchun yetinchi kecha osmondin yerga nozil qnldn-kim, Maryam qoshig‘a keldi. Maryamg‘a ahvoldin xabar-dor qilib, Maryamning xotiri qaror topti. Yahyo a. s, yana yetn kishi havoriyundnn Iso a. s.ni ko‘rdilar. Va Iso a. s. alarg‘a pandlar va nasihatlar qildi va har qoysini bir ishga ta’yin qildi, tonglasn bu g‘arib ishni oshkoro qildilar ersa, yahud borchani takzib qnlnb zindong‘a mahbus qildilar. Ammo Iyshu’ni yo‘q-lag‘onlar bornb, osnlg‘on knshini ko‘rdilar. Iyshu’ erdikim, ani Tengri taolo asli suratig‘a eltib erdi. Bu ishdin ko‘b el Iso a. s. dinin ixtiyor qildilar. Va Maryamni ba’zi debdurlarkim, Iso a. s. daf’ndin burun olamdin ketti. Ba’zi debdurlarkim Iso a. s. olti yildin so‘ngra, har taqdir bila va’da budurkim, Mahdi zuhur qilg‘ondin so‘ngra Iso a. s. osmondin ingoy, dog‘i Dajjolni halok qilib, soyir milal ahlin xotamun-nubuvva millatig‘a dalolat qilg‘ay. Sallallohu alayhi vassalam, val ilmu indallohu.

Iso a. s.ni debdurlarkim, o‘n yeti yoshida mab’us bo‘ldi. O‘tuz uchida osmong‘a chiqti.

R u b o i y:

Isoki, mujarrad ayladi Tengri ani,
Ko‘k ravzasi bo‘ldi jilvagohu chamani.

Yer ahlidin ulki bo‘lsa tajrid fani,
Tong ermas, agar ko‘k o‘lsa aning vatani.

Ashobi kahf va ba’zi mutafarriq axbor. Ashobi kahf bobida ixtilof ko‘ptur. Muxtasari budurkim, Yunon mulkida Aqsus shahrida Daqyonus otlig‘ maliki jabbor bor ermishkim, ba’zi debdurlarkim, butparast ermish, ba’zi debdurlarkim, uluhiyyat da’vosi qilur ermish. Va bu ashobi kahf, ba’zi rivoyat bila aning mulkiming buzurgzodalari va ba’zi rivoyat bila, navvob va mulozimlari ermishlar va musulmon ekandurlar. Va yoshurun Tengri taolo ibodatin qilur ermishlar. Daqyonus bu holdin voqif bo‘lub, alarning qatli fikrida bo‘lmish. Alar bu holni ma’lum qilib, ittifoq bila shahrlaridin qochib, el yo‘luqur vahmidin yo‘lsiz biyobong‘a tushub, bir qo‘ychig‘a uchrab, qo‘ichi dagi alarg‘a qo‘shulub, qo‘ychining iti ham erishib, Raqim otlig‘ g‘org‘a kirmishlar. Va alarning adadida taraddud bor, nachukkim «Kalomi majid» xabar berurkim, «sayaquluna salosatun robiuhum kalbuhum va yaq.uluna xamsatun sodisuhum kalbuho‘m rajman bilg‘aybi va yaquluna sab’atun va sominuhum kalbuhum»[69]. Har taqdir bila gorg‘a kirib, haq taolo uyquni alarg‘a mustavliy qilib, alar uch yuz to‘quz yil uyumishlar. «Salosa miatin siniyna vazdodu tis’an»[70].

Va muddatda Daqyonus jahannamg‘a borib, necha podshoh gardish bo‘lub, bir xudoparast odil podshohg‘a saltanat yetkondakim, ashobi kahf Tengri taolo amri bila uyg‘onmishlar. Va Tamlixo degan rafiqlarin shahrg‘a yibormishlar, taom kelturur uchun. Ul rafiq g‘ordin chiqib, yo‘llar vaz’in o‘zgacha ko‘rub, shahrg‘a yetkoch, shahr avzoin mutag‘ayyir topib, xaloyiqni Iso a. s. dinida fahm qilib mutahayyir bo‘lmish. Bizzarura taom olurg‘a diram chiqarg‘och, – Daqyonus ganjin topibsen, – deb oni tutmishlar. Ko‘b mojarodin so‘ngra podshoh qoshig‘a eltmishlar. Ul faqiri mutahayyir o‘zga podshoh, o‘zga xalq ko‘rub hayron ermish. Podshoh aning holi kayfiyatin so‘rub, ul faqirki har so‘zki o‘z holidin alarg‘a aytur ajab ko‘runub, podshoh ulamoni yig‘ib, bu bobda qilu qol qilib, so‘ngra alar demishlarkim, Iso a. s. «Injil»da bu holdin xabar beribdurkim, Daqyonus chog‘ida bu jamoat g‘org‘a kirib, uch yuz to‘quz yil o‘tub, saning zamoningda uyg‘ong‘oylar. Podshoh bu ishdin masrur bo‘lub, Tamlixog‘a yo‘l boshlatib, ashobi qahf sihatig‘a musharraf bo‘lub, alar taom yeb, Tengri taolog‘a sajdoti shukr qilib, yana uyqug‘a bormishlar. Uyuqlag‘och, ruhlarin qobizi arvoh haq taolo amri bila qabz qilmish. Va ul podshoh g‘or eshikida ulug‘ gunbad yasab, alarni madfun qilib, ul yer xaloniqqa azim ma’bad bo‘lmish.

Bu qissa tavorix, balki tafosirda mabsut bor. Va axborning g‘aribidin biri budur. Va Xantalatus-sodiqning hidoyati hozur eligakim, Yaman mulkidindur, ashobi kahfdin so‘ngra deyilibdur, ul payg‘ambari-durkim, haq taolo dinig‘a ul qavmni da’vat qildilar. Va ul bedinlar alarni takzib qilib, o‘lturdilar. Tengri taolo Bobil podshohin ul elga mustavliy qildikim, barchasin halok qildi. Va Iso a. s.din sekson yilg‘a degincha dinig‘a xalal yo‘q erdi.

Yunus juhud azim riyozatlar bila elni mu’taqid qilib, Iso a. s. qoshidin keladurmen va ba’zi Tengri Isoning o‘g‘lidur debdurlar, ba’zn Iso Tengrining o‘g‘lidur debdurlar va ba’zi sharikdur, deb izlol qildi va o‘zin xilvatda zibh qildi. Va ul nodon qavm uch firqa bo‘lub, ul shumning so‘zi bila amal qildilar va ko‘b vaqtqa degincha bu botil millat el orasida bor erdi. Va «ixtalafaalzobu baynaho‘m»[71] alarning sha’nidadur.

R u b o i y:

Kahf ahlig‘a yuzlandi adu qayg‘usi,
Bo‘ldilar agarchi g‘orning mahbusi.
Chun ko‘zlari erdi uyquning mamlusi,
Ham oqibat etti adam ul uyqusi.

Jirjis a. s. – Shom viloyatining Falastin shahrida muqim erdi. Ba’zi debdurlarkim, Iso a. s.ning

havoriyunining shogirdi erdi va koʻb mol va gʻanimati bor erdi. Va ul vaqtda mulk podshohi jabbori erdi, butparast. Va bir azim but oltun va javohirdin yasab, otin Afluq qoʻyub erdi va xaloyiqqa ul but ibodatin taklif qilur erdi. Harkim mutobaat qilmasa, halok qilur erdi. Va taxtgohi Moʻsul erdi. Chun aning zamonida zulm va taaddi koʻb erdi, Jirjis a. s. tuhfa va tabriklar murattab qilib bordikim, anga peshkash qilib, aning zilli himoyatigʻa xalqining zulmidin emin boʻlgʻay. Ittifoqo ul yetgan zamon bir ulugʻ oʻt yoqib, xalqni Afluq parastish qilurgʻa taklif qilur erdi, qabul qilmagʻonni ul oʻtka soladur erdi. Jirjis a. s. bu holni koʻrub, hamiyyat va gʻayrati oʻti mush-tail boʻlub, amvolni mustahiqlargʻa uloshib, haq taolo amri bila ul zolimni nasihat boshlab, Tengri taolo ubudiyatigʻa dalolat qildi. Ul zolim dedikim, Afluqqa sajda qilsang, xalossen, yoʻq ersa, azob bila halok qilay. Chun bu amr mutaazzir erdi, buyurdikim, temir torogʻlar bila Jirjis a. s.ning a'zo va rang va payin bir-biridin oyirib, temir qozugʻni oʻtqa solib qizitib, boshigʻa qoqturdi va zindongʻa yiborib, chor-mix qilib, bir sutunni ustiga nasb qildi. Yerim kecha haq taolo bir malakni yiborib, Jirjis a. s. ni ul sutun ostidin chiqorib, badanigʻa ruh kiyurub, ani nubuvvat davlatigʻa musharraf qilib, dedikim, yo Jirjis, haq taolo sanga xntob qildikim, sabur boʻl va gʻam yemakim, seni yeti yil bu kuffor balosigʻa giriftor qilgʻumdur. Sanga andoq mu'jizot nasib qilgʻum-durkim, oʻzga anbiyogʻa qilmamish boʻlgʻaymen. Seni yana uch qotla kuffor ilikida maqtul qilgʻumdur, yana dogʻi jon bergumdur. Andin soʻngra oʻz duong bila bihishti jovidongʻa kiyurgumdur. Jirjis a. s. dedi: Har ne haq taolodindur kelsa, xushtur. Saboh boʻlgʻoch, yana Jirjis a. s. ul malik dargohigʻa bordi. Koʻrub hayron qeldilar. Yana nasihat ogʻoz qildi. Ul badbaxt buyurdikim, Jirjis a. s.ning boshigʻa arra qoʻyub iki boʻldilar. Va soyir jismini pora-pora qilib, sherxonagʻa eltib, sibo' olligʻa soldilar. Sibo' aning poralarin hurmat bila asradilar. Haq taolo yana Jirjis a. s.ni tirguzub, yana ul bebok borgohigʻa hozir boʻlub, nasihat bunyod qildi. Ul dedikim, bu kishi sohirdur. Mamlakat sohirlarni hozir qilingkim, anga gʻolib kelsunlar. Sohirlar kelib, iki yilon xaritadin chiqordilarkim, iki uy boʻldilar. Oʻylar bila shiyor qilib, tuxm sochib, hamul zamon aning mahsulidin non pishurdilar. Ul el shod boʻlub, podshoh amr qildikim, agar Jirjisning shaklin it shakli bila qila olsangiz, inoyatlar qilay. Alar bir ayogʻ suvgʻa afsui oʻqub, Jirjis a. s.gʻa ichurdilar. Hech asar qilmadi. Sahara ajzlaridin mu'tarif boʻldilar. Birov dedikim, siz Jirjis a. s.ni sohir dersiz, sohnr hargiz oʻlukni tirguza olurmu? Sahara dedilarkim, yoʻq. Ul dedikim, biz oʻz koʻzumiz bila koʻrdukki, Shom viloyatida bir ajuzaning bir oʻyi oʻlub erdi. Ul ajuza Jirjis a. s.gʻa dardi dil qildi ersa, Jirjis a. s. asosin berib, ta'lim berdi. Ul ajuza asoni eltib, oʻlgon oʻyigʻa urgʻoch, oʻy tirildi. Bu soʻzdin sahara Jirjis a. s.gʻa iymon keturdilar. Va ul gʻaddor borchasin oʻlturdi. Va aning navvobidin biri Jurjis a. s.gʻa dedikim, biz oʻlturur kursilarni andoq qilsangkim, avvalgʻi hollarigʻa borsa, ne desang qiloli. Duo qildi. Hamul quruq yigʻochlar daraxtlar boʻldilarkim, ba'zida gul va ba'zida meva zohir boʻldi. Bir qotla Jirjie a. s.ni bir temir un javfigʻa solib, nafg va gugurd bila ul javfni mamlu qilib, ul uyni bir uluq oʻtqa soldilarkim eridi. Bu asnoda olamni zulmat tutub, andoq yogʻin va ra'd va barq boʻldikim, kunduzni kechadin farq qilmadilar.

Bir malakka amr boʻldi, bu un suratin olib yerga urdi. Andoq sado keldikim, xalq yiqilib behol boʻldilar.

Va Jirjis a. s. uy ichidin solim chiqnb, yana ul bedavlatlar da'vatigʻa mashgʻul boʻldi. Bu qotla dedilarkim, falon gʻorda salaf mulukidin nechaning maqbarasi bor, duo bila alarni tirguzsangki, bizing bila soʻzlashsunlar, ne desang qiloli. Jirjis a. s duo qilib alarni tirguzdn. Va alar Jirjis a. s.din. duoyi magʻfirat talabin qildilar. Va ul yerga ayogʻ urub ul toshtin bir chashma paydo boʻldi, alargʻa gʻusl buyurdi. Duo qildi. Tengri taolo alargʻa. magʻfirati arzoniy tutti va yana oʻz hollarigʻa bordilar. Bu qotla Jirjis a. s.ni bir ajuza beva uyida band qildilarkim, ochligʻ azobi bila oʻlgʻay. Ul uyda bir sutun bor erdi, bir mevalik azim daraxt boʻldi. Ul mal'un bilib, ul daraxtni kesib va uyni buzub, Jirjis a. s ni kupdurub, kulin uch qism qilib, sulsin bahrgʻa, sulsin toqgʻa, sulsin yelga sovurtti. Haq taolo yelga amr qildikim, ul kullarni yigʻib, bir yerda Jirjis a. s. kul ichidin chiqti.

Va ajuzaning bir oʻgʻli bor erdi koʻr va gung va kar va lang. Jirjis a. s. duosi bila qulogʻi,, koʻzi avval holigʻa bordi. Yana iki uzvi sihatigʻa ajuza iltimos qildi ersa, tonglagʻa va'da berdi. Tonglasi ul

Tengri taoloning dushmani payg‘ambarni butxonag‘a eltib, hukm qildikim, butqa sajda qilg‘ay. Ul hazrat «Zabur»ni biyik o‘qub, ul lang va gungga buyurdikim, borib butlarg‘a aytkim, sizlarni Jirjis a. s. tiladi. Ul bordi va bu so‘zni degach, butlar barchasi Jirjis a. s. sori mutavajjih bo‘ldilar. Payg‘ambar ayog‘ini yerga urg‘och, borchasin yer yutti. Va Jnrjis a; s. duo qildikim, xudoyo, yeti yilkim va’da qilib erdiig bo‘ldi va kuffordin azoblar ham vuqu’ topti. Emdi kufforni halok qil va meni o‘zungga vosil qil. Filhol bir bulut paydo bo‘lub, o‘t yog‘durub jami’ malain o‘rtonib, Jirjis a. s.ni haq taolo o‘ziga vosil qildi.

R u b o i y :

Jirjiski, oyini risolat tuzdi,
Kufr ahliga ko‘b mo‘‘jizalar ko‘rguzdi.
Ne sud agar elni dami tirguzdi
Kim, tori hayotin necha qotla uzdi.

Jamoati akbiyoki, g‘ayri mursal erdilar, alarning adadi muyayan ermas. Ba’zi yuz yigirmi to‘rt ming va ba’zi sekiz ming debdurlar. Va bulardin uch yuz o‘n uchii mursal debdurlar. Va mursal uldurkim, anga vahy Jabrail vositasi bila kelmish bo‘lg‘ay. Va g‘ayri mursal ulkim, ilhom yo tush bila elga rahnamoyliq qilg‘ay. Ululazm uldurkim, bovujudi bu iki shaq anga kitobi osmoniy kelmish bo‘lg‘ay va boshqa shariati bo‘lg‘ay. Va xotim ulkim, bovujudi bu iki shaq ondin so‘ngra payg‘ambar bo‘lmag‘aykim, bu sifat hazrati Muhammad arabiy sallallohu alayhi va alo olihi va ashobihi vasallamg‘a musallamdur, bas.

Chun mursal adadi va asomiysi g‘ayri mashohir ma’lum ermas, g‘ayri mursalg‘a ham ne yetkay. Ammo mursalni mu’tabar kutubdin ulcha mumkindur sa’y va ihtiyot qilib zikr qilildi. Va g‘ayri mursal adadi va asomiysining otlarin bitib, aksar, balki borcha kutubda tahqiq bo‘lmag‘on jihatidin nuqta ham qo‘ymaydurlar va voqoye’ va holotlarini bitmaydurlar. Muborak ismlarin g‘alat bitmak beadablig‘ va ahvollarin sharh qilmoq befoyda ko‘rungan uchun, alar zikridin qalam jurdai xush xiromidin inon tortildi. Va ba’zi Jirjis a. s. g‘ayri mursal debdurlar, vallohu a’lam.

She’r:

Chun mu’tabar anbiyo so‘zi topti savod,
Ubbod ila hikmat ahlin ettuk bunyod.

Barsisoy Obid. Ibn Abbos raziyallohu anhumodin manquldurkim, Iso a. s. raf’idin so‘ngra bani Isroil qavmida Barsisoy Obid yetmish yil ibodat qildi, xalq anga murid va mu’taqid bo‘ldilar. Shayton ahli saloh suratida aning savmaasig‘a kelib, ibodatg‘a mashgul bo‘ldi. Va bir yilg‘acha o‘zin andoq toatqa mashg‘ul ko‘rguzdikim, Barsisoy aning ixtilotig‘a mayl ko‘rguzdi. Va guftu shunuftdin oralarida suhbati garm bo‘ldi. Chun Harif soda kishi erdi va harif muzavvir Obidqa bir ism o‘rgatdikim, bemorlarg‘a mujibn shifodur. Necha kishining bo‘g‘zini bo‘g‘ub, Obidqa nishon berdi. Obid mulk podshohining qizig‘a bu hol dast berdi. Ani duosi bila daf’ bo‘lub, mujibi shuhrat bo‘ldi, to ulki, ul Obid savmaasig‘a kelturdilar. Va Obid xilvatig‘a kiyurub, chun kulli e’timodlari bor erdi,yotqurub kettilar.

Obid muolajag‘a mashg‘ul bo‘lg‘onda ko‘rmagan shakl bila ko‘rub, shayton vasvasa og‘oz qildi. Chun xilvat emin yer erdi va jamila behush, Obid masx fursatni tanimat tutti. Matlubi muyassar bo‘lg‘ondin so‘ngra rafiqi hozir bo‘lub dedikim, ajab ish qilding. Va ul ham ishi qabohatig‘a voqif bo‘lub, iloj tiladi. Dedikim, iloji qatldurkim, bir yerda madfun bo‘lg‘an. To aytilg‘oykim, uydin chiqibdur, bilmasbiz qayon boribdur. Rafiq rahnamoylig‘i bila bu ish ham vujud tutti. Andin so‘ngra

rafiq podshohg‘a bu ishdin xabar berib, voqe’ erkoni zohir bo‘lg‘ondin so‘ngra, Obidni azob bila qatl hukmi qildi. Va ul holda yana rafiqi o‘z shaytanatin zohir qilib dedi: bu balodin seni xalos qilay, agar manga sajda qilsang. Ul nodon bu ishni ham qildi, dag‘i maqtul bo‘ldi.

She’r:

Bo‘lma mag‘rur ko‘h yoki aso,
Ko‘rki, ne ishga qoldi Barsiso.

(Ashobi Uxdud qol Ollohu taolo) qutila ashobul-uxdud»[72]. Bu qavm Yaman mulkidin erdilar va Zulvos bularning podshohi erdi. Va borcha butparast va gumroh erdilar. Va Zulvosning bir vaziri bor erdi, sohir. Qarig‘on chog‘da bir yigitni tarbiyat qilibkim, qoim maqomi qilg‘ay. Va ul yigit bir kun bnr yo‘l bila boradur erdi, bir un eshittiki, birov Tengri taoloning otin tutub tazarru’ qilur. Ul ot ko‘ngliga xush kelib, mutaassir bo‘lub, tilab, ul mutakallimni topti. Bir obid erdi. Yer ostida qavm qo‘rqunchidin ibodat qiladur erdi. Aning xidmatig‘a mashg‘ul bo‘lub, bot haq taolodin olin marotib topti. Andoqki, bir yo‘lida jam’i bir ajdaho qo‘rqunchidin mutavaqqif erdilar va muztarib. Ul ilgari borib, ajdahoning uchasig‘a ilikin silab ajdaho yo‘ldin qiroq chiqib, xalq o‘tti. Va bu nav’ xavoriq andin ko‘b zohir bo‘ldi. Podshohning bir hojibining ko‘zi ramad shidda-tidin ko‘r bo‘lub, hechkim iloj qilaolmaydur erdi, ul duo bila bino qildi. Va hojib din qabul qildi. Podshoh andin ko‘zi yorug‘och, sababin so‘rdi ersa, ulcha voqe’ erdi, dedi. Podshoh ul yigitni va obidni tilab, millatlarin bilgandin so‘ngra islom dinndin ruju’ buyurdi. Chun qabul tushmadi, hojib bila obidni o‘lturub, yigitni boliglar tu’masi uchun bahrg‘a yibordi. Tengiz qirog‘inda aning duosi mulozimlarini suvg‘a solib, yigit solmm keldi va podshohni ding‘a dav’at qildi. Bu qotla tog‘din tashlasunlar, deb yibordi ham yel ani eltganlarni tog‘din uchurub, ul solim keldi. So‘ngra ani dorg‘a osib, sangboron va tirboron qildilar, kor qilmadi va dori ostig‘a o‘t yoqtilar, asar qilmadi. Chun yigitga haq taolo visoli ishtiyoqi g‘olib erdi, dedikim, Tengri taolo otin tutub o‘q oting. Alar ul degondek qildilar. O‘q anga o‘tti va halok bo‘ldi.

Chun obid yigit o‘ldi, haq taolo amri bila ashobi Uxdud ham kuydilar.

Sh ye ‘ r:

Magar oh urdi ul dam Obidi pok
Ki, yaksar kuydilar ul qavmi bebok.

Shamsun Obid. Manquldurkim, Iso a. s. bila hazrat Risolat sallallohu alayhi vasallam zamonlarining orasida arab ichra obidi erdikim, kecha ishi ibodat erdi. Tengri taolo anga ancha kuch bernb erdikim, mushriklar necha anga qasd qildilar, zafar topaolmadilar. Oqibat xotunin qavm shohi o‘z nikohi va’dasi bila firib berib, ul bevafo va’da qildikim, ani giriftor qilg‘an.

Sh ye ‘ r:

Da’ zikrahunna mimmo lahunna vafou,
Rihussabo vava’di savou[73].

Bir kecha obid uyug‘onda g‘addora aning ilik-ayog‘in berk tanob bila bog‘lab, Shamsun uyg‘ondi va zo‘r qildi va iplarni uzub, ul ishning qilg‘on sababin so‘rdi ersa, dedikim, saning zo‘rungni imtihon qildim. Ahli sharik muni bilgoch, zanjir yibordilar. Bu qotla zanjir bila bog‘ladi. Obid yana uyg‘onib, zo‘r qilib, zanjir dog‘i uzuldi. Oqibat makr va fusun bila obid sodadin iqror tortti va ham aning mahosini tukidin bosh bormog‘in bog‘lab, kufforg‘a topshurdi. Alar Shamsunni band qilib, podshoh

qoshig‘a elttilar. Podshoh bir manzarada o‘lturub erdikim, ani to‘rt sutun ustiga nasb qildilar. Obidqa qatl hukmi qildilar. Obid duo qildi ersa, bir qushqa amr bo‘ldikim, ani ul banddin xalos qilib, buyurdikim, ul sutunlarni tortib, ul imoratni yiqti. Va podshoh va xosi halok bo‘l-dilar.

Manquldurkim, Shamsun ming oy ibodat qildi. Va ahli Tafsir debdurlarkim, kalomullohda «Laylatul-qadri xayrun min alfi shahr»[74] din maqsud ul ming oydur. Obidqa bu maxlas voqe’ bo‘lub, xotunin taloq qildi.

Sh ye ‘ r:

Uldurur Obidi alal-itloq-
Ki, jahonning ajuzin etti taloq.

Jarih Rohib. Ibn Abbos razinallohu anhudin manquldurkim, Jarih otlig‘ ham Iso a. s. Zamonidin so‘ngra bir obid yigit paydo bo‘ldikim, o‘n uch yoshiding ibodatqa mashg‘ul bo‘ldi. Va aning karomat va xavorik odoti ko‘b mashhur erdi. Va ahli shirk doim aning iyzosig‘a, balki daf’ig‘a makrlar qilur erdi.

Va Jarihning onasi bor erdi-solihan obida. Har kun bir qotla Jarih uchun taom kelturur erdi. Bir kun taom kelturub, savmaa eshikin qoqti. Chun Jarih namozg‘a mashg‘ul erdi, eshik ochvrg‘a kechrak kelib, onasi malul bo‘lub, duo qildikim, «Arokallohulvu-juhal muvmisot»[75]. Ya’ni Tengri taolo sanga zoniya xotunlarning yuzin Ko‘rguzsun. Va onasining bu duosi mustajob bo‘lub, jam’iki aning qasdida erdilar, bir zoniyani mol va’dasi bila firifta qilib, Jarihning savmaasig‘a rahnamolig‘ qildilar. Va ul zoniya Jarihqa o‘z zinosi bila tuhmat qildi. Va ul ashror Jarihning bo‘ynig‘a ip taqib, maliklari qoshig‘a eltib, malik Jarihqa qatl hukmi qildi. Onasn eshitib, malik suhbatig‘a borib dedikim, o‘g‘lumning , bu tuhmatdin pokligiga guvohim bor, balki maning duom jihatidin bu balog‘a uchrabdur. Malik dedikim, guvohing kimdur? Soliha ul zoniyani tilab, ilik qornig‘a qo‘yub munojotdin so‘ngra qorindog‘i tiflni chorlog‘och, tifl labbayk, deb javob berdi. Soliha so‘rdikim, saning otang kimdur? Tifl dedikim, falon qo‘ychi. Uch qotla savol bu erdi va javob bu. Bu ajib holdin borcha mutaajjub bo‘lub, Jarihqa uzr qo‘ldi.

Delarki, tifl tuqqonda ham ahli fasod bu tuhmatni og‘oz qildilar. Uch kunluk tifl yana hamul aytqon so‘zin aytti. Va Jarihni haq taolo ul balodin qutqordi.

Sh ye ‘ r:

Har kimsaki, pok esa dag‘odin,
Tengri ani asrasun balodin.

Hukamo zikri. Chun Luqmonning hikmati va nubuvvati orasida ixtilofdur. Va aksar el ani nabiy debdurlar. Anbiyo zumrasida bitildi va hukamo orasida ham mazkur qilildi. Va andin bir-iki so‘z bila mazkur qilinur. Ul debdurki, borcha yukni torttim, burchdin og‘irroq. yuk ko‘rmadim va borcha lazzatni tottim, ofiyatdin chuchukrok sharbat totmadim, xushxo‘y yotlarg‘a qarobatdur va badxo‘y qarobatlarg‘a yot. Andin so‘r-dilarkim, ne nimadurkim, foydasi borcha xaloyiqqa teyar? Dedikim, yomonlarning yo‘qlug‘i. Va aning umri yuqori bitilibdur.

Sh ye ‘ r:

Yoshing Luqmondin ar xud bo‘lmasa kam,
Chu borg‘ungdur borur damdur hamul dam.

Fishog‘urs hakim. Luqmoni hakimning shogirdidur. Ba’zi debdurlar, Gushtosb zamonida erdi. Musiqiy ilmi aning voze’idur. Andin burun bu fanni tadvin qilg‘on kishi ma’lum emas. Va soz ham aning muxtari’idur va kamolda ta’rifdin mustag‘niy. Aning so‘zlaridindurkim, kishi o‘z madhin desa, chin dog‘i bo‘lsa, nopisanddur va o‘tkonlar bila ont ichmak yolg‘on nishonasidur va musibatqa sabr qilmoq shamotat qilg‘uchining musibati.

Sh ye ‘ r:

Andaki soz safar o‘ldi anga,
Sozlari navhagar o‘ldi anga.

Jomosb hakim. Gushtasbning qardoshidur va Luqmonning shogirdi erdi. Nujum ilmida g‘arib ahkomi bor. O‘z zamonidin so‘ngra uch ming yilgacha kelur ishlarni hukm qilibdur. Va aning so‘zlaridindurkim, karimning yomonroq xislati o‘z ilmining tarki va laimning yaxshiroq xislati o‘z ilmining tarki. Va aning madfani Fors viloyatidadur.

Sh ye ‘ r:

Kishiga bo‘lsa ko‘kka chiqmoq fan,
Ne asig‘, ko‘rsa oqibat madfan.

Buqrot hakim Fishog‘ursning shogirdidur. Va Bahman chog‘ida erdi va tibb ilmida mohir erdi va tasonifi bor. Va fusuli Buqrot ul jumladindurkim, atibbo qoshida bag‘oyat mu’tabardur. Ul debdurkim, umr qisqadur, ish uzun. Oqil uldurkim, bu qisqa umrni bir nimaga sarf qilg‘aykim, zaruratroqdur, ya’ni oxirat maslahati va Tengri taolo rizosi.

Sh ye ‘ r:

Kishiki qildi amal Tengrining rizosi bila,
Haq etti oxiratin komu muddaosi bila.

Buqrotis hakim. Buqrotis Buqrot shogirdlaridindur. Aning so‘zlaridiidurkim, sharif ilm ko‘igulda qaror tutmas, taxsis nimalar ko‘nguldin chiqmas. Yaxshi so‘z ko‘ngulni yorutur va yaxshi xat ko‘zning ne’mati arusidurkim, aning mahri shukrdur. Va ozkim poydor bo‘lg‘ay ko‘bdin yaxshiroqni nopoydor bo‘lg‘ay.

Sh ye ‘ r:

Birovkim poydor o‘lg‘ay erur haq,
Aning g‘ayri erur ma’dumi mutlaq.

Suqrot hakim Buqrotisning shogirdidur va Humoy binti Bahman zamonida erdi. Va aning so‘zlaridindurkim, nodong‘a tavozu’ qilmoq hanzalg‘a suv bermakdurkim, necha ko‘p ichsa, talxroq bo‘lur. Sa’y ishikim, o‘z yerinda bo‘lmag‘ay, qilur ishda kohilliddin yomonroqdur va dushman bila mashvarat qilib va dushmanlig‘in bilsa bo‘lurkim, ne poyadadur.

Sh ye ‘ r:

Cheksa dushman sening salohingga til,
Mahzi afsod bo‘lg‘usidur bil.

Aflotun hakim Suqrotning shogirdidur. Va Dorob zamonida zuhur qildi va Iskandari Rumiyg‘a musohib bo‘ldi. Va hakimi olihi erdi. Va aning so‘zlaridin-durkim, podshohg‘a chog‘ir ichmak haromdur, nevchunkim, ul mulk va raiyyatning nigohbonidur. Nigohbonkim, anga nigohbon kerak bo‘lg‘ay, yaxshi bo‘lmag‘an. Mufliski, o‘zin g‘aniy tutqay dijamdekdurkim o‘zin semiz ko‘rguzgay. Jud tilaman bermakdur, nevchunki, tilab bergan tilaganning mukofotidur.

She’r:

Tilamay jud qil saxiy ersang,
Tilamak muzdidur tilab bersang.

Aristotolis hakim Aflotunning shogirdidur, Iskandarning vaziri erdi. Aning so‘zlaridin budurkim, podshoh ulug‘ rudg‘a o‘xshar va atbon arig‘larg‘akim, ul ruddin ayrildilarkim, ul rud sunig‘a har hol bo‘lsa, arig‘larg‘a hamul holdur. Ul chuchuk bo‘lsa, bular chuchuk; Ul achig bo‘lsa, bular achig‘; Ul sof bo‘lsa, bular sof; Ul loy bo‘lsa, bular lon. Pas, podshohg‘a vojibdur – goyat hikmat va e’tidol bila maosh qilmoq, to xayl va hashami anga mutobaat qilgaylar.

Sh ye ‘ r:

Shoh daryo va xalq erur anhor,
Ikisining suyig‘a bir maza bor.

Balinos hakim Aristotolisning shogirdidur. Iskandariya minorasi tilisminikim, farang ahli qilg‘on, anda ko‘runur erdi, Balinos yasab erdi. Va aning so‘zlaridindurkim, podshoh kerakkim, borcha eldnn nima olgay, ammo e’tidol bila, to mulk barqaror bo‘lg‘ay. Yo‘qki, borchag‘a nima bergay bee’tidolliq bila, to mulk buzulg‘ay.

Sh ye ‘ r:

Chu shah oz olsa bo‘lg‘ay mulk obod,
Chu ko‘b berdi, bo‘lur yuz mulk barbod,

-ya’ni ko‘b bersa, ko‘b olmog‘ lozimdur.

Jolinus hakim Balinosning shogirdidur. Va aning so‘zlaridindurkim, anduh jon bemorlig‘idur. Bemorkim, nshtahasi bo‘lg‘ay, ul tandurustdin yaxshiroqdurkim, ishtahasi bo‘lmag‘aykim, anga sihat ortar va munga ranj.

Sh ye ‘ r:

Bemori mushtahiyg‘a salomat nishonidur,
Chun tandurust mushtahiy ermas, ziyonidur.

Batlimus Hakim Jolinus shogirdidur. Va aning so‘zlaridin bukim, qobilning saodati budurkim, fahim bo‘lg‘ay. Nekbaxt uldurkim, el holidin pand olg‘ay va badbaxt ulkim, aning holidin el pand olg‘aylar.

Sh ye ‘ r:

Ulus af’olldin sen bo‘l barumand,
Yo‘q ulkim, olg‘ay af’olingdin el pand.

Sodiq No‘shiravoni odil zamonida erdi. Va No‘shiravong‘a nasihatnoma bitibdur. Bu mufrid so‘z aning so‘zlaridindurkim, shoh va gadog‘a foydasi omdur. «Lo t’kul taoman va fi me’datika taomo‘n»[76].

Sh ye ‘ r:

Zarari borcha elga om o‘lgan,
Kim taom ustida taom o‘lg‘ay.

Buzurjmehr No‘shiravoni odilning vaziri erdi. Aning o‘zlaridindurkim, ustodimdin so‘rdimkim, yigitlikda ne qilmoq yaxshy va qarilig‘da ne qilmoq yaxshi? Dedikim, – yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilig‘da ani amalg‘a kelturmak yaxshidur.

Sh ye ‘ r:

Yigitlig‘da yig‘ ilmning maxzani,
Qarilig‘ chog‘i xarj qilg‘il ani.

TARIXI ANBIYo VA HUKAMO»DAGI QUR'ONI KARIM OYaTLARI VA BOShQA ARABIY IBORALAR TARJIMASI

1. Odamning loyini qirq kun (tong) o‘z qo‘lim bilan qordim.
2. Va u zot Odamga barcha narsalarning ismlarnni o‘rgatdi...

(Qur'oni majid «Baqara» surasi, 31-oyat. Bundan keyin sura nomi va oyatlar raqami beriladi).

3. Barcha-barcha farishtalar unga (ya'ni, Odamga) sajda qildilar. Magar iblis sajda qiluvchilar bilan birga bo‘lishdan bosh tortti («Hijr» – 50).
4. Va albatta to jazo (qiyomat) kunigacha senga (barchaning) la'nati bo‘lur («Hijr» – 35).
5. Ey odam, sen esa jufting (Havvo) bilan jannatni maskan tutib... («Hijr» – 19).
6. ... Mana shu qarg‘achalik bo‘la olmadimmi? («Moida» – 31).
7. Va biz uni yuksak martabaga ko‘tardik («Maryam» – 57).
8. Parvardigorim, yer yuzida kofirlardan biron hovli-joy egasini qoldirmagin («Nuh» – 26).
9. ... u sening ahlingdan emas... («Xud» – 46).
10. ... hatto mustahkam qal'alar ichida bo‘lsangiz ham.. (o‘lim sizlarni topib oladi («Niso» – 78).
11. Biz: «Ey zulqarnayn, yo ularni azobga duchor qilursan yoki ularga yaxshi muomalada bo‘lursan», – dedik («Qahf» – 86).
12. «Mana shu Parvardigorim» («An'om» – 76).
13. U ham botib ketgach: «Ey qavmim, men sizlarning shirkingizdan pokman» («An'om» – 78).
14 .... Ekin o‘smaydigan bir vodiy... («Ibrohim» – 37).
15. Menga keksalik paytimda Ismoil va Ishoqni hadiya qilgan zot – Ollohga hamdu sanolar bo‘lsin («Ibrohim» – 39).
16. Biron narsa U zotga o‘xshash emasdur. U eshitguvchi va ko‘rib turguvchidir («Sho‘ro» – 11).
17. «Ey ota, men tushimda o‘n bir yulduzni, yana quyosh va oyni ko‘ribman. Hammalari menga sajda kilayotgan emish» («Yusuf» – 4).
18. ... Bu bashar (farzandi) emas... («Yusuf» – 31).
19. (Aytdi:) «Men sizlarga rizq bo‘ladigan (har qanday) taom oldingizga kelishidan ilgari uning qanday taom ekanini, ta'vilini aytib bera olaman» («Yusuf» – 37).
20. (Aytdi:) «Ey o‘g‘illarim, (Misrga) bir darvozadan kirmanglar, balki boshqa-boshqa darvozalardan kiringlar!» («Yusuf» – 57).
21. «Ey otajon, mana shu ilgari ko‘rgan tushimning ta'biridir» («Yusuf» – 100).
22. «Parvardigoro, biz bilan qavmimiz o‘rtasida haq hukm qilgaysan. O‘zing hukm qilguvchilarning yaxshirog‘idirsan» («A'rof» – 89).
23. Men sizlarning eng ustun Parvardigoringizman («Zan-najot» – 24).
24. «(Bu bola) men uchun ham, sen uchun ham ko‘z quvonchidir. Uni o‘ldirmanglar. Shoyadki, uning bizlarga naf'i tegsa yoki uni bola qilib olsak...» («Qasos» – 9).
25. Tilimdan tugunni – duduqlikni yechib yuborgin.
26. Mening o‘zim Ollohman («Toha» – 27).
27 «Parvardigorim, o‘zing men uchun huzuringda – jannatda bir uy bino qilgin, menga Fir'avn va uning qilmishidan najot bergin va menga bu zolim qavmdan najot bergin...» («Tahrim» – 11).
28. Ey Homon, men uchun bir (baland) qasr qurgin («G‘ofir» -36). 29. «...Asoying bilan» dengizni urgin... («Shuaro» – 63).
30. Ollohdan, uning g‘azabidan panoh tilaymiz va yana panoh tilaymiz. nafslarimizning va amallarimizning yomonligidan (Duo).
31. ... Eshitdik va bo‘yinsunmadik... («Baqara» – 93).
32. Ey yer, tut (yut) buni.
33. ... Bas, borgin, sen o‘zing va Parvardigoring ular bilan urushaveringlar («Moida» – 24).
34. «... Parvardigorim, men faqat o‘zimga va birodarim (Horun)ga egaman, xolos. Bas, o‘zing biz

bilan bu itoatsiz qavmning orasini ajratgin...» («Moida» – 25).

35. U (xizmatkor) aytdi, «Buni koʻring, biz (dengiz sohilidagi) qoyaga borib (orom olgan) paytimizda, men baliqni (unga jon kirib, savatdan tushib ketganini) unutibman» («Qahf» – 63).

36. «... InshoOlloh, sen mening sabr-toqatli ekanimni koʻrursan. Men biron ishda senga osiylik – itoatsizlik qilmasman» («Qahf» – 69).

37. «Aniqki, sen men bilan birga sabr qilishga hargiz toqating yetmas, demaganmidim?!» («Qahf» – 72).

38. Aytdi: «Mana shu sen bilan mening ajrashimizdir...» («Qahf» – 78).

39. Sabr qiling, ey onajon, Siz Ollohga yaqinlashib, uning rizoligini topdingiz. Siz bilan jannat orasida ikki qadamgina qoldi.

40. Muso (oʻzining xizmatkori) yigitiga: «To ikki dengiz qoʻshiladigan yerga yetmaguncha yoki uzoq zamonlar kezmaguncha yurishdan toʻxtamanman» («Qahf» – 60).

41. Ey Dovud, darhaqiqat, biz seni yerda xalifa qildik. Sen kishilar orasida haqiqat bilan hukm qil! («Sod» – 26).

42. Ular dedilar: «Qoʻrqmagin, (Bizlar) birimiz birimizga zulm qilgan ikki da'volashguvchi (jamoat)dirmiz. Bas, sen bizlarning oʻrtamizda haq bilan hukm qilgin va (bizlardan biror tarafga) jabr qilmagin hamda bizlarni tekis – toʻgʻri yoʻlga boshlagin» («Sod» – 22).

43. Kishi oʻz nafsi tufayli halokatga uchraydi.

44. Dedi: «Parvardigorim, oʻzing meni magʻfirat qilgin va menga oʻzimdan keyin birontasi uchun muyassar boʻlmaydigan bir mulku davlat hadya etgin. Zero, yolgʻiz sening oʻzinggina (barcha yaxshiliklarni) hadya etguvchisan» («Sod» – 35).

45. Sulaymonga ertalab bir oylik, kechki payt bir oylik (masofani bosib oʻtadigan) shamolni (boʻysundirdik) («Saba'» – 12).

46. Axir ular oʻzlaricha Olloh osmon va yerni hamda ular orasidagi bor narsani faqat haq (qonun) va belgilangan muddat bilan yaratganini (demak oʻsha muddat bitgach, dunyo tugab, oxirat boshlanishini) tafakkur kilib koʻrmadilarmi? Darhaqiqat, bu odamlardan koʻpchilik qayta tirilib, Parvardigorlariga roʻbaroʻ boʻlishni inkor qilguvchilardir.

47. Albatta, u Sulaymondir va u (maktubda shundan bitilgandir): «Mehribon va rahmdil Olloh nomi bilan boshlayman. Sizlar menga kibr-havo qilmay, huzurimga boʻysungan holnigizda kelingiz!» («Naml» – 27).

48. (Shunda) jinlardan bir pahlavon aytdi: «Men uni sen oʻrningdan turishingdan ilgari senga keltirurman. Albatta, men bunga qodir va ishonchlidurman» («Naml» – 39).

49. (Olloh dedi:)... «Darhaqiqat, Biz Sulaymonni imtihon qildik» («Sod» – 34).

50. ... Va uning taxti ustiga jonsiz jasadni tashladik («Sod» – 34).

51. «Aniqki, Biz Luqmonga hikmat ato etdik...» («Luqmon» – 12).

52. (Olloh dedi:) «Yunus ham, shubhasiz, paygʻambarlardandir» («Saffon» – 139).

53. «Parvardigoringiz hukmiga sabr qiling va nahang baliq sohibi (Yunus paygʻambar) kabi besabr boʻlmang!» («Qalam» – 48).

54. «... Hech iloh yoʻq, magar oʻzing bordirsan, ey pok Parvardigor, darhaqiqat, men (oʻz jonimga) jabr qiluvchilardan boʻlib qoldim...» («Ankabut» – 87).

55. «Qancha muddat (oʻlik holda) turding?» «Bir kun yo yarim kun», – dedi u Olloh dedi: «Yoʻq, yuz yil turding. Taom va ichimligingga qara – buzilgan emas. Endi eshagingni (chirib, suyaklari ajrab ketganini) koʻrgin» («Baqara» – 259).

56. Yahudiylar: «Uzayr Ollohning oʻgʻli», – dedilar («Tavba» -30)

57. «... Parvardigorim, men qiz tugʻdim». Holbuki, Olloh uning nima tuqqanini bilguvchirogʻdir va har qanday oʻgʻil va qiz kabi (bu qizning oʻrnini bosguvchi) emasdir «va men unga Maryam deb ism qoʻydim. Men bu qizga, uning zurriyotiga dargohingdan quvilgan shaytonning yomonligidan panoh berishingni sendan iltijo qilaman» («Oli Imron» – 33).

58. «Bas, Parvardigori uni (Maryamni) xush qabul aylab, chiroyli parvarish etdi...» («Oli Imron» – 37).

59. Har qachon Zakariyo (Maryamning) oldiga hujraga kirganida, uning huzurida bir rizq – nasiba ko‘rdi. U: «Ey Maryam, bu narsalar senga qayoqdan keldi?» – deb so‘raganida (Maryam) javob qildi: «Bular Olloh huzuridandir...» («Olv Imron» – 37).

60. «Albatta, Olloh o‘zi xohlagan kishilarga behisob rizq berur» («Oli Imron» – 37).

61. So‘ng mehrobda namoz o‘qib turgan vaqtida unga farishtalar nido qildilar... («Oli Imron» – 38).

62. (Biz unga): «E Yahyo, Kitobni (ya’ni Tavrotni) mahkam ushlagin, (dedik) va unga go‘daklik chog‘idayoq hikmat – ma’rifat ato etdik» («Maryam» – 12).

63. Eslang (Ey Muhammad), farishtalar: «Yo Maryam, albatta, Olloh senga o‘zining so‘zini xushxabar qilib beradiki, uning ismi al-Masih Iso binni Maryam bo‘lib, dunyoyu oxiratda obro‘li va (Ollohning) yaqinlaridap bo‘lur hamda odamlarga go‘daklik paytida ham voyaga yetgan chog‘idagidek gapirur va Solih bandalardan bo‘lur...» («Oli Imron» - 46).

64. Eslang, Iso binni Maryam: «Ey Bani Isroil, albatta, men Ollohning sizlarga (yuborgan) payg‘ambaridurman. (Men) o‘zimdan oldingi Tavrotni tasdiqlaguvchi va o‘zimdan keyin keladigan Ahmad ismli bir payg‘ambar haqida xushxabar berguvchi bo‘lgan holda yuborildim...» («Saf» – 6).

65. «Men sizlarga loydan qush timsolini yasab, unga puflasam, u Ollohning izin – irodasi bilan haqiqiy qush bo‘ladi. Va yana ko‘r, pes kasallarini tuzata olaman...» («Oli Imron» – 49).

66. «Va Ollohning izni bilan o‘liklarni tiriltiraman...» («Oli Imron» – 49).

67. «... Ey tangrim, Parvardigor, bizga osmondan bir dasturxon nozil qilgilki, u avvalu oxirimiz uchun bayram va sening oyat – mo‘‘jizang bo‘lib qoladi. Bizni (shu ne’matdan) bahramand qilgil. O‘zing eng yaxshi rizq berguvchisan...» («Moida» – 114).

68. Ollohdan panoh tilaymiz nafslarimizning va amallarimizning yomonligidan (Duo).

69. Hali ular (ya’ni, payg‘anbar (a. s.)ga zamondosh bo‘lgan yahudiy va nasorolarning ayrimlari o‘sha Ashobul – Qahfni): «Uchtadir, to‘rtinchilari itlaridir», – deb gaybga tosh oturlar (aniq bilmagan narsalari haqida gap soturlar)... («Qahf» – 22).

70. (Ular Qahf – g‘orlarda) uch yuz yil turdilar va yana to‘qqiz yilni ziyoda ham qildilar («Qahf» – 25).

71. So‘ng (yahudin va nasroniy) firqalar (Iso xususida) o‘zaro ixtilof qildilar... («Maryam» – 37).

72. Choh egalari la’nat qilingaylar («Buruj» – 4).

73. (She’r) Ayollarning vafosi haqida zikr qilishni qo‘y. (Ularning vafosi) tonggi shabada va (yolg‘on) ahdu paymonning o‘zidir.

74. Qadr kechasi mnig ondan yaxshiroqdir («Qahf» – 3).

75. Olloh senga zoniya xotinlarning yuzini ko‘rsatsin.

76. Me’dangda taom bo‘laturib, taom yema. Qur’oni karim oyatlari Alouddin Mansur tarjimasidan olindi.